



O'ZBEK XALQ ERTAKLARI



ERNAZAR VA KIMYONAZAR

O'ZBEK XALQ ERTAKLARI

**ERNAZAR VA
KIMYONAZAR**
ERTAKLAR



Toshkent – 2018

UO'K: 811.21

KBK: 86.34

O'zbek xalq ertaklari. Ernazar va Kimyonazar. – T.:
«Adabiyot uchqunlari», 2018, 128 bet.

ISBN 978-9943-5257-1-9

UO'K: 811.21

KBK: 86.34

ISBN 978-9943-5257-1-9

© «Adabiyot uchqunlari» nashriyoti, 2018.



ERNAZAR VA KIMYONAZAR

Bir zamonda bir podsho o'tgan ekan. U podshoning uchta o'g'li va uchta qizi bo'lgan ekan.

To'ng'ich o'g'lining oti Pirnazar, o'rtancha o'g'lining oti Xo'janazar, kenja o'g'lining oti Ernazar ekan. Podsho uchala o'g'li ichida kenjasini yaxshi ko'rar ekan.

Podsho shohlik davlatida kayf-safo ichida davr-u davron surib o'taveribdi. Bolalarini o'qitmabdi. O'g'illari ham ota davlatida katta bo'libdi. Katta va o'rtancha o'g'li taltaygan, kayf-safoga, qimorga berilgan ekan. Ernazar esa ancha bosiq, o'yli-fikrli ekan. Podsho o'zining dunyodan o'tish vaqti yaqinlashganini bilib, bolalarini huzuriga chaqirib, ularga pand-nasihatlar qilibdi. Podsho katta o'g'li Pirnazarga:

– Falon joydagi katta bog', falon joydagi ichki-tashqili hovli-joy, mana bu ikki xum tilla senga. Mabodo men o'lib ketsam, shu narsalar mendan senga meros, – debdi. O'rtancha o'g'li Xo'janazarga aytibdi:

– Falon bog' va falon hovli-joy, mana bu ikki xum tilla mendan senga meros bo'lib qolsin, – debdi. Podsho Ernazarni chaqirib:

– O'g'lim, senga nima kerak? – debdi. Ernazar:

– E, otajon! Menga hech narsaning keragi yo'q. Menga Sizning sog'-salomatligingiz kerak! – debdi. Shunda podsho aytibdi:

– Falon hovli-joy, bog', ikki xum tilla va mana bu chalabuzar pichoq senga meros bo'lib



qolsin. Pichoqni akalaringga ko'rsatma! Bu pichoq tilsim pichoq bo'ladi. Buning senga ko'p foydasi tegadi, — debdi. — Mana, sen qarab tur, deb podsho qo'lga chalabuzarni olib, boshmaldog'i bilan bir chekkasini bosib turib:

— Kimyonazar! — debdi. Shunda chalabuzar chiq etib ochilib, podshoning oldida abjir bir yigit paydo bo'lib:

— Labbay, Nazar! — deb turibdi. Podsho:

— Menga bir kosada qatiq keltir! — debdi. O'sha zamon bir kosa qatiq paydo bo'libdi. Podsho Ernazarga:

— Ko'rdingmi? Sen nimani istasang, bu chalabuzarni qo'lga olib Kimyonazarni chaqirib buyursang, aytganing hozir bo'ladi. Bu pichoqning sirini hech kimga aytmagin, — debdi. Podsho Ernazarga yana:

— Men o'lgan kunim bir chol keladi. Unga katta singlingni olib chiqib bergin. Ikkinchi kuni bir chol keladi. Unga o'rtancha singlingni olib chiqib bergin. Uchinchi kuni tag'in bitta chol keladi. Unga kenja singlingni olib chiqib bergin! — debdi.

Oradan bir qancha kun o'tgach, podsho o'libdi. Uning motamini qilib, mozorga olib borib ko'mishibdi. Podsho o'lgan kuni kechqurun Ernazarning hovlisiga bitta chol kishi chaqirib kelib: "Bizning qizimizni olib chiqing!" debdi. Ernazar katta singlisini olib chiqib beribdi. Chol qizni olib ketibdi. Ikkinchi kuni yana bir chol kishi kelib: "Qani, bizning qizimizni olib chiqib bering!" debdi. Ernazar o'rtancha singlisini olib chiqib beribdi. Chol olib ketibdi. Uchinchi kuni



yana bitta chol kelgan ekan, unga kenja singlisini olib chiqib beribdi.

Podsho o'lgandan keyin Pirnazar bilan Xo'janazar buzuqchilik yo'llarida yuraveribdi. Otasidan qolgan tillalarni, bog'-u rog', hovli-joylarni yutqizib, ship-shiydon bo'lib qolibdi.

Ernazar bo'lsa, yomon yo'llarga yurmay, otasidan qolgan bog'ni o'z qo'li bilan parvarish qilib, ekin ekib, onasini boqib yuraveribdi. Akalari och qolib, Ernazardan yordam so'rab kelsa, otasidan qolgan tillalardan beribdi. Akalari bu tillalarni ham qimorga boy berishibdi. Oxiri kelib, Ernazarning qo'liga qaram bo'lib qolishibdi. Bir kuni Pirnazar Xo'janazarga:

– Ernazar shunday boy bo'lib yura beradi-yu, biz bunday faqir bo'lib, bitta nonga zor bo'lib yura beramizmi? Buni o'ldiraylik, buning narsalarini o'zimiz olaylik, – debdi.

Ikkalasi maslahatni bir qilishib, kechasi hamma uxlagan chog'da, qo'llariga oybolta olib, ukasi yotgan uyga sekin kirayotganda, oyoqlarini mis ko'zaga urib, mis ko'za ag'anab chilopchinga tegib, sharaqlab ketib, Ernazar uyg'onib ketibdi. Ernazar o'rnidan turib qarasa, ikki akasi qo'llariga oybolta olib: "Seni o'ldiramiz!" deb turishibdi. Shunda Ernazar akalariga aytibdi:

– E, akalar! Men sizlarga nima yomonlik qildim? Nima so'rasalaring beryapman-ku! – desa, akalari:

– Baribir seni o'ldiramiz, – deyishibdi. Shunda Ernazar:

– Meni o'ldirmanglar! Mayli, otamdan qolgan hamma tillalarni, bog'ni, hovli-joylarni sizlarga



berayin. O'zim boshimni olib bir taraflarga ketayin! – debdi. Shunda akalari:

– Unday bo'lsa, mayli. Sen tezda bu yerdan ketgin, – debdilar. Tong otibdi. Ernazar hamma narsalarini akaloriga topshirib, boshi oqqan tomonga ketibdi.

Ernazar shu chiqqanicha ketaveribdi. Bir joyga borsa, bir kal qo'y boqib yurgan ekan. U bilan ust-boshini almashtiribdi. Kal nusxasiga kirib olib ketaveribdi. Yura-yura bir shaharga yetibdi. Bu shaharda aylanib yurib, bir kabobpazga shogird tushibdi. Kabobpaz go'shtlarni maydalab, zira-piyoz qilib, sixlarga sanchib beraveribdi. Ernazar sixlarni otashqo'raga terib, chap qo'lidagi yelpig'ich bilan yelpib, pishiraveribdi, kabobxo'rlar yeyaverishibdi.

Shunday qilib, kabobpazning ishi yurishib, puldor bo'lib ketibdi. Ammo kabobpaz xasis odam ekan, Ernazarni bir yil ishlatsa ham, qo'liga loaqal ikki tanga pul bermabdi.

Shu bozorga bir chol har kuni qatiq olib kelib, sotib ketib turar ekan. Ernazar cholni chaqirib, oldiga non, ikki-uch six kabobni qo'yib, "Ota, charchab kelgansiz. Bularni yeb, meni duo qiling!" der ekan. Chol ham non-u kabobni yeb: "Iloho! Tuproq olsang oltin bo'lsin!" deb duo qilar ekan. Bir kun Ernazar cholga:

– Ota! O'g'lingiz bormi, yo'qmi? – debdi. Chol:

– E, bolam! Menda o'g'il nima qilsin! Agar o'g'lim bo'lsa, qarigan chog'imda shunday qilib yurarmidim! – debdi. Ernazar aytibdi:

– Bo'lmasa, meni o'g'il qilib olmaysizmi?



Chol xursand bo'lib, Ernazarni o'g'il qilib, uyiga olib ketibdi. Ernazar cholning xizmatini o'g'ildan ham ziyoda qilib, har kuni ota-bola bozorga kelib, qatiq sotib yuraverishibdi.

Bir kuni chol bilan Ernazar juda erta turib bozorda qatiq sotib tursalar ikki yoqdan oftob chiqib turgan emish. Ernazar hayron bo'lib, choldan:

– Ota, har kuni bir yoqdan oftob chiqar edi.

Bugun ikki yoqdan kun chiqibdi. Bu qanaqa kun? – debdi. Shunda chol:

– Bu kunchiqar tomondan chiqqan oftob o'zimizning oftobimiz. Bu tomondagi kun bizning podshohimiz qizining husni, – debdi. Chol bilan Ernazar qatiqni sotib, yana uylariga qaytishibdi.

O'sha kuni kechasi chol bilan kampir qattiq uyquga kirishganda Ernazar o'rnidan turib, molxonaga kiribdi. Cho'ntagidan chalabuzarni olib:

– Kimyonazar! – debdi. Tilsim chalabuzar ochilib:

– Labbay, Nazar! – deb abjir yigit paydo bo'libdi. Ernazar aytibdi:

– Shu molxonaning ichi ipak gilam, atlas ko'rpa, qandil chiroqlar bilan bezalgan chiroyli uyga aylansin; ichida har xil ovqatlar, sharoblar muhayyo bo'lsin! So'ngra shu shahar podshohining go'zal qizi shu uyda hozir bo'lsin!

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Ernazarning aytganlari muhayyo bo'lib, podshohning qizi hozir bo'libdi. Ernazar qizning oldiga kal holidagi kiribdi. Keyin kal ust-boshlarini, boshidagi po'stagini yechib tashlab, shahzodacha



kiyimlarini kiyib, chiroyli yigit bo'libdi. Qiz bilan ikkalalari bazm qilib o'tirishibdi. Shu paytda cholning xotini uyg'onib qolibdi. Kampir tashqariga chiqsa, og'ilning ichi yorug'. Borib qarasa, molxonaning ichi chiroyli uy bo'lib qolibdi. Ichida kal bola shahzoda kiyimlarini kiyib, podshoning qizi bilan bazm qilib o'tiribdi. Kampir bularni ko'rib: "Yo, Oллоh! Bu qanday gap bo'ldi!" deb yoqasini ushlab, hayron bo'lib qolibdi. Keyin borib cholini uyg'otib:

— Tez turing! Molxonadagi ahvolni borib ko'ring! — debdi. Chol ham bu gapga hayron bo'lib, tez o'rnidan turib, chiqib og'ilxonaga borib qarasa, og'ilxona qop-qorong'i, hech gap yo'q.

Og'il o'z joyida turgan emish. Chol kampiriga:

— E, kampir! Tush ko'rib, alahlab chiqibsan, ko'zingga shunday narsalar ko'rinibdi! — debdi.

Ertasi kuni kechasi Ernazar yana og'ilga kiribdi. Chalabuzarni olib, Kimyonazarni chaqirib, yana kechagiday bo'lsin, deb buyuribdi. O'shanday bo'libdi. Ernazar podshoning go'zal qizi bilan bazm qilib o'tirsa, yana kampir uyg'onib chiqib qolibdi. Kampir bularning ishini ko'rib, yana borib cholini uyg'otibdi. Chol uyg'onib turib chiqib qarasa, yana hech gap yo'q. Shunda chol kampirini:

— Sen tentak bo'lib qoldingmi? Nimaga bunday dovdiraysan! Kal o'rnida uxlab yotibdi-ku, — deb urishibdi.

Oradan bir necha kun o'tibdi. Yigit bilan qiz shu kebatada kechasi bilan tong otguncha bazm qilib chiqar ekan. Tong o'tay deganda qiz o'z



o'rnida bo'lar ekan. Kunlardan bir kuni Ernazar otasiga:

– Ota! Shu podshoning qizini menga xotinlikka olib bering, – debdi. Chol:

– E, bolam! Podshoning qiziga qancha boyvachcha, bekvachcha shahzodalar ham yetisha olgani yo'q. Sen bir kalvachcha bo'lsang, men bir kambag'al odam bo'lsam! Podshoning qiziga yetishish uchun sen bilan menga yo'l bo'lsin! – debdi. Shunda yigit:

– E, ota! Podsho qizini bizdan ortiq kimga beradi? Sovchilikka boravering! Beradi, – debdi. Chol bo'lsa:

– Hoy, bolam! Aqlingni yedingmi? O'zingdan o'zing nimalar deyapsan? – debdi. Ernazar:

"Borasiz! Beradi" deb qistay beribdi. Chol sovchilikka borishga majbur bo'libdi.

Chol borib, podshoning o'rda eshigining oldini supurib yuribdi. Darvozabonlar erta bilan cholni ko'ribdi-yu, podshoga yugurib kirib:

– Taqsiri olam! Sizga sovchi kelibdi! – deyishibdi. Podsho so'rabdi:

– Kim ekan?

– Bilmadik. Bir mo'ysafid chol eshik oldini supurib yuribdi, – deyishibdi. Podsho:

– Unday bo'lsa, huzurimga boshlab kiringlar? – debdi. Darvozabonlar chiqib, cholni ergashtirib, podshoning oldiga olib kirishibdi. Podsho so'rabdi:

– Xush kelibsiz, ota! Nima ish bilan keldingiz? – debdi. Chol podshoga egilib-bukilib:

– E, shahanshohim! Meni kechiring! Men bir kambag'al odamman. Bir o'g'lim bor. Qizingizni yaxshi ko'radi. O'g'limga qizingizni bersangiz



deb keldim, — debdi. Podsho choldan bu gapni eshitib achchig'i kelib:

— Jallod! — debdi. Jallod yetib kelibdi.

Podsho:

— Bu cholning kallasini ol! — debdi. Jallod cholning kallasini olib, yoniga qo'yibdi.

Shu kuni Ernazar otasini kutibdi. Otasi kelmabdi. Ernazar tilsim chalabuzarni qo'lga olib:

— Kimyonazar! — debdi.

— Labbay, Nazar! — debdi.

— Qani chol? — debdi.

— Cholni podsho o'ldirib qo'ydi, — debdi.

— Cholni hozir borib, tiriltirib olib kelasani! — debdi. Oradan sal o'tgandan keyin chol Ernazarning oldida paydo bo'lib qolibdi.

Ernazar choldan so'rabdi:

— Nimaga kech qoldingiz? Podsho bilan gaplashdingizmi? Nima dedi? — debdi. Chol:

— E, bolam? Podsho bizga qizini bermaydi.

Qizingizni bering desam, jallodini chaqirib, kalamni oldirdi. Yana xudo jon ato qildi, yetib keldim, — debdi.

Ernazar sahar turib cholni uyg'otibdi.

— Turing, ota! Yana sovchilikka boring! — debdi. Chol unamabdi. Yigit qistabdi. Chol o'rnidan turib borib, yana podshoning eshigi tagini supuraveribdi.

Erta bilan uni yana podshoning oldiga olib kirishibdi. Chol podshoga: "Sovchilikka keldim!.." debdi. Podsho:

— "Sen tirilib keldingmi? Joning qattiq ekan. O'lmagan ekansan!" deb jallodini chaqirib:



– Buni to‘rt bo‘lak qil! – debdi. Jallod cholni o‘ldirib, to‘rt bo‘lak qilibdi.

Ernazar qarasa, chol yana yo‘q. Yana Kimyonazarni chaqirib, unga buyurib, cholni tiriltirib, olib kelibdi.

Chol shu tariqa podshoning o‘rdasiga yetti kungacha sovchilikka boraverdi: podsho cholni o‘ldiraverdi, u yana tirilib kelaverdi. Qirq birinchi kuni borganida, podshoning dono vaziri aytdi:

– E, podshohim! Siz cholni o‘ldira berasiz. Bu tirilib kela beradi. Bunda bir hikmat bor.

Shoshmang! Cholni o‘ldirmang! Unga og‘ir bir shart qo‘yamiz. Shu shartimizni bajarsa, qizimizni beramiz. Bajarmasa, bermaymiz, deb qat‘iy qilib aytamiz, – dedi. Bu gap podshoga ma‘qul bo‘ldi. Cholga aytishdi:

– Senga uch kun muhlat. Shu muhlatning ichida necha yuz ot, otga ortib tilla, kumush; necha ming qo‘y, necha yuz tuya olib kelsang, qizimizni beramiz.

Chol uyiga qaytib borib, Ernazarni ura ketibdi:

– Sen "Kal" meni shuncha qiynading! – debdi.

– Podsho shuncha narsalarni topib kelasan deb aytdi. Men uch kunda bu narsalarni qaydan topaman?

Shunda Ernazar:

– E, ota! Xursand bo‘laving! Podshoning qizi endi o‘zimizniki bo‘libdi. Bu narsalarni men topib beraman, – debdi.

Oradan ikki kun o‘tdi. Uchinchi kuni ham hech narsaning daragi yo‘q. Cholni vahima bosib,



kechasi bilan uxlamay chiqdi. Erta bilan turib, Ernazarga aytdi:

– Qani topganing! Uch kun o'tdi. Hech narsa yo'q. Menda to'rtta qo'y, bir sigirdan boshqa nima bor? Nima qilamiz endi? – deb yigitni so'ka ketdi. Yigit:

– Siz ko'chaga chiqib qarang. Men tayyor qilgan narsalarni ko'rasiz! – dedi. Ernazar erta bilan turib, Kimyonazarni chaqirib: "Podsho aytgan qalinni ikki baravar miqdorda tayyor qilib, podshoning o'rdasiga jo'natilsin!" degan edi. Chol ko'chaga chiqib qarasa, ot, mol, qo'y, tuya hech qayerga sig'maydi. Chol bu narsalarni ko'rib, suyunib, podshoning o'rdasiga chopib yetib bordi.

Borsa, podsho bu narsalarning hisob-kitobiga yetmay, qo'ygani joy topolmay: "Bo'ldi! Yetadi endi! Bas endi!" deb baqirib-chaqirib turgan ekan. Shu bilan orada quda-andalik ipi bog'lanib ketdi.

Bir kuni Ernazar bozorda yursa, bir odam kuyib-pishib bir somsapazning o'chog'iga o't yoqyapti, kulga tushgan kuyuk somsalarni terib yeyapti. Yaqin borib qarasa, o'rtancha akasi. O'zini tanitmay o'tib ketdi. Bir joyga borsa, bir odam kir ust-bosh kiygan, soch-soqoli o'sib ketgan, eshakka axlat ortib, hammomning go'lohiga olib kirib ketyapti. Shunday qarasa, bu katta akasi ekan.

Ernazar uyiga borib, chalabuzarni qo'liga olib dedi:

- Kimyonazar!
- Labbay, Nazar!
- Ikkala akamni olib kel!



Ikkala akasi yetib keldi. Ularni yuvintirib, soch-soqolini oldirib, yaxshi kiyimlarni kiydirib, olg'ir qushday qilib qo'ydi. Yaxshi ot olib mindirdi. Podshoning uchta qizi bor edi. Ernazar yaxshi ko'rgan go'zal qizi kichkinasi edi. Bir kuni podsho uchala qizini boloxonaga chiqarib qo'yib:

– Shaharning yigitlari shu joydan o'tsin, kichkina qizimga oshiq bo'lgan cholning o'g'li ham shu yigitlar bilan birga o'tsin. Qizim o'sha yigitni yaxshi ko'radimi, boshqani yaxshi ko'radimi, o'zi tanlasin, – debdi.

Yigitlar o'taverdi. Ularning orasida Pirnazar bilan Xo'janazar ham ot minib o'tib qoldi. Shunda podshoning katta qizi Pirnazarga olma otdi. Pirnazar ot bilan boloxonaga chiqib, qizning peshonasidan o'pib, olib tushdi. O'rtancha qizi Xo'janazarga olma otdi. Xo'janazar ham chiqib, qizning peshonasidan o'pib, olib tushdi. Podshoning kenja qizi hech kimni yoqtirmadi. Shunda podsho odamlaridan so'rab:

– O'tmagan yana kim qoldi? – dedi. Odamlari surishtirsa, Ernazar o'tmagan ekan.

– Falon mahallada, bir cholning og'ilida yotgan bitta "Kal" o'g'li o'tmay qolibdi? – deyishdi. Podsho:

– Aytinglar! U ham o'tsin! – dedi.

Shunda bir yag'ir eshakni minib, cholning "Kal" o'g'li Ernazar ham o'tib qoldi. Podshoning kichkina qizi Ernazarni tanidi va o'rnidan turib, unga olma otdi. "Kal" eshak bilan chiqib, qizning ikki yuzidan o'pib, olib tushdi. Shunda qizning opasi:



– He, o'! Sen kelib-kelib, shu qirmoch kalni tanladingmi? – deb masxara qildi. Podshoning kichkina qizi aytdi:

– Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga. Mayli! Men kal bo'lsa ham shu yigitga tegaman, – dedi.

Podsho qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomoshga qilib, qizlarini bu aka-ukalarga berdi. Katta, o'rtancha qizi va kuyovlarini yaxshiyaxshi uylarga joyladi. Kichkina qizi bilan "Kal"ni bo'lsa, bitta otxonaga joyladi. Ernazar kechasi bo'lganda Kimyonazarni chaqirib otxonani juda ham yaxshi uyga aylantirib, o'zi shahzodaga aylanib, tong otguncha bazmini qilaverdi. Tong otganda uyni yana otxonaga aylantirib qo'ydi.

Ernazarning ikkala akasi kamon-o'qlarini olib, otlariga minib: "Biz ov ovlab kelamiz!" deb ko'lga borib, hech narsa ota olmay, lab-lunjlari tushib, qaytib kelishdi. Ertasi podshoning kenja kuyovi o'zining yag'ir eshagini minib ovga chiqib ketib, kechqurun g'oz va o'rdaklarni eshakka yuklab olib keldi. Bir juft g'oz bilan bir juft o'rdakni yaxshilab pishirib, podshoga: "Mana bu kichik kuyovingiz-dan!" deb kirgizib yubordi.

Podsho erta bilan ikkala katta kuyovini chaqirib kelib:

– Qani, sizlar ham ovga borib, ilvasin otib kelinglar-chi! Bir ilvasinxo'rlik qilaylik-chi! – dedi.

Ikkala kuyovi yana ovga borib, kechgacha yurib, hech narsa otolmay, ikki qo'llarini burunlariga tiqib qaytib kelishdi. Kenja kuyov bo'lsa yag'ir eshagining ikki yog'iga bittadan



ikkita savatni osib chiqib, ilvasinni ko'p otib, savatlarni to'ldirib keldi. Yaxshilab pishirib, podshoga kirgizib yuboraverdi. Ikki akasi juda bo'g'ilishdi. Ular ukasiga:

– Hoy, kal! Bizga otib kelgan g'oz va o'rdaklaringdan sotsang-chi! – dedi. Ernazar:

– Yo'q, sotmayman! – dedi. Akalari: "Sotgin!" deb yalinaverdi. Shunda Ernazar aytdi:

– Bo'lmasa, ikkalang yalang'och bo'lasan!

Orqalaringga tamg'a bosaman. Keyin ikkala savatdagi ilvasinni olib ketaverasan! – dedi.

Akalari: "Biz shu kalning nimasidan uyalamiz. Bossa, bosaversin!" dedi. "Kal" ularning orqasiga tamg'ani qizdirib bosdi. Tamg'aning izi tushib qoldi. Keyin ikkalasiga bir savatdan g'oz, o'rdak berdi.

"Kal" yana savatlarini ilvasinga to'ldirib, akalaridan burun uyiga yetib kelib, qo'lga chalabuzarni olib:

– Kimyonazar! – dedi.

– Labbay, Nazar! – dedi.

– Bir to'qqiz o'rdakni, patini yulib, shirin qilib pishir! – dedi.

Bir to'qqiz o'rdak darrov pishdi. "Kal" o'rdak go'shtlarini bir jonon tovoqqa bosib, podshoning oldiga olib kirdi. Podsho bu o'rdak go'shtlarini vazirlari bilan birga baham ko'rdi. Hammalari: "Juda mazali ekan!" deb maqtashdi.

Podshoning ikki kuyovi ham o'rdaklarni olib keldi. O'lib-tolib, patlarini yulib, chala-chulpa pishirib, podshoga olib kirdilar. Podsho bularning o'rdaklarini yemay:

– Ikkalang kalchalik ham bo'lmading! – deb g'azab qildi.



Bir kuni dehqonlar podshoni xonadoni va butun amaldorlari bilan qovun sayliga aytishdi. Podsho xonadoni va amaldorlari bilan birga qovun sayliga bordi. Uchala qizi va ikkala katta kuyovi ham borishdi. Ammo kenja kuyovi bormadi. Dehqonlar mehmonlarni yaxshi kutib oldilar. Podshoni va bola-chaqalarini baland joylarga o'tqazishdi.

Dasturxonlarni yozib, ob-taom tortilayotgan paytda tilla egar, tilla yuganli otni minib, zarzarbofga o'ranib, bir shahzodasifat yigit yetib keldi. Uning otining ikki tomonida bittadan ikkita chiroyli it irg'ib, o'ynab kelyapti. Bu Ernazar edi. Uning peshvozigga odamlar chiqib, darrov otdan qo'ltiqlab olib, yuqoriga taklif etishdi. Shahzoda yuqoriga chiqib borib, o'z xotinining yoniga o'tirdi va xotinining peshonasidan bir o'pdi. Shunda xotinning ikki opasi:

- Bu kim? Nimaga seni o'padi? – deyishdi.
- Bu erim! – dedi. Opalari:
- Yolg'on aytasan! – deb ishonishmadi.

Ziyofatlar ketma-ket o'tib turar edi. Ashula, o'yin avjiga chiqdi. Ernazarning ikki akasi podshoning yonida ukasini sira pisand qilmay, to'rsayib o'tirishar edi. Shunda podsho ikkala katta kuyovlaridan qanday qilib ilvasinlarni ovlaganlari haqida so'rab qoldi. Ular qanday ov qilganlari haqida yolg'on ishlatib gapirib berdilar. Shunda Ernazar podshoga:

– Taqsir! Kuyovlaringiz yolg'on aytadi. Bular chumchuqning ham burnini qonatolmaydi. Bularga yordam berib, orqasiga tamg'amni bosganman, Ishonmasangiz, tekshirib ko'ring! –



deb podshoga tamg'ani berdi. Podsho bularning orqalarini ochirib ko'rsa, shahzodaning aytgani to'g'ri. Kuyovlari juda uyalib, sharmanda bo'lishdi.

Qovun sayli tugab, hammalari qaytib kelishdi, "Kal" podshoga:

– Menga uch kunga ruxsat bersangiz. Bir ishim bor edi. Qilib kelayin! – dedi. Podsho ruxsat berdi.

Ernazar bundan jo'nab, daryoning labiga bordi. Chalabuzarni chaqirib:

– Kimyonazar! – dedi.

– Labbay, Nazar! – dedi. Ernazar:

– Shu suvning ustiga bir qasr yasagin! Tepasi osmonga, tagi suvga tegmasin! – dedi. Bir zumda suvning ustida shunday qasr bino bo'ldi. Ko'rgan odamning og'zi ochilib qoladigan, juda chiroyli qasr bo'ldi.

Ernazar qaynotasining oldiga qaytib borib:

– Mana, men keldim! Endi bizga ruxsat bering! Biz ketaylik, – dedi. Podsho aytdi:

– Qayerga borasan? Ernazar aytdi:

– Bizning ham joyimiz bor. Qizingiz bilan borib, o'sha joyimizda turamiz. Podsho:

– Sening qayerda joying bor? Ernazar aytdi:

– Sizni uyimizga ziyofatga chaqiramiz. Shunda borib ko'rasiz. Podsho ruxsat berdi. Ernazar xotinini olib, qasrga jo'nadi.

Qasrga shoti bilan chiqib, shotini yuqoriga tortib olib qo'ydi. Malika bilan shu joyda yashayverdi. Ernazar o'zlariga nima kerak bo'lsa, Kimyonazarni chaqirib aytadi, aytganlari darrov tayyor bo'ladi. Ernazar ba'zan ovga chiqadi. Xotinini ham birga olib chiqadi. Agar



xotinini qoldirsa: "Qasrga hech kimni chiqarmang! Agar o'zingiz pastga tushib-chiqsangiz, shotini yana balandga olib qo'ying!" deb tayinlab ketadi.

Xayr, bular bu yerda shunday kayf-safo qilib yotaversin. Endi gapni boshqa joylardan eshiting. Podshoning mamlakatida shunday ovoza bo'lib ketdi: "Bir qatiqfurush chol bor ekan-u, uning "Kal" o'g'li bor ekan. Shu "Kal" podshoning kichkina qiziga uylanibdi. Qizning qaliniga shuncha ming ot, shuncha ming qo'y, shuncha ming tuya, ot va tuyalarning ustiga oltin-kumushlarni ortib beribdi. O'zi hozir falon daryoning yuziga tepasi osmonga, tagi suvga tegmaydigan qasr qurib, shu qasrda turar emish" degan gap tarqalib ketdi. Bu ovoza Qoraxon podshoning ham qulog'iga borib yetdi. Qoraxon podshoning bir ayyor, jodugar kampiri bor ekan. Darrov shoh jodugarni chaqirtirib kelib, unga:

– Falon podshoning bir "Kal" kuyovi bor ekan. U "Kal" podshoning kichik qiziga juda katta qalin beribdi, hali Odam Atodan beri hech kim bu qadar ko'p qalin bera olgan emas. O'sha "Kal" bir daryoning ustiga qasr qurgan emish. Sen o'sha mamlakatga borasan. Shu "Kal" shuncha narsalarni qanday muhayyo qila oldi ekan, qanday qilib suv ustiga, suvga tegmaydigan, muallaq qasr qurdi ekan, shularning sirini bilib kelasan! – debdi. Jodugar:

– Xo'p, podshohim! Bu topshirig'ingizni bajarib kelaman! – deb jo'nab ketibdi.

Jodugar kampir Ernazarning qasrini so'rab-so'rab topib boribdi. Borib, malikani chaqirib: "Men bir kimsasiz kampirman. Meni o'zingga



xizmatchi qilib olgin! Xizimatingni qilib yuraman!" debdi. Malika: "Bizga xizmatchi kerak emas!" debdi. Kampir ketmasdan o'n kungacha yalinib, pastda yotaveribdi. Bir kuni malika eriga aytibdi:

— Pastda bir kampir o'n kundan beri meni xizmatchi qilib ol, deb yig'lab yotibdi. Hech kimi yo'q ekan. Shu kampirdan nima yomonlik kelar edi. Keling, shuni xizmatchi qilib olaylik! — debdi.

Eri rozi bo'libdi. Kampirni qasrga chiqarib, o'zlariga xizmatchi qilib olishibdi. Kampir qulog'ini ding qilib yuraveribdi. Kampir diqqat qilsa, har kuni qozon qurilmay, go'sht-yog', sabzi-piyoz, guruch tayyor qilinmay, shirin-shirin taomlar; un elab xamir qilinmay, yaxshi nonlar paydo bo'lib qolar emish. Jodugar: "Shoshma! Bunda bir gap bor!" deb diliga tugib qo'yibdi.

Kampir malikaga o'zini yaqin tutib, o'zini juda jonkuyar ko'rsatib, har xil shirin gaplar bilan uning ko'nglini ovlayveribdi. Bir kuni Ernazar ovga ketib, bular ikkovi qolibdi. Shunda ayyor kampir malikaga:

— Ering juda alomat yigit. Xudoyo, qo'sha qaringleari Ering baraka topkur senga qancha qalinlar beribdi. Mana bu qasrni quribdi. Bu bir mo'jiza-ya! Eringdan bir so'rasang-chi! Shuncha narsalarni qanday qilib tayyorladi ekan-a! — debdi.

Bu gaplar malikani ham qiziqtirdi. Kun kech bo'ldi. Malikaning eri ovdan keldi. Kechki ovqat ham o'tdi. Kechasi uyquga yotganda malika eridan:



– Siz dadamga shuncha narsalarni qayerdan topib bergansiz? Hech odamning aqli bovar qilmaydi-ya! Bu qasrni qanday qilib qurdingiz? – deb so‘radi. Eri:

– Bu sir. Buni hech kimga aytganim yo‘q, sizga ham aytmayman, – deb aytmadi.

Ertasiga kampir yana o‘rgatdi:

– Bu kecha bo‘yniga osilib olgin! Siz meni yaxshi ko‘rmas ekansiz! Agar yaxshi ko‘rsangiz aytar edingiz, degin, – dedi. Ertasi kuni kechasi malika kampir aytganlarini qilib, erining bo‘yniga osilib, yig‘ladi. Shunda eri aytdi:

– Men bu narsalarni mana shu tilsim chalabuzarning kuchi bilan qilganman, – deb chalabuzarning butun sirini xotiniga aytib qo‘ydi. Malika:

– Men bu chalabuzarni shu kungacha sizda ko‘rmagan edim-ku! – desa, eri:

– Kunduz kuni cho‘ntagimda yuradi. Kechasi yostiqlarning tagiga qo‘yib yotaman, – dedi. Ertasi kampir:

– Ha, qizim so‘radingmi? – dedi.

– So‘radim! – dedi va erining aytgan gaplarini kampirga aytdi. Jodugar:

– Bo‘lmasa, bugun kechasi ering uxlaganda sekin chalabuzarni olib chiqqin-chi! Bir ko‘raylik, qanaqa ekan! – dedi.

Kun kech bo‘ldi. Ernazar qaytdi. Malika uning yo‘liga chiqib: "Hormang!" deb borib, bo‘yniga osilib, quchoqladi. Keyin olib kelgan ilvasinlarini olib kirdi. Kechki ovqat yeyildi, ichildi, oxiri bular uxlash uchun yotishdi.

Kechasi osmonda yulduzlar charaqlar, daryoning yoqimli suvlari o‘ynab oqmoqda edi.



Osmondagi oy hamma yoqni yoritib turar, oy shu'lasini derazadan kirib, Ernazar bilan malikaning o'rinlarini yoritib turardi. Ovdan charchab kelgan eri malika bilan uzoq gaplasha olmay uxlab qoldi. Shunda eriga sezdirmay yostiqlarning ostidagi chalabuzarni sekingina oldi va kampirga olib chiqib ko'rsatdi.

Kampir malikaning qo'lidan chalabuzarni olib, u yoq-bu yog'ini ko'rgan bo'ldi. Shunda kampir malikani narigi xonaga bir ishga buyurdi. Malika o'sha ish bilan ketganda kampir fursatni g'animat bilib, darrov chalabuzarga qarab:

– Kimyonazar! – dedi.

– Labbay, Nazar! – dedi.

– Kalni bir to'qayga olib borib tashla! So'ngra bu qasrni shu ko'yicha Qoraxon podshoning shahriga olib borib qurasan! – dedi.

Jodugarning aytgani bo'ldi.

Ernazar subhi sodiq vaqtida bir tush ko'rdi: tushida ko'lga ovga borgan emish. Ammo bu kuni hech narsa otolmabdi. Ko'lda aylanib yursa, bir yo'lbars chiqib, unga qarab, irillab kelaveribdi. Ernazar yo'lbarsni qancha mo'ljallab otadi, o'qi tegmaydi. O'qlarini otib tugatadi. Yo'lbars og'zini ochib, yetib keladi. Ernazar cho'ntagidan chalabuzarni olib: "Kimyonazar!" deydi, Kimyonazar kelmaydi. Shunda yo'lbars kelib unga tashlanadi. Shu payt malika ko'lga cho'kib; "Dod, meni qutqaring!" degan tovushi eshitiladi. Ernazar cho'chib uyg'onib ketadi. Ko'zini ochib qarasa, bir joyda botqoqqa botib yotibdi. Yigit: "Hay, attang! Otam: "Pichoqni hech kimga ko'rsatma!" degan edi. Men ko'rsatib qo'ydim. Ham joydan ajraldim, ham yordan", deb



xafa bo'ldi. Botqoqdan chiqib, boshi oqqan tomonga ketaverdi. Bir joyga borsa, darvozasi temirdan, juda mustahkam bir qo'rg'on turibdi.

Yigit darvozani taqillatdi. Darvozani ochib bir yosh ayol chiqib keldi. Ernazar shunday qarasa, otasi o'lganda bir chol olib ketgan kichkina singlisi. Bular bir-birini tanishib, quchoqlashib, yig'lashib ko'rishishdi. Hol-ahvol so'rashdi. Qiz akasini uyiga olib kirdi. Akasi:

– Bu qanday joy? – deb so'radi. Singlisi:

– Bu devlarning makoni. Otam o'lganda borib meni olib kelgan chol odamxo'r dev ekan. Bu o'sha devning joyi. Hali kelsa, sizni yeb qo'ymasin, men sizni duo o'qib, olma qilib, tokchaga qo'yaman! – dedi.

Singlisi akasini ziyofat qildi. Bir zamon havo yurishib, shamol, bo'ron bo'ldi, momaqaldiroq gulduradi. Singlisi: "Dev kelyapti" deb duo o'qib, akasini olma qilib, tokchaga olib qo'ydi. Shamol-to'polonning ichida dev yetib kelib:

– Puf, odam isi kelyapti! Uyda odam bor, deb tashqarida turaverdi. Shunda malika aytdi:

– Kiravering! Otam o'lganda meni sizga olib chiqib bergan akam kelibdi! – dedi. Dev kirdi va:

– Qani akang? – dedi.

– Sizni, bilmasdan, yeb qo'ymasin deb, tokchaga olma qilib olib qo'ygan edim, – deb olmani olib, duo bilan yana odam qilib, devga to'g'ri qildi. Dev Ernazar bilan ko'rishib, so'rashib, gaplashib o'tirdi. Uch kundan keyin dev Ernazardan hol-ahvol so'radi. Ernazar butun bo'lib o'tgan voqeani gapirib berdi. Shunda dev aytdi:



– Jodugar qasringizni uchirib o'tganda ko'rgan edim. Ushlab olayin dedim, singlingiz unamadi.

Endi men sizga har xil duolar o'rgatayin, – deb bir oygacha unga ismi a'zam o'rgatdi. Ernazar bir duo o'qib qush, yana odam bo'lib qolar edi. Ernazar devdan iltimos qildi:

– Menga buncha duolarni o'rgatdingiz! Sizga rahmat! Endi menga yordam bering, men borib qasrni va chalabuzarni topib olib kelayin, – dedi.

Dev Ernazarni yelkasiga mindirib osmonga uchdi. Uchib borib-borib, necha tog'dan oshib, bir qo'rg'on darvozasining oldiga tushdi. Yelkasidan yigitni tushirdi va:

– Bu qo'rg'on o'rtanCHA akamning qo'rg'oni.

O'rtanCHA singlingiz ham shunda turadi. Sizga o'rtanCHA akam yordam qiladi, – deb dev yana uchib ketdi. Yigit shu joyda qoldi. Bir vaqt havo buzilib, shamol, bo'ron boshlandi. Yigit darvozani taqillatdi. Ichkaridan bir ayol chiqib:

– Kim? – deb so'radi. Yigit singlisining tovushidan tanidi va:

– *Havo havodin oshdi,*

Havoga bulut toshdi.

Ochmaysanmi, jon singlim,

Yurak to'lib, g'am toshdi, –

dedi. Singlisi eshitsa, akasining tovushiga o'xshaydi. Yuraklari urib ketdi: "Akam meni axtarib keldimikin?" deb darvozani ochib, ko'chaga chiqdi. Qarasa, akasi ekan. Bular bir-birini tanishdi. Yig'lab, ko'rishib, ichkariga olib kirdi. Akasiga:

– Hozir dev keladi, – deb dam solib, olma qilib, tokchaga olib qo'ydi. Bo'ron-to'polon ichida



osmonda dev uchib keldi va pastga tushmay, osmonda aylanib yuraverdi. Xotini:

– Tushing! – dedi. Dev:

– Uydan odam hidi kelyapti! – dedi.

– Hech odam yo‘q! Tusha bering! – dedi.

– Sen yolg‘on aytyapsan! Uydan odam hidi kelyapti, – dedi.

– Otam o‘lganda borganingizda, meni olib chiqib bergan akam kelibdi. Tushavering! – dedi.

Shunda dev tushib, uyga kirdi va:

– Qani akang? – dedi. Xotini:

– Ko‘rsatsam, yeb qo‘ymaysizmi? – dedi.

Dev:

– Yemayman! – dedi. Shunda singlisi olmani oldi, duo bilan yana odam qilib, devga to‘g‘ri qildi.

Dev u bilan so‘rashdi, gaplashdi. Ernazar devga hamma voqeani gapirib berdi. Dev yigitga duolar o‘rgatdi. Ikkovi kaptar bo‘lib, devning katta akasinikiga uchib borishdi. Dev yigitni shu joyda qoldirib:

– Katta singling shu joyda turadi. Eshikni taqillatsang, chiqadi, – deb o‘zi uchib ketdi.

Dev ketgandan keyin yana shamol, to‘polon boshlandi. Yigit darvozani taqillatdi. Bir ayol chiqib:

– Kim taqillatgan? – dedi. Ernazar katta singlisining ovozidan tanib:

– Menman? – dedi. Singlisi kelib eshikni ochdi. Aka-singil bir-birlarini tanishib, so‘rashdi. Qiz akasini uyiga olib kirdi. Ikkalasi gaplashib o‘tirdi.

Bir vaqt yana havo buzilib, jala quydi. Shu to‘polonda katta dev yetib keldi. Qiz akasini igna



qilib, yoqasiga sanchib qo'ydi. Katta dev kelib, bu ham pastga tushmasdan osmonda turaverdi. Xotin:

- Tushmaysizmi? – dedi. Dev:
- Uydan odam hidi kelyapti, – dedi.
- Odam yo'q, tusha bering, – dedi. Dev:
- Yolg'on aytasan! – dedi. Shunda xotini:
- Otam o'lgan kuni borganingizda meni sizga olib chiqib bergan akam keldi. Tusha bering! – dedi.

Dev tushib uyiga kirdi.

- Qani akang? – dedi. Xotini:
- Yeb qo'ymaysizmi? – dedi. Dev:
- Yemayman. Ko'rsataver! – dedi.

Shunda singlisi yoqasidagi ignani olib, bir duo o'qib dam solib, yana odam qilib qo'ydi. Yigit dev bilan so'rashdi. Bular ham har tarafdand gaplashib o'tirishdi. Yigit nima ish bilan kelganligini va boshidan o'tganlarni devga gapirib berdi. Dev uch oygacha yigitga har xil tilsimlarni o'rgatdi. Yigit devga aytdi:

- Siz menga yordam qiling! Borib qasrimni olib kelayin, – dedi. Dev aytdi:

- Qasringiz shu joydan uchib o'tgan edi. Men ushlab olay desam, singlingiz unamadi. Endi turing. Qoraxon podshoning shahriga boramiz! – dedi. Ikkalalari lochin bo'lib uchib, Qoraxon podshoning yurtiga yetib borishdi. Yerga qo'nishdi. Dev yigitga aytdi:

- Siz kechgacha shu joyda turasiz. Kech bo'lganda musicha bo'lib, Qoraxon podshoning derazasiga qo'nasiz. Qoraxon podsho yotgandan keyin, chumchuq bo'lib uyiga kirasiz.



Yostig'ining tagidan chalabuzarni olasiz! — deb o'zi orqasiga qarab uchib ketdi. Ketayotib:

— Qasrni qo'lga kiritsangiz, bizning joyga qo'nib o'ting. Bizning ham ko'nglimiz taskin topsin! — dedi.

Yigit kechgacha o'tirdi. Namozni asr bo'lganda bir tilsim o'qib, musicha bo'lib uchdi va Qoraxon podshoning derazasiga borib qo'nib: "huv-huv"lab sayray berdi. Kechasi bo'lib, Qoraxon podsho uxlab qoldi. Shunda yigit yana bir duo o'qib, chumchuq bo'lib, uyning ichiga kirdi. Kirsam, Qoraxon podsho uxlayotgan ekan. Sekin borib, yostig'ini ko'tarib, ostidan chalabuzarni qo'lga oldi. Uyning bir chekkasiga olib kelib:

— Kimyonazar! — dedi.

— Labbay, Nazar! — dedi. Ernazar Kimyonazarga hazillashib, qulog'ining tagiga bir tarsaki solib:

— Qayerda eding?! — dedi. Kimonazar ham Ernazarning qulog'ining tagiga bir tarsakini tushirib:

— Shu yerda edim, — dedi. Ikkalasi quchoqlashib ko'rishib, kulishdi, yigit aytdi:

— Nimaga bu yerlarga kelib qolding? — dedi.

Chalabuzar aytdi:

— Men o'zim kelibmanmi? Meni kim qo'lga olsa, o'shaning quliman. Nima ish buyursa, qilaman. Senga otang: "Pichoqni hech kimga ko'rsatma, sirini birovga aytma!" degan edi. Sen xotiningga aytding. U bilmasdan jodugar kampirga aytdi. Jodugar shu ishlarni qildi! — dedi. Yigit:

— Malika qani? — dedi.



— Malikani podsho o'z nikohiga olmoqchi edi, malika rozi bo'lmadi. Podsho ko'p qiynoqlarni berib, bir uyga qamab, kampirni unga qorovul qilib qo'ydi, — dedi. Yigit:

— Podsho bilan kampirni tosh qilib qotirib qo'y, — dedi.

Kampir bilan Qoraxon podsho tosh bo'lib qotib qoldi. Ernazar malika qamalib yotgan xonaga borsa, malikaning jamoli uyni yoritib turibdi. O'zi oh urib:

*Shovvozimdan judodurman,
Boshimda soyabonim yo'q.
O, g'amim g'am tog'idan oshdi,
Ani ayturga yorim yo'q! —*

deb yig'layapti. Shu zamon yigit eshikni ochib kirdi. Har ikkalasi bir-birini quchoqlab, yig'lab ko'rishdi. Yigit malikasiz juda qiynalganini yoriga bildirish uchun:

*— Daraxtsiz hovliga kirdim,
Boshimdan oftob o'tdil —*

dedi. Shunda malika:

*— Bo'yingdan aylanay yorim,
Sening qadring yomon o'tdi, —*

dedi. Yigit chalabuzarni chaqirdi:

— Kimyonazar.

— Labbay, Nazar!

— Qasrni o'z joyiga olib borib qur! — dedi.

Qasr osmonga ko'tarilib uchdi. Qasr Ernazarning singillarining qo'rg'oni ustidan uchib o'tdi. Singillari va devlar bularni ko'rib, xursand bo'lib qolishdi.

Qasr o'z joyiga qurildi. Malika bilan yigit yana topishib, shodlikda umr o'tkazaverdi.



katning ustiga qo'yibdi. Keyin yana: "Har kim qilsa, o'ziga, har kim qilsa, o'ziga", deb o'z joyiga borib, bo'zini to'qiyveribdi.

Podshoning ikki o'g'li bor ekan. Ular kampir yashaydigan joyga yaqin yerda bir mulladan saboq olishar ekan. Bolalar o'qishdan qaytayotganlarida kampirnikiga kirib, bo'z to'qishini tomosha qilishar ekan, cho'llaganda kampirdan suv so'rab ichar ekanlar. O'sha kuni podshoning o'g'illari o'qishdan qaytib kelayotib, yana kampirnikiga kirishibdi, suv so'rabdilar, suvni ichib bo'lgandan keyin qarasalar, katning ustida bir tovoq palov turibdi. Bolalarning qorni och ekan. "Oshdan bering", deb turib olishibdi. Kampir bo'lsa: "Har kim qilsa, o'ziga, har kim qilsa o'ziga", deb turib, bolalarga:

— Yeya qolinglar, — debdi. Bolalar palovni o'rtaga qo'yib, paqqos tushirishibdi, o'rinlaridan turmasdan yiqilibdilar. Kampir dod-faryod ko'tarib, podshoning huzuriga yugurib boribdi va bo'lgan gapni birma-bir aytib beribdi. Podshoning buyrug'i bilan haligi qo'shnilar ovqatga zahar solib berishgan ekan. Podshoning bolalari til tortmay o'lib qolibdi. Shundagina podsho kampirning "Har kim qilsa, o'ziga" deganining ma'nosini tushunibdi. Ha, u kampirga yomonlik qilgani uchun o'zi ikki bolasidan ajralibdi. Kampirning qo'shnilariga jazo beribdi, lekin foyda bermabdi.

ZOLIM XON BILAN CHO'PON

O'tgan zamonda bir zolim, qonxo'r xon bo'lgan ekan. Xonning qirq xotini bo'lib, bitta ham



farzand ko'rmagan ekan. Xon umrining oxirida eng kichik xotinidan bir o'g'il ko'ribdi.

Kundan kun, oydan oy, yildan yil o'tibdi. O'g'li o'sib ulg'ayibdi, qomati kelishgan, aqli raso, rahmdil yigit bo'lib yetishibdi.

Xon ko'zining oqu qorasi, bitta-yu bitta o'g'luga shamolni ham ravo ko'rmas ekan. U o'g'lining rahmdilligidan g'azablanar ekan. Lekin o'g'luga hech nima deyolmay, u bilan so'zlashgan odamni o'ldirtirar ekan.

Kunlardan bir kuni shaharning chetidagi bir o'rmonda yovvoyi to'ng'iz paydo bo'lib, ekinlarni payhon qilib, xalqqa ko'p zarar yetkazibdi. Hech kim to'ng'izni ushlolmabdi. Aksincha, to'ng'iz o'rmonga borgan odamlarni halok qilar ekan. Buni eshitgan xonning o'g'li o'rmonga borib to'ng'izni o'ldirib kelish uchun otasidan ijozat so'rabdi. Xon javob bermabdi.

Oxiri xonning o'g'li otasiga bildirmay kiyinib, yarog'-aslaha olib, bir o'zi o'rmonga o'tlanibdi. Darvozada turgan soqchilardan biriga:

– Men uch kunda qaytib kelsam kelganim, bo'lmasa meni o'ldi deb bilinglar, – debdi. Yigit o'rmonga qarab yo'l olibdi.

Yosh yigit o'rmonga borib ikki kecha-yu ikki kunduz to'ng'iz bilan olishibdi. Uchinchi kuni to'ng'iz uni ezg'ilab, majaqlab tashlabdi. U halok bo'libdi. Xon o'g'lining ko'rinmaganiga hayron bo'lib, surishtiribdi. Hech kim aytmabdi. Oxiri soqchilardan biri xonning o'g'li o'rmonga ketganini va undan haligacha darak yo'qligini aytibdi. Xon xavotir olib o'rmonga kishilar yuboribdi. Soqchilar, xizmatkorlar o'rmonga borib uni ko'p axtarishibdi, bir joyga borib



qarasalar, yigitning kiyimlari va qurol-aslahalari har yer, har yerda yotgan emish, o'zi bir daraxtning tagida o'lib yotgan emish. Yigitning halokatga uchragani ma'lum bo'libdi. Xon:

– Kimki o'g'lim to'g'risida sovuq xabar keltirsa, qornini yorib qo'rg'oshin quyaman, – degan ekan. Juda xafa bo'lishibdi. Xonga bildirish yo'llarini o'ylashibdi. Xonga aytsak bizni o'ldiradi deb, qo'rqanlaridan nima deyishlarini bilmabdilar.

Zolim xonning aytgan so'zini eslab, toqqa chiqib ketishibdi. Tog'da so'zga chechan, qo'shiqchi Ali degan cho'pon yashar ekan. Saroy xizmatkorlari bo'lgan voqeani cho'ponga aytib berishib:

– Endi sen bizga yo'l ko'rsat, xonga bu voqeani qanday aytamiz, – deyishibdi. Cho'pon:

– Xafa bo'lmanglar, hozir bir oz dam olib turinglar. Bu baloni men daf qilaman, – debdi.

Cho'pon bir daraxtdan kesib olib, qorni teshik dutor yasabdi. Xonning xizmatkorlari oldiga kelib:

– Qani yuringlar, xonning dargohiga boramiz, – debdi.

Ular xon saroyiga kelganlaridan keyin cho'pon dutorni qo'lga olib asta-sekin chala boshlabdi. Dutor nola qilibdi.

Yosh yigitning o'rmonga borgani, to'ng'iz bilan olishgani va oxirida qahramonona halok bo'lgani to'g'risida kuylabdi. Xon dutorning yurakni ezuvchi g'amli nolasidan o'g'lining halok bo'lganini sezib qolibdi. G'azablanib baqiribdi:



– Jallod, o'rmonga borib kelgan bu kyshilarning qornini yorib, qo'rg'oshin quy, – debdi. Cho'pon o'rnidan turib:

– Ey xon, sen esingni yeb qo'yibsan? Bu xabarni senga biz emas, mana bu dutor yetkazdi. Qo'rg'oshinni dutorning qorniga quyaver, – debdi.

Zolim xon nima qilishini bilmay, g'azabiga chidolmay dutorning qorniga qo'rg'oshin quydiribdi.

Shunday qilib, xizmatkorlar zolim xon zulmidan qutilib qolishgan ekan.

QAYSAR ODAM QISMATI

Qadim zamonda bir odam bor ekan. U yolg'iz o'zi ish axtarib yo'lga tushibdi. Yo'lda bir odam uchrab qolibdi, unga:

– Yo'l bo'lsin, oshna, – debdi.

– Xudo bersa, mo'l bo'lsin, – deb javob beribdi u.

– Yaxshi bo'ldi, endi ikkimiz do'st bo'lamiz, – debdi.

Yo'lda yana bir kishi uchrab qolibdi. U ham ularga sherik bo'libdi. Yo'lda dam olish uchun katta bir daraxt tagida to'xtabdilar. Dam olayotib ko'zlari uyquga ketibdi. Birdan ulardan ikkitasi seskanib uyg'onib ketibdi. Qarasalar, yonlaridagi sheriklarini ilon yutayotgan ekan. Ular tezda u kishini uyg'otishibdi va oyog'idan boshlab ilon yutayotganini unga aytishibdi. Ikki do'st undan so'rashibdi:

– O'rtoq, ilonni o'ldiraylikmi?

– Yo'q o'ldirmanglar. Yutaversin-chi, – debdi u kishi.



Ilon u kishini yutib, belbog'igacha kelibdi. Sheriklari yana:

– Axir o'ldirmasak, seni butunlay yutib yuboradi-ku! – deyishibdi.

U yana:

– Yo'q, – debdi.

Ilon yutib uning ko'kragigicha kelibdi. Oxirgi marta yana bir so'rasha ham, u kishi indamabdi. Shunday qilib, ilon bu kishini butunlay yutib yuboribdi.

Keyin ilon asta-sekin terakka chiqib ketibdi. Ikki sherigi hayron bo'lib qarab turishibdi. Ilon daraxtga ikki marta o'ralibdi, shunda u yutgan odamning suyaklari qirsillab sinibdi.

Do'stlari, "agar bizning gapimizga kirganda edi, sog' qolar edi", deb rosa achinishibdi. Ha, ortiqcha qaysarlik yaxshilikka olib kelmas ekan.

IKKI SAVDOGAR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bitta boy savdogar bilan bitta kambag'al savdogar bo'lgan ekan. Ular juda qalin do'st ekanlar. Kambag'al savdogar uzoq safarga savdo vaji bilan ketmoqchi bo'libdi.

Qimmatbaho temir buyumlarini boy savdogar do'stinikida qoldiribdi.

Bir qancha vaqt o'tgach, kambag'al savdogar safardan qaytib kelibdi va do'stinikiga borib qoldirgan qimmatbaho temir buyumlarini qaytarib berishini so'rabdi. Boy savdogar esa uning barcha buyumlarini sotib yuborgan ekan. Shuning uchun qanday qilib bo'lsa ham, biror bahona topib, undan qutulish yo'lini axtaribdi.



– Sizning qimmatbaho buyumlaringiz ustida bir baxtsiz hodisa ro‘y berdi, – deb yig‘lamsirab gap boshlabdi.

– Ha, nima bo‘ldi? – deb so‘rabdi kambag‘al savdogar.

– Men ularni bug‘doy omboriga berkitib qo‘ygan edim. U yerdagi sichqonlar hammasini yeb qo‘yibdi. Men buyumlaringizni sichqonlar qanday qilib yeganlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Agar gapinga ishonmasangiz, yuring, men sizga ularni qiymalab tashlagan parchalarini ko‘rsataman, – debdi. Kambag‘al savdogar esa:

– Ko‘rishning nima keragi bor? Men shunday ham sizga ishonaman. Men sichqonlar har doim temirni qirqishlarini bilardim, – deb jo‘nab ketibdi.

U yo‘lda ketayotib savdogarning o‘ynab yurgan bolasini ko‘rib qolibdi-yu, shartta bolani ko‘tarib, uyiga olib ketibdi.

Ertasi kuni boy savdogar haligi kambag‘al savdogarni yo‘lda uchratib qolibdi. Boy savdogar boshiga tushgan falokatni aytib yig‘labdi va undan:

– Mening bolamni ko‘rmadingizmi? – deb so‘rabdi.

– Ha, ko‘rdim, ko‘rganda qandoq! Kecha men sizning yoningizdan chiqib ketayotganimda, bir qirg‘iy kelib, bolangizni ko‘tarib, uchib ketdi, – debdi kambag‘al savdogar. Uning bu gaplaridan boy savdogar achchig‘lanib:

– Siz meni mayna qilmoqchimisiz? Qirg‘iyning bolani ko‘tarib uchmasligiga kimning aqli yetmas ekan? – debdi.



— Yo‘q, men sizni mayna qilmoqchi emasman. Sichqonlarning temir buyumlarni yeyishi maynavozchilik bo‘lmagan, qirg‘iyning bolani ko‘tarib olib qochishi maynavozchilik bo‘larmidi? — deb javob beribdi kambag‘al savdogar. Bu gaplardan keyin boy savdogar:

— Temir buyumlarni sichqon yeb qo‘ygan emas, men sotib yuborgan edim. Senga ularni ikki hissa qilib qaytarib beraman, — debdi.

— Ha, unday bo‘lsa, sizning bolangizni ham qirg‘iy olib qochgani yo‘q. U mening uyimda. Men ham sizga qaytarib beraman, o‘g‘lingizni, — debdi kambag‘al savdogar.

Boy savdogar bir qancha buyumlarini unga beribdi, u ham uning o‘g‘lini qaytarib beribdi. Ular orani ochiq qilibdilar. Bu voqeadan keyin ular bir-birlari bilan boshqa do‘stlashmabdilar.

BOYNING O‘G‘LI

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir boy o‘tgan ekan. U boyning kayf-safoga berilgan, erka bir o‘g‘li bor ekan. Otasi qarib, o‘ladigan vaqtida o‘g‘lini yoniga chaqiribdi-da:

— Yolg‘iz bola — "yalmog‘iz bola" degan ekanlar. Sen hech o‘nglanmading. Tirikligimda seni ko‘p ardoqladim, lekin o‘zimga ham, senga ham ziyon qilgan ekanman. Endi bo‘lgan ish bo‘ldi, o‘lar oldida senga aytadigan so‘zim shu, qachon vaqting yetib, o‘lar bo‘lsang, mana shunga osilib o‘lasan, — debdi-da, uyning yuqori burchagidagi rapchani ko‘rsatibdi. Yigit bunga hech parvo qilmay, kayf-safoda yuraveribdi.

Kunlardan bir kuni otasining qazosi yetib, o‘libdi. Haligi yigit otasi o‘lgandan keyin ham



aqli hushini yig'ib olmay, besh-oltita o'rtoqlari bilan har kuni ziyofat, soz-suhbat qurar ekan. U ziyofatda o'tirib, nima noma'qulchiliklar qilsa ham, o'rtoqlari indashmas ekan, qanday bema'ni gaplar aytsa, uni qo'llab-quvvatlashar ekan.

Bir kuni ziyofatda o'tirib:

– Men kechasi yotganimda osmonga qarasam, osmonning tepasidan ikkita it pastga qarab hurib turgan ekan, – debdi u jo'ralariga. O'rtoqlari ham:

– Ha, shunday, osmonda it hurib turganini biz ham ko'rdik, – deyishibdi.

Shunday qilib, yigitning og'aynilari uning bor-yo'g'ini yeb yuraveribdilar. Boshqa bir kuni boy yigit yana:

– Bugun kechasi otamning xazinasiga kirib qarasam, sichqonlar cho'yan sandiqlarni kemirib, oltinlarni yeb yotishgan ekan, shunda qo'limga qilich olib, hamma sichqonlarning boshini kesdim, lekin sichqonlarning podshosi qochib qutuldi, ana, ana qaranglar, yana qaytib kelibdi, – deb shipni ko'rsatibdi. Og'aynilari ham shipga qarab:

– Ha, ko'rib turibmiz, uni ham tutib o'ldirish kerak, – deyishibdi.

Kunlar, oylar o'tib, bu yigitning otasidan qolgan mol-dunyo sovurilib bitibdi. Og'aynilari ham yigitdan yuz o'girib, uni ko'rganda qochadigan bo'lib qolishibdi.

Borib-borib yigitning hech narsasi qolmabdi. Yigitning boshiga og'ir kunlar tushibdi. Odamlarning xizmatini qilibdi, tilanchilik ham qilishga majbur bo'libdi. Bir kuni uyidagi qaqir-ququrlarini sotib, puliga bitta molning kallasini



olibdi-da, og'ayni-jo'ralarini mehmonga chaqiribdi. Bir o'rtog'ining uyiga kirib ketayotib, kallani eshik oldida qoldiribdi. O'rtog'ini mehmonga aytib chiqib, qarasa, kallani ko'chadagi itlar tortqilab yurgan emish. Yigit ovqat qilmay o'tiraveribdi. Kechqurun o'rtoqlari kelib qarashsa, hech narsadan darak yo'q. Jo'ralari:

— Ha, sho'r peshona, ziyofating qani? — deb so'rabdilar. Shunda yigit:

— Men Avazmat shovzinning uyiga kirganimda, kallani eshikka qo'yib kirgan edim, chiqib qaragam, itlar tortqilab ketibdi, — deb javob beribdi. Keyin jo'ralari yigitni tutib olib uribdilar. "Kallani ham it yeydimi?" deb uni toza xo'rlashibdi. Shunda yigit:

— Osmonda it hurishiga ishondinglar, cho'yanni, oltinni sichqon yeyishiga ishondinglar, endi "kallani it yedi" desam nega ishonmaysizlar? — debdi. Jo'ralari yigitning gapiga quloq solmay, uni urib so'llaytirib ketibdilar.

Yigit alamiga chiday olmay: "Bunday qilib yurganimdan ko'ra o'lganim yaxshiroq", debdi-da, otasi yasab bergan rapchaga o'zini osibdi, shunda u o'pirilib ketibdi, yigit yerga yumalabdi. Ustidan oltin-kumush sochilib ketibdi. Kallasini ishlatib qarasa, otasi bu rapchani ichiga oltin-kumush to'ldirib qo'yan ekan. Shundan keyin uning turmushi yaxshilanib ketibdi. Jo'ralari yana shiraga qo'ngan pashshaday to'planib kelaverishibdi. Yigit ularning barini haydab solibdi. Keyin hunar o'rganibdi, bola-chaqa qilib, murod-maqsadiga yetibdi.



Shuning uchun ham donolar:
*Qo'lda moling borida, begonalardin yor ko'p,
Davlatning ketsa agar dildor yo'q, ozor ko'p,*
deyishgan ekan.

PODSHO VA DEHQON QIZI

Bir podsho bor ekan, uning bir vaziri bo'lar ekan, uni podsho juda yaxshi ko'rar ekan. Podsho vazirini uylantirmoqchi bo'libdi, ammo qizlarning birontasi unga yoqmabdi.

Kunlardan bir kuni podsho vaziri bilan sayohatga chiqibdi. Ular bir qishloqqa yaqinlashib qolganida uchta bo'yi yetgan qiz o'tin ko'tarib kelayotgan ekan. Shu payt birdaniga jala quyib qolibdi.

Qizlardan ikkitasi o'tinini ko'tarib qishloqqa ketaveribdi, bittasi esa o'tinini yerga qo'yib, o'tin ustiga choponini yopibdi-da, o'zi o'tinning panasida o'tiribdi. Yomg'ir bosilgach, haligi qiz o'tinni ko'tarib qishloqqa qarab jo'nabdi. Podsho uni to'xtatib:

– Nega sen bu yerda qolding-u, ikki sheriging to'xtamay qishloqqa keta berdi? – deb so'radi.

– Ikki sherigim to'xtamay ketdi-yu, ustidagi kiyimlari ham, o'tini ham ho'l bo'ldi. Mening esa to'nim ho'l bo'ldi-yu, o'tinim ho'l bo'lmadi. Men uyga borib o'tinni yoqib, to'nimni quritaman-da, yana ishga ketaveraman. O'rtoqlarimning esa to'ni ham, o'tini ham ho'l bo'ldi, ular endi o'tin tergani chiqisha olmaydi, – deb javob beribdi qiz.

Qizning bu gapi podshoga ma'qul tushibdi va unga qarab:



– Uylaringizga mehmon bo'lib borsak, bizni nima bilan mehmon qilasizlar? – debdi.

– Sizlar boraveringlar, topsak bitta so'yamiz, topmasak ikkita so'yib mehmon qilamiz, – debdi qiz.

Qizning bu gapiga podsho o'zicha ajablanib: "Bu qanaqasi bo'ldi, topsa bitta, topmasa ikkita so'yib mehmon qilarmish" debdi va vazirni boshlab haligi qiznikiga mehmonga boribdi. Uy egalari podshoga so'yish uchun qo'ni-qo'shnilaridan birorta qo'y topisha olmabdi, noiloj erta-indin tug'ay deb turgan bir qo'ylari bor ekan, o'shani so'yib podsho bilan vazirni mehmon qilishibdi. Shuning uchun dono qiz podshoga, "Topsak bitta so'yamiz, topmasak ikkita so'yamiz", degan ekan. Podsho qizning aqliga va esliligiga qoyil qolib tahsinlar o'qibdi va ota-onasini chaqirib, ulardan qizini vazirga berishga rozilik so'rabdi. Ota-onasi rozi bo'lib, qizini vazirga erga berishibdi.

Podsho vazirini uylantirishga uylantirib qo'yibdi-yu, keyin uning xotininga o'zi oshiq bo'lib qolibdi. Endi u vazirni yo'qotish payiga tushibdi, o'ylab-o'ylab vazirga qirqta qo'chqor berib:

– Shu qo'chqorlarni qirq kun ichida bittadan tug'dirib saksonta qilib mening oldimga olib kelasan, agar shu ishni bajarmasang, o'ldiraman, – debdi.

Vazir nima qilishini bilmay, qirqta qo'chqorni haydab uyiga boribdi. Uning ahvolini ko'rgan xotini:



– Nega muncha xafasiz, nima ish bo‘ldi? – deb so‘rabdi. Vazir bo‘lgan gapni xotiniga aytib beribdi.

– Xafa bo‘lmang, buning chorasi oson, – deb xotini vazirni yupatibdi.

Vazir xotining aytganini qilib, har kuni bittadan qo‘chqorni so‘yibdi. Er-xotin maishat qilib yeb yotaverishibdi. Qirq kunda qo‘ylarni yeb tugatishibdi. Podshoning bergan muhlati tugabdi, vazirning ko‘nglini g‘am bosibdi, "Podshoga endi nima javob qilaman", deb o‘ylanib turgan ekan, xotini:

– G‘am yemang, javobini o‘zim beraman, – debdi. Qirq birinchi kuni vazirning uyiga podshoning o‘zi kelibdi. Vazirning xotini eriga:

– Siz ichkari kirib turing, podshoga javobini o‘zim beraman, – debdi. Podsho vazirini chaqirgan ekan:

– Ha, – debdi xotini.

– Vazir qani? – debdi podsho.

– Podsho bo‘lmay qoling. Vaziringizni kuni bilan to‘lg‘oq tutib, endi tug‘dilar. Ichkariga kirib bolalarini yo‘rgaklab oling, – debdi xotini.

– Sen qanday ahmoq xotinsan, erkak kishi ham tug‘adimi? – debdi podsho.

– Ey podshohim, sizning erkak qo‘ylaringiz tuqqandan keyin, vaziringiz ham tug‘adi-da, – deb javob beribdi vazirning xotini.

Xotinning bunday javobiga podsho nima deyishini bilmay:

– Ey, ayb menda ekan. Vazir ertaga saroyga borsin, – deb qaytib ketaveribdi.

Podshoning vazirning xotiniga bo‘lgan muhabbati kundan-kunga kuchayib boribdi.



Podsho vazirni uzoq safarga jo'natibdi-da, kechqurun o'zi uning uyiga boribdi. Vazirning xotini ham uni juda yaxshi kutib olib, mehmon qilibdi.

– Men senga oshiq bo'lib qoldim, seni eringdan ajratib olaman, bugun sen bilan shu yerda qolaman, – debdi podsho.

– Xo'p mayli, podshohim, siz aytganicha bo'lsin. Bo'lmasa, siz choy ichib turing, men yasanib chiqay, – deb xotin boshqa bir uyga kirib ketibdi-da, podshoning yoniga yasanib-tusanib chiqibdi.

– Mana men tayyorman, lekin sizga avval aytib qo'yadigan qiyomatli qarzim bor. Uyda erim bo'lmagani uchun o'zim yeyman-ku, deb onamning sutidan taom pishirgan edim, siz ulardan tatib ko'ribsiz. Endi siz menga og'a, men esa sizga singil bo'lib qolibman. Agar shariat lozim ko'rsa, men bilan ishrat qilsangiz mayli, – debdi.

Podsho nima qilishini bilmay, chiqib ketibdi. Vazir safardan qaytgach, qo'shnilari unga o'zi yo'q vaqtida uyiga podshoning kelganini aytib qo'yishibdi. Buni eshitgan vazir safardan qaytgan bo'lsa ham uyiga, xotining yoniga bormabdi. Buni eshitib qizning otasi to'g'ri podshoning oldiga boribdi. Podsho vazir bilan birga o'tirgan ekan.

– Bog'ni bog'bonga topshirib edim-u, lekin bog'bon boqqa qaramay qo'yibdi, – debdi qizning otasi podshoga.

– Bog'bon uni parvarish qilar edi-yu, boqqa o'g'ri oralabdi, – debdi vazir podshoga shama qilib.



Bu so'zni eshitgan podsho:

– To'g'ri, boqqa o'g'ri oralab qo'ydi-yu, ammo hech narsaga tegmay, bargini ham uzmay chiqib ketdi, – debdi va bo'lgan ishlarni chol bilan vazirga aytib berib, ulardan uzr so'rabdi. Shu kuniyoq vazir uyiga borib xotinidan uzr so'rabdi.

Vazir bilan uning sevikli xotini davr-u davron surib, murodu maqsadlariga yetishibdi.

ZEHNLI QIZ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir chol bilan kampirning bitta-yu bitta qizi bor ekan. Qizi bo'y yetib, sovchilar qatorlashib kela boshlashibdi. Qiz hech qaysilariga unamas ekan.

Bir kuni chol bilan kampir qizlarini daryoning narigi tomonidagi qishloqda yashaydigan bir oilaga beradigan bo'lishibdi. Buni eshitgan qiz rosa xafa bo'lib yig'labdi. Chunki qiz u tomonga kelin bo'lib tushishni hech xohlamas ekan. Lekin chol bilan kampir o'z aytganlaridan qaytmay, qizlarining ra'yiga qarashmabdi. Shunda qiz:

– Men daryoning u betiga kelin bo'lib tushsam, bitta-ikkita bolalik bo'lganimda, o'z uyimga kelayotganimda birini ko'tarib, ikkinchisini yetaklab olgan bo'laman. Shunda yetaklab kelayotgan bolam daryoga tushib ketsa, topa olmay rosa yig'lab o'tirsam, – deb, onasining yoniga borib yig'lay boshlabdi. Kampir:

– Nega muncha yig'layapsan, qizim? – deb so'rabdi. Qiz haligi gaplarini qaytarib, yig'layveribdi. Bu gapni eshitib, kampir ham yig'lashga tushib ketibdi. Bir payt chol kelib



qarasa, kampiri bilan qizi yig'lab yotishibdi. Chol yig'ining sababini so'rasa, qizi yana o'sha gaplarni qaytaribdi. Chol ham yig'lashga tushibdi. Shunday qilib uchalalari rosa yig'lashibdi. Oxiri chol bilan kampir qizlarini narigi tomondan kelgan sovchilarga bermaslikka rozi bo'lishibdi.

PODSHO BILAN VAZIR

Kunlardan bir kuni podsho bilan vazir yo'lda ketishayotgan ekan. Yo'l chetida bir keksa chol juda qarib, bukchayib qolganiga qaramay, qo'sh haydab yurgan ekan.

Podsho bilan vazir unga yaqinlashib qolganlarida otlarini to'xtatibdilar. Podsho cholga:

– Hormang, bobo, yoshligingizda g'amingizni yemagan ekansiz-da, – debdi.

– Bor bo'ling. Yoshligimizda g'amimizni yegan edik, ammo taratdim, – deb javob beribdi. Podsho yana so'rabdi:

– Ikkingiz uch bo'lganiga qancha bo'ldi?

– Ikkim uch bo'lganiga olti-etti yil bo'ldi, – debdi chol.

– Unday bo'lsa, men sizga bitta g'oz yuboraman. O'zingiz patini tozalab olarsiz, – debdi podsho.

– Xo'p, mayli. Kutaman, – debdi chol.

Shundan keyin podsho bilan vazir o'z yo'llarida davom etishibdi. Yo'lda vazir:

– Men sizni chol bilan qilgan suhbatingizni o'ylayapman, – debdi. Podsho:



– Sen mening vazirim bo‘la turib, bir qo‘shchi cholchalik ham bo‘l olmabsan-da, – debdi.

Vazir ko‘p o‘ylab, bu jumboqni bilolmay, boshi qotibdi. "Birorta keksaroq odamni topsam, balki aytib berar", deb o‘ylabdi. Vazir ko‘p axtarib, oxiri bir xaroba uyda yashayotgan qari cholni topibdi. U 90 yoshga kirgan ekan. Vazir cholning ahvolini so‘rab, kelishdan maqsadi nima ekanligini aytibdi. Podsho bilan chol o‘rtasidagi suhbatni aytib beribdi. Shunda chol:

– "Men g‘amimni yegan edim, lekin hammasini taratdim", deganining ma‘nosi uch-to‘rt qizlarim bor edi, hammasini kuyovga chiqardim degani.

"Ikkim uch bo‘lganiga olti-etti yil bo‘ldi", deb javob berganida, u ikki oyog‘i ishdan chiqib, olti-yetti yildan beri hassa tutayotganini aytgan. "Bir g‘oz yuboraman, patini o‘zingiz tozalab olarsiz", deganining ma‘nosini aytmayman, kimdan so‘rasang so‘ray ber, – debdi.

Vazir noiloj yana o‘sha cholni axtarib topibdi. Undan podshoning g‘oz haqida aytgan gaplarining ma‘nosini so‘rabdi. Shunda haligi chol:

– Bu gapning ma‘nosini bilmoqchi bo‘lsang, men bilan birga borib, podsho yonida eshitasan, – debdi. Shunda vazir podshodan uyalishini, uni izza qilishidan qo‘rqishini aytibdi.

– Agar sen uyalsang, qiyofangni o‘zgartirgin.

Men senga dehqonlar usti boshini beraman, uni kiyib men kabi bir dehqonga aylanib qolasan. Shunda seni podsho tanimaydi, – debdi chol.



Vazir darrov dehqon libosini kiyib, chol bilan birga podsho huzuriga kelibdi. Chol vazirni ko'rsatib podshoga shunday debdi:

– Qanday behimmat podshosiz. Menga yaxshi g'oz va'da qilib, mana shu oriq g'ozni yuboribsiz.

Shunda podsho kula-kula cholga bir hamyon oltin beribdi. Podshoning odamlari esa borib, uning yerlarini chopib beribdilar.

KUYGAN CHOL

O'tgan zamonda bir chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning bitta eshaklari bor ekan. Bu eshakni sug'orish, ovqatlantirish sansalor bo'lib, doimo ular bir-birlari bilan urishar ekanlar. Bir kuni chol zerikib kampirga:

– Hadeb mojaro qilib urishgandan ko'ra, senga aytadigan bir gapim bor. Uch kunga muhlat qo'yamiz. Kimki uch kunga qadar gapirsa, eshagimizni sug'orish, ovqatlantirish o'shaning bo'yniga tushadi, – debdi.

Bu gap kampirga ma'qul tushibdi. Ular ikki kun bir-birlari bilan gaplashmay qo'yishibdi. Uchinchi kuni kampir zerikib qo'shnisinikiga chiqib ketsa, uylariga o'g'ri kirib hamma yoqni ship-shiydam qilib ketibdi, shunda ham chol indamabdi. Kampir kelib ko'rsa ahvol shunday, u qo'shnisinikiga chiqib, unga butun bo'lgan voqealarni aytibdi. Qo'shnisining rahmi kelib, qizidan bir kosa issiq sho'rva chiqarib berishini aytibdi.

Qiz bir kosa sho'rvani ko'tarib chiqsa, voqea haligidek emish. Qiz cholga:

– Ha, tog'a, nimaga bunday qilib o'tiribsiz?

– desa, chol boshini ko'rsatib, "To namatgacha



olib ketishdi", deb ishora qilibdi, qiz sho'rvani boshimga to'k deyapti, deb o'ylabdi-da, issiq sho'rvani boshiga quyib, boshini kuydirib qo'yibdi. Buni eshitib kampir chiqibdi:

— Ha, nimaga bunaqa qilib o'tiribsiz? — deganda, chol:

— Ana, yutqizding, kampir, endi eshak sug'orish, ovqatlantirish o'zingning bo'yningga tushdi, — debdi. Shunday qilib, ular bor-yo'g'idan ajralib qolgan ekanlar.

QIRQ YOLG'ON

Bor ekan, yo'q ekan, qadim zamonda bir boy bor ekan. U juda boy ekan, bir chuqurda achib qolgan loy ekan, sira suv o'tmagan soy ekan, birov minmagan toy ekan, yomg'ir yog'ganda bulutning orasida qolgan oy ekan, qozonga solsa, dog' bo'lmagan moy ekan, kigiz-ko'rpasi yo'q, odam yotmagan joy ekan, birov ichkisi kelmagan choy ekan. Bu boy shunaqa dong'i ketgan mashhuri olam ekan.

Boy yurib-yurib bir kuni nima ham bo'lib o'lgan ekan. Uchta o'g'li uch oy-u o'n kungacha ovora bo'lib, haqlarini bo'lgan ekan. Bu o'g'illarning bittasiga yetti-sakkiz pog'onali shoti, bittasiga eski childirma, bittasiga yotsa turolmaydigan, tursa yurolmaydigan uchta ko'r eshak tekkan ekan. Uchovining uch oy, o'n kunda bo'lib olgan bor narsasi shu ekan. Bir kun shoti tekkan ukasi akasi bilan urishib qolgan ekan. "Sizlarning oldilaringizda turganim shu bo'lsin", deb otasidan qolgan shotisini olib, yelkasiga solib ketgan ekan. Namangan



daryosining yoniga yetgan ekan. Daryoga borgandan keyin "Meni o'tkazib qo'ying" deb, kemachiga aytgan ekan. Kemachi:

– Shotiga bir miri, o'zingga bir miri berasan, bo'lmasa o'tkazmayman, – degan ekan. Shoti egasi:

– O'tkazib qo'ysang, bir miri beraman, boshqa bera turgan pulim yo'q, – degan ekan. Kemachi ko'nmaganidan keyin, shotini tashlab, ustiga irg'ib minib olib, kemachidan burun daryoning narigi yog'iga o'tib olibdi. U daryodan o'tib, shotini olibdi, yelkaga solibdi, jo'nab qolibdi. Nariroqqa borsa, Namanganning o'rik-olmasi pishib, to'kilib, tagiga tushib turgan ekan. To'kilganini olib, savatga solib, odamlar tepasiga chiqib qoqolmay turganida u shotisi bilan yetib kelgan ekan. Odamlar uni ko'rib:

– O'rtoq, shotini bizga ijaraga qo'y, mana bu mevalarning tepasiga chiqolmay yotibmiz, chiqsak, tusholmay yotibmiz. Olmaga olti pul, o'rikka to'rt puldan ijarani ola ber, yeganing yana o'zingniki, – debdilar.

U xursand bo'lib, shu aytgan bahoga shotini ijaraga qo'yib, chaqalarga cho'ntagini to'lg'azib, shotini olib, yelkaga solib, jo'nab, uyiga yetib qopti. Uyiga kelsa akalari:

– Xo' sh, qayda yurding, nima qilib kelding? – debdilar. U:

– Sizlar meni hech ish bilmaysan, deb xo'rladilaring. Mana men, musofirchilikda yurib, shuncha pul topib keldim, – deb cho'ntagidan tangalarni olib, o'rtaga tashlabdi.

Buni ko'rgan akalari "Buni qaydan olding?", deb so'rabdilar. Ukasi musofirchilikdan



topganini aytibdi. Uni ko'rib childirma tekkan merosxo'r akasi:

— Otamdan qolgan childirmani olib ketay, o'shayoqda qolib ketay, — deb childirmani olib, safarga chiqib ketgan ekan, biyobon cho'lga yetgan ekan. Qayoqqa borishini bilmasdan, bir joyga borsa, suvi yo'q eski tegirmon ko'rinib qolgan ekan.

Tegirmonning ichiga kirib yotay desa, uning ichi chang-tuproq ekan. U yoqda yotsam chang bo'laman, bu yoqda yotsam gard bo'laman, undan ko'ra, do'lning ichiga kirib yotayin deb, do'lning ichiga kirib yotib qolgan ekan. Bu joy ayiq-maymunlarning kirib yotadigan joyi ekan.

Hademay, tegirmon ichiga ayiq-maymunlar kirib kelaveribdi, ichi zich to'libdi. Hammadan keyin yo'lbars kirib kelib, do'lning ichiga kirib yotay deb turganda, oyog'i do'lda yotgan childirmaga tegibdi. Childirma "darang" etib qattiq ovoz chiqaribdi.

Yo'lbars qo'rqqanidan o'zini yerga otibdi. Sakkiz maymun, to'qqiz ayiq: "Kattakonimiz muncha qo'rqdi, buning ichida bir balo bor shekilli", deb o'zlarini ochilgan eshikka urgan ekan, eshik juft bo'lib yopilib qolibdi. Shu shovqinda yigit uyg'onib qolibdi. U eshikni ochib chiqib ketay desam, ayiq-maymunlar o'zimni yeb qo'yadi. Ayiq-maymunlar o'z bilgicha eshikni ocholmaydilar, tashqariga qocha olmaydilar. Indamay tursam, bular meni yeb qo'yadi, deb childirmani olib chalaveribdi. Ayiq-maymunlar qo'rqqanidan o'zlarini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urib sarosimada qolibdi. U bo'lsa, hadeb



childirmani chalaveribdi. Shu bilan tong otib qolibdi.

Tong vaqtida, bir savdogar qirq tuya moli va xizmatkorlari bilan o'tayotib, childirmaning tovushini eshitib qolibdi. Savdogar tuyalarini to'xtatib, xizmatchilariga: "Sizlar tuyani boqib o'tlatib turinglar, men tegirmonga kirib chiqay, u yerda bazm bo'layotganga o'xshaydi", deb kelib tegirmonning eshigini ochib yuborgan ekan, tegirmonga qamalib, chiqolmay turgan jonivorlarning hammasi o'zini eshikka urib, kattalari savdogarning boshidan sakrab, kichiklari oyoqlari orasidan o'tib qochib ketibdi. Buni ko'rgan savdogar qo'rqqanidan rangida qon qolmay, anqayib qolibdi. Childirmaning egasi tashqariga chiqsa, eshik yonida birov turgan ekan. Yigit childirmani yerga urib savdogarning yoqasidan bo'g'ib qolibdi. Savdogar:

— Nega mening yoqamdan bo'g'asan? — deb so'rabdi. U:

— Eshikni ochib, ayiq-maymunlarni sen qochirib yubording, bu yoqqa yur, — debdi. Savdogar:

— Meni qayoqqa olib borasan? — debdi. Childirmachi:

— Meni xon chaqirtirib olib, "Sen childirma chalishga usta ekansan, shu ayiq-maymunlarni o'rgatib berasan", deb menga shu ayiq-maymunlarni yig'ib bergan edi, men ularni shu yerga qamab, mashq berib, o'yin o'rgatib turgan edim. Xon "Qirq kunda qirq xil o'yin o'rgatasan", degan edi. Men bularga yigirma besh kun ichida yigirma besh xil o'yinni mashq berib, o'rgatib qo'yib edim. Endi o'n besh kuni qolganda,



eshikni ochib, hammasini qochirib yubording. Bularni sen qaydan topib berasan. Agar topib berolsang topib bergin, topib berolmaydigan bo'lsang, men seni xonning oldiga boshlab boraman, — deb do'q qilibdi. Savdogar uning bu gapiga:

— O'rtoq, men bilmay qolibman, anavi turgan qirq tuya mol meniki, shundan yigirma tuyasini moli bilan ol. Meni bu g'alvadan qutqar, — degan ekan, childirmachi:

— Bekor aytibsan, bu hazil ish emas, yur bu yoqqa, — debdi. Savdogar yalinib:

— O'ttiz tuyasini oling, bizni qo'yvoring, — degan ekan. U yana:

— Men bularni o'rgatganimga xon menga ko'p in'om bermoqchi edi. Buning ustiga yana javobgarligi bor, xonning oldiga yur! — degan ekan, savdogar:

— Bo'lmasa, shu qirq tuya molimning barchasini olaqol, indamay qo'yaqol, — debdi. Childirmachi:

— Bu bilan bo'lmaydi. Gapni ko'paytirma, bu yoqqa yur! — degan ekan. Savdogar shoshganidan:

— Bo'lmasa, endi, shu tagimdagi otimni ham olaqol, meni shu ishdan qutqaraqol, — debdi. Shunda childirmachi:

— Bu mollarni xonga o'zim topshiraman, siz bu yoq bilan keta qoling, — debdi.

Shuning bilan savdogar qirq tuyasi bilan molidan ajrab, bir yoqqa ketib qolibdi, butun mol va tuyalarini olib, childirmachi ikkinchi yoqqa ketib qolgan ekan, uyiga yetib qolgan ekan.



Uning aka-ukasi ko'rib, "Buncha molni qaydan olding?" deb so'ragan ekan. U:

— Musofirchilik yaxshi bo'lar ekan. Shuncha molni topib keldim, — degan ekan. Buni ko'rib uchta ko'r eshak tekkan birodari:

— Musofirchilik bunday yaxshi bo'lar ekan, men ham mol topib kelay, — debdi. U eshakni minib, laq-u luq ilib olib, katta yo'lni bilib olib, ikkita eshakni oldiga solib haydab ketgan ekan. Shunday qilib, yo'l yurib ketgan ekan, uzoq joyga yetgan ekan. Bir vaqt eshaklari och qolib, yotsa turolmaydigan, yo'lga yurolmaydigan bo'lib qolibdi. Nariroqqa borsa, bir sichqon ko'rinibdi. U sichqonga qarab:

— Sichqonboy, — debdi. Sichqonboy:

— Ha, nima deysiz, hoy, — debdi.

— Mana bu eshagim yotib turolmaydi, yo'lga yurolmaydi, shuni sen olgin. Bir kuni bo'lmasa, bir kuni foydang tegib qolar, — debdi. Sichqon:

— Foydam tegsa tegib qolar, ha, qoldirsang qoldirib qo'ya qol, — debdi. Shu so'z bilan u bir eshagini sichqonga berib ketib qolsa, nariroqqa yetib qolsa, bir qo'ng'iz otning tezagini yumalatib kelayotgan ekan. U qo'ng'izga qarab:

— Qo'ng'izboy debdi, — mana shu eshagim yurolmay qoldi, u menga katta dardisar bo'ldi. Shuni olsang bir kun bo'lmasa bir kuni foydang tegib qolar, — debdi. Qo'ng'iz:

— Ha, foydam tegsa tegib qolar, tashlab ketaqol, — debdi.

Qolgan eshagini minib jo'nab qolibdi. Bir muncha joyga yetib qolibdi, eshagining oyog'i loyga botib qolibdi. O'zi yotib qolibdi. U hayron



bo'lib tursa, ro'parasidan uyqu paydo bo'libdi. U uyquga qarab:

– Uyqu, eshagim yo'lda yurolmay, menga katta dardisar bo'lib qoldi. Shuni o'zing olaqol, bir kuni foydang tegib qolar, – debdi. Uyqu:

– Odamning ko'ziga yaqin borolmay, uxlatolmay hayron bo'lib yurib edim. Mayli, tashlab ketaqol, – debdi.

Merosxo'r qolgan eshagini uyquga berib, ketib qolsa, bir shaharga yetib borsa, bir baqqolni ko'rib qolibdi. Baqqolning yoniga borib non tilagani uyalib, ro'parasiga o'tirib olibdi. Baqqol:

– Sen bu yerda nima qilib o'tiribsan? – deb undan gap so'rabdi. Bola:

– Otam o'lgan, onam o'lgan yetim, uyalmagan betim, o'g'li yo'qqa o'g'il, qizi yo'qqa qiz bo'laman, deb yuribman, – debdi. Baqqol:

– Bo'lmasa menga o'g'il bo'l, mening o'g'il-qizim yo'q edi, – debdi. Bola uning bu taklifiga ko'nibdi. Keyin baqqol uni uyiga boshlab boribdi, ko'rpachaga o'tqazibdi, non-pon yegizibdi, shuning bilan bola baqqolnikida yotib qolibdi.

Ertasiga bolaga ob-u ovqat yegizib, unday-bunday degizib, oltita molni olib, oldiga solib, "Mana shu molni haydab ketasan, bir chaqirimcha joyga yetasan, u yog'ida cho'l bor, bu yog'ida ko'l bor, ehtiyot bo'l, mollar cho'kib-netib ketmasin", deb tayinlab bolani yuborgan ekan.

U shaharning xoni katta bir bog'ning darvozasiga bir nog'ora ildirib qo'ygan ekan. Har kim uni chalsa, qirq yolg'onni aytishga majbur qilingan ekan. Yolg'onning uddasidan chiqqan kishi xonning qizini olar ekan. Uddasidan



chiqmagan o'ldirilar ekan. Bu to'g'rida podsho jarchi chaqirtirib qo'ygan ekan. Bu gapni baqqol bolaga tayinlamagan ekan. Bola mollarini haydab ketayotgan vaqtda, nog'orani ko'rib qolgan ekan. U "Akam nog'ora chalganidan bir kechadayoq boyib qolgan edi, men nimaga chalmayman", deb nog'orani chalib yuborgan ekan. Buni eshitgan bir sipohi kelib: "Qani, bu yoqqa yur", deb uni haydab xonning oldiga keltiribdi. Xon bolaga qarab:

– Qirq yolg'onni to'qiysan, to'xtatmasdan o'qiysan, agar biri kam qirq bo'lsa ham, o'ldirib yuboraman, – degan ekan.

Bola biroz o'ylab turib, shunday deb so'z boshlabdi:

– Bor ekan, yo'q ekan, bir katta to'qay bor ekan. Bu to'qayning ichida na cho'p, na giyohdan asar bor ekan. U to'qayning ichida uchta mergan topganini har kimga bergan, to'kilib qolsa tergan, qulochini kergan, birining oti Abdusamad akaning o'g'li Erali Ergan, birining oti Mirsayid akaning o'g'li Sherali Shergan va birining oti Nurmat akaning o'g'li Nurali Nurgan, gapni har yoqqa burgan ekan. Uchalasi hech nimasi yo'q to'qayga borishib, ov ovlashib, hech kimni topolmay, nechta ovni otolmay yurgan ekanlar. Qimorboz ekanlar, oshiq tashlashib dovlashib, suvi yo'q ariqdan baliq ovlashib, o't yoqmasdan baliqni pishirishib, uni yemasdan ilgari lunjini shishirishib, shuning bilan to'yishib, maslahatni bir joyga qo'yishib yurgan ekanlar. Biroz fursat o'tgandan keyin ular: "Uchovimiz bir joyda yurib, bir nima ko'rinib qolsa, uchovimiz baravar o'q otib,



qaysimizning o'qimiz tekkanini bilmasdan, bir-birimiz bilan janjallashib o'tirishimiz yaxshi emas, uchovimiz uch yoqqa yuraylik, nimani topsak o'rtaqa solishib, baravar bo'lishib, indamay qolishib ketaveraylik; hammamiz ekilmagan katta tolning tagida topishaylik", deb maslahat qilishib, uchovi uch tomonga ketgan ekan. Bittasi nariroqqa borsa, katta gumbazga katta qush qo'nib turgan ekan. U: "Bu qush chiroyli qush ekan, uni o'ldirmay tiriklay ushlab olay", deb kamonini tashlab, hunarini xushlab, asta-sekin borib, qushning oyog'ini mahkam ushlab olgan ekan. Qush baquvvat-polvon qush ekan, uni ko'tarib osmonga olib chiqib ketibdi. Juda yuqoriga yetibdi. Merganimiz qushning oyog'ini qo'yvorib o'zini tashlaboray desa, o'lishga aqli yetib qolibdi. U ko'zlarini yumib ketaveribdi. Ketganda, qancha yerga yetganda, oyog'i yerga tekkanday bo'libdi. Ko'zlarini ochib qarasa, qush bir xumga qo'nib turibdi, uning oyog'i yerga tegib turibdi. Mergan xumga qarasa, uning ichi liq to'la tanga, hammasi manga, debdi, qo'yniga, hamma yog'iga solibdi, o'zini o'zi ko'tarolmaydigan bo'lib qolibdi. U qushning oyog'ini tag'in ushlab olib, "Quv!" degan ekan, qush osmoni falakka ko'tarilib uchib ketib qolibdi, boyagi gumbazga asta-sekin yetib qolibdi. U qushdan ajraganidan keyin kamonini olibdi, yelkasiga solibdi. Shuning bilan mergan ketib qolibdi, ekmagan katta tolning soyasiga yetib qolibdi. U yerda dam olib o'tirgan ekan, haligi merganlar ikkita yo'q quyonni ushlab, bir-biri bilan mushtlashib, kelib qolibdi. Ular bunga qarab: "Qani, nima topib kelding?"



debdilar. U qo'ynidan, belidan tangalarni olib o'rtaga tashlabdi. Ular ikkovi buncha tangalarni sanab, hisobidan qanday chiqamiz, undan ko'ra hovuchlamasdan qismlab bo'lib olaqolaylik", deb, yigirma qismdan oltmish qismni bo'lishib olib, cho'ntakka solibdilar. Ikkala mergan tangalarni joylashtirganlaridan keyin, "Buni qaydan olding?" deb tanga keltirgan merganni qisti-bastiga olibdilar. Ularning bu savoliga tanga keltirgan: "To'qayning narigi chetiga borsam, bir gumbazning tepasida bir katta qush turgan ekan. Men qushni ushlab olay desam, qush meni ushlab olib, osmonga ko'tarib ketdi. Men indamay ketaverib edim, bir joyda oyog'im yerga tegib qoldi. Ko'zlarimni ochib qaragam, qush bir xumga qo'nib turibdi. Qaragam, uning ichi tola tanga ekan. Tangani qo'ynimga va cho'ntaklarimga solib, qushning oyoqlarini tag'in ushlab oldim. Shu qush meni haligi gumbazga keltirib qo'ydi, keyin bu yerga kelib sizlarni topdim. Endi indamay ketaveringlar", debdi. Ikkala mergan: "Xumda yana qoldimi?" debdilar.

— Anchasi qolgan, — debdi kenja mergan.
Bittasi:

— Bo'lmasa, ertaga men olib kelaman, — debdi.

Unisi turib:

— Men olib kelaman, — debdi. Tanga keltirgani:

— Janjal qilmanglar, ertaga uchovimiz ham boraylig-u, ko'targancha olaylig-u, bir-birimizga indamay qolaylik, — debdi. Ovchidan biri:

— U qush uchovimizni ham ko'tara oladimi? — debdi. Borib kelgan:



– Ha, ko‘taradi, u polvon qush, – debdi.

Shu gap bilan uchovi ketgan ekan, bular qarasalar, qush o‘sha gumbazda turgan ekan. Ilgari borib kelgan:

– Men borib qushning oyog‘ini ushlagan vaqtimda, biring mening orqamdan borib oyog‘imdan ushla, undan keyin biring keyingingning oyog‘ini ushla! – debdi.

Shunday qilib, bular qushning va bir-birining oyoqlariga tirmashgan ekan, qush bularni bay-baylatib, hay-haylatib, osmonga ko‘tarib ketgan ekan. Bular juda baland ko‘tarilganda, eng pastdagi mergan yerga qarasa, yer ko‘rinmabdi. Eng pastdagi ovchi qushning oyog‘ini ushlagan yuqoridagi ovchiga qarab:

– Sening gaping bilan biz bunchalik ovora bo‘lib ketayotibmiz. Xumning kattaligi qanday bor, – deb so‘ragan ekan, qushning oyog‘ini ushlagan ovchi, "xumning kattaligini ko‘rsataman, deb qulochini kerganda qushning oyog‘ini qo‘yib yuboribdi. Bular aylanib-aylanib tushib, biri shaftolining shoxiga, biri o‘rikning shoxiga, biri olmaning shoxiga ilinib qolgan ekan.

– Shu gapning birorta rostini topib bering, men obketay, etakka solib ketay, – deb xonga ta‘zim qilgan ekan. Xon:

– Sen qirq yolg‘on so‘rasam, ming yolg‘onga o‘xshatib gapirding, – deb kuyov qilmoqchi bo‘lgan ekan. O‘n kecha-kunduzli to‘y-tomosha bo‘lib turgan vaqtda, bir vazirning o‘g‘li xonning qizini olishga harakat qilib yurgan ekan, lekin o‘zi nog‘ora chalolmay, qirq yolg‘onni udda qilolmay, qizni ololmay yurgan ekan. Vazirning



o'g'li bu to'yni eshitib qolib, bir kampirning oldiga borib, yig'lab "Qizni bu musofirdan ajratib menga olib berishning yo'li bormi?" deb, yo'l qidirib maslahat solgan ekan. Kampir vazirning o'g'liga qarab:

– Bolam, sen buni hazil fahmlaysanmi, sen menga bosh-oyoq sarpo, yuz tilla pul bersang, qo'lni tekkizmasdan olib beraman, – degan ekan. Vazirning o'g'li:

– Yuz tilla pul bilan bosh-oyoq sarpo sizdan aylansin, – deb ularni kampirga yetkazib bergan ekan.

To'yning sakkiz kuni o'tganda, kampir shu pul va kiyimlarni olib, paranji-chimmatini yopinib ketgan ekan, to'yxonaga yetgan ekan. U bitta xizmatchisining oldiga borib:

– Aylanay bolam, siz kuyov yigitni chaqirib bering, bitta opangiz, qulluq bo'lsinga keldi, deb ayting, – debdi. U xizmatchi kuyovning oldiga borib:

– Anov yerda sizni bir opangiz yo'qlab turibdi, – debdi. Shu gapga kuyov chiqib:

– Nima deysiz, opajon? – debdi. Kampir:

– Bu yoqqa keling, bolam, bu yoqqa keling, – deb orqasidan ergashtirib, odam yo'q joyga kelgizib, "O'tiring, bolam", deb o'tqazib:

– Xonbachchadan uylanibsiz, qulluq bo'lsin, aylanayin jon bolam, – debdi. Kuyov:

– Qulluq, – debdi.

– Aylanay bolam, xonbachcha bilan hamgap bo'lishning taomilini bilasizmi? – deb so'rabdi. Kuyov:

– Yo'q, men bilmayman, – debdi. Kampir:



– Bilmasangiz o'rgatib qo'yay, yosh ekansiz, bekorga o'lib ketmang, shuni o'rgatgani keldim, jon bolam, – debdi. Kuyov:

– Voy, aylanay, jon onam, o'rgatib qo'ying bo'lmasa, – debdi. Kampir:

– Taomili shuki, xonning qizini nikoh qilib, siz qiz bilan bo'lganda qirq kungacha teskari qarab yotasiz, uyga kirganingizda yerga qarab kirasiz, chiqqaningizda ham yerga qarab chiqasiz. Shu qirq kun ichida xonning qiziga hech qaramaysiz. Tomoq yesangiz ham teskari qarab o'tirib yeng. Taom yeb bo'lgandan keyingina bet-qo'lingizni yuvasiz, – deb gapni burro qilib buriltirib, qulog'iga uriltirib, chiqib ketgan ekan, ikki kun o'tgan ekan. Shuning bilan xon qizini u yigitga nikoh qilib bergan ekan.

Kuyov kirib qizning yonida teskari qarab yota beribdi. Kampirning aytganini bajarib, uyga kirgandan ko'chaga chiqquncha yerga qarab, ovqatdan keyin bet-qo'llarini yuvib yuraveribdi.

Besh-to'rt kun o'tganda, qiz qo'ni-qo'shninikiga chiqib yurganda, ular qizdan kuyovning ahvolini so'rabdilar. Qiz xafa bo'lib: "Kuyov bo'lmay, axir omon bo'lsin, menga sira aylanib qaramaydi, erta bilan o'rnidan turganda, bet-qo'lini yuvib, soqolini taramaydi. Shundan bilamanki, u otamning buyurgan ishiga ham yaramaydi", degan ekan. Bu gap qo'shnidan-qo'shniga, quloqdan-quloqqa tarqab, xonga ham eshitilibdi. Bu gapni eshitgan xon darg'azab bo'lib, kuyovni oldiga chaqiribdi. Xon bu haqda vazirlariga qarab:



– Kuyovimiz hech yoqqa qaramas emish, uch kun-to'rt kunda betini zo'rg'a yuvib, soqolini taramas emish. Uni kuyov qilganimga pushaymonim bor. Shu ishni nima qilsak bo'lar ekan. Sizlar nima deysizlar, – degan ekan.

Vazirlar "O'zingiz bilasiz", degan ekanlar.
Xon:

– Agar o'zim bilaturgan bo'lsam, shuni hukmikushga buyursammikin deb, o'ylayapman, – debdi. Vazirlardan bittasi turib:

– "Falon xon kuyovini o'ldiribdi", degan isnod gapning xalq o'rtasida tarqalishi yaxshi emas. Undan ko'ra, o'ziga o'n tuya molni berib yigirma tuya qilib kelsang kelgin, bo'lmasa o'sha yoqda yegin, deymiz. Shuning bilan o'sha yoqda qolib ketar. Keyin boshqani kuyov qilib olarmiz, – deb maslahat bergan ekan.

Shu maslahat bilan bolaga o'n tuya mol berib, ketkizib yuborgan ekan. Bola jo'nab ketgandan keyin, oradan ikki oy o'tgan ekan. Kunlardan bir kun vazirning o'g'li xonning qizini olishga sovchi yuboribdi. Xon vazirning o'g'liga qizini bermoqchi bo'libdi. Vazirning o'g'li to'y-tomosha qildirib, qizni olgan ekan.

Ilgarigi kuyov uch eshagini sichqonga, qo'ng'izga, uyquga bergan edi. Ular shum kampirning hiylasidan xabardor bo'lib, eshaklarning haqini bo'ynidan soqit qilish to'g'risida maslahat qilishibdi. Nikoh kechasi ular uyga kelishibdi. "Kuyovni uxlatish bizdan bo'lsin", deb uyqu kuyov kirishi bilanoq, uni qotirib uxlatib qo'yibdi. Sichqon bo'lsa, uning butun badanlarini tishlab, ko'kartirib qo'yibdi. Qo'ng'iz ham jim turmay, kuyovning ichiga kirib olib, uni behuzur



qilgan ekan. Erta bilan vazirning o'g'li ketib, kelmay qolgan ekan.

Oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin birov tasira-tusir ot choptirib kelib, xonning oldiga kirib:

– Taqsir, suyunchi bering, – debdi. Xon:

– Nima suyunchilik gap topib kelding, gapir, – debdi. U odam:

– O'n tuya mol berib, yigirma tuya mol bilan kelgin degan kuyovingiz yigirma tuya mol qilib kelibdi, – debdi. Xon unga qancha suyunchi berib ketkizib, nariroqqa yetkazib, uning istiqboliga odam chiqartiribdi. Shuning bilan birga, "Kimki podshoning qizi kuyovga tegib chiqqan", degan gapni gapirsa, boshi o'limda, moli talonda, deb shaharga jarchi qo'yibdi.

Kuyov kelgandan keyin, xon qaytadan to'y-tomosha qildirib, qizini ilgarigi kuyoviga bergan ekan. Shuning bilan u kuyov bo'lib indamay qolgan ekan.

ESHITMASDAN CHIQARILGAN HUKM

Bor ekan, yo'q ekan, Qo'qon tomonda Yangi qishloq bilan Toshkent guzari o'rtasida Tojik qish-loq degan joy bor ekan. U Tojik qishloqda Boymat degan bir boy bor ekan. U boyning yuzta qo'yi bor ekan. Boy qulog'i eshitmaydigan kar ekan.

Bir kuni boy qo'ychivonini "Qo'yni tuzuk boqmaysan", deb so'kib, kaltak bilan urib, tumshug'ini burib, ketkizvorgan ekan.

"Qo'yim och qolmasin", deb haligi garang boyning o'zi qo'yini olib, oldiga solib, haydab ketkizib, dalaga yetkizib, qo'yni yayratib yoyib,



o'zidan koyib, bir tolning tagida uxlab qolgan ekan.

Uyg'onib, o'rnidan turib, aqqa-baqqa qarasa, qo'yi ko'rinmas emish. "Bu qo'yni qanday qilib topaman", deb ko'p xafa bo'lib aqqa-baqqa qarasa, uzoqdan bir odam kelayotgan ekan.

U kelayotgan ham garang ekan. U garangga bu garang: "Ho'... o'rtoq, o'sha yoqda qo'y-po'y ko'rdingmi?" deb so'rabdi. "Qayerdan kelayotibsan?" deb so'radi shekilli, deb qo'lini ishora qilib "Men, ho'... Achavotdan kelyapman", deb qo'lini siltabdi ikkinchisi.

Garang boy "Qo'y shu yoqda bo'lsa kerak", deb nariroqqa borib, qo'yni ko'rib qolibdi.

Qo'ylarning bir chuqurda o'tlab yurganini ko'rib, xursand bo'lib, haligi garangni yetaklab, qo'ylari oldiga olib boribdi. Garang boy unga: "Siz mening qo'ylarimni mana bu yerda yurganini ko'rsatib qo'ymaganingizda, men boshqa yoqni izlab ketardim. Qo'ylarni ko'rsatib qo'yganingiz uchun mana bu cho'loq qo'yni sizga berdim, olib borib, bola-chaqangiz bilan meni duo qilib, so'yib yeng", debdi.

Garang kishi bu so'zlarni eshitmay: "Men sening qo'yingga tosh otganim yo'q. O'zi cho'log'u, nega menga tovonini to'lagin, deb aytasan", debdi. Garang boy:

– Mening qo'yimni "Ho', atta", deb ko'rsatganing uchun shu cho'loq qo'yni beraman. Semizini bermayman, – deb ikkovi surishib, bir-birovi bilan urishib turganida bir odam shu yerdan eshak minib o'tib ketayotgan ekan. U ham garang ekan.



– Aka, mana bu kishiga "Ho' ana u yerda qo'ying yotibdi", deganiga shu cho'loq qo'yni bersam, semizini berasan, deb janjal qilib o'tiribdi, shu degani tuzukmi? Shu cho'loq qo'yni olsa, indamay qolsa bo'lmaydimi? – debdi. Garang kishi esa:

– Tosh otganim yo'q, o'zi asli cho'loq bo'lgan qo'yning tovonini bergin, deb meni ushlab, jag'imga mushtlab o'tiribdi. Shu qilgani durustmi? – debdi.

– Bu eshagimni uch tillaga sotib olganimni mahalladagilarning hammasi biladi, – deb eshak mingan garang ikki garangning gapini eshitmasdan, eshakdan tushib bular bilan mushtlashib, bir-birini ushlab, nariroqqa borsa, bir paxsakash paxsa urayotgan ekan, sherigi arazlab ketib qolganekan, paxsakash ham garang ekan. Uchalasi unga arz qilibdi. Garang boy:

– Qo'yni "Hu ana shu yerda" deb ko'rsatganiga cho'loq qo'yni bersam, olmasdan, semizini ber, deb meni qistab o'tiribdi, – debdi.

Ikkinchi garang esa, "Men tosh otganim yo'q, cho'loq bo'lgan qo'yning tovonini to'lab ber, deb turibdi", debdi.

Eshak mingan garang: "Shu eshakni uch tillaga sotib olganimni mahallada hamma biladi, eshak o'zirniki, mana bu meniki, deb olmoqchi-yu, eshak meniki deb bunisi mendan eshakni shunga olib bermoqchi-yu, meni piyoda qoldirmoqchi. Shuni siz ajrim qilib bersangiz" desa, bularning gapini paxsakash garang eshitmasdan: "Egasi o'lchab bergan, ellik yetti quloch devor, egasi kelib barakalla", deb ketadi.



Sen loyini pishirmabsan, qiyshiq-qing'ir uribsan, deysan", deb belkuragi bilan uchovini urib, boshini yorib, to'rttovi bir-biri bilan mushtlashib, bir-birini ushlab, qozining oldiga borgan ekan.

Borishsa, qozi ham garang ekan. Qoziga to'rtovi enkayib ta'zim qilibdi. Qozi:

– Arzlaring bo'lsa, aytinglar! – debdi.

Eng oldin qo'ylik boy arz qilibdi: "Men dalada qo'y boqib yurib o'nta qo'yni yo'qotib qo'ygan edim. Qo'yimni yo'qotib aqqa-baqqa qarab tursam, ko'zimga bu kishi ko'rinib qoldi. Ushog'da qo'y-po'y ko'rdingmi desam, "Qo'ying hu... anitta yuribdi", dedi. Borib qo'yni ko'rib, xursand bo'lib, cho'loq qo'yni bersam, olmaydi "Semizini berasan", deydi. Shu degani tuzuk bo'ladimi, taqsir? Shu cho'loq qo'yni olsa, tinch qolsa bo'lmaydimi?" debdi.

Qozi bularning gapini eshitmasa ham, lablarini qimirlatayotganini ko'rib, kallasini likillatib, garangligini bildirmay, bularni nariroqqa jildirmay turganida, ikkinchisi arz qilib ketibdi:

– Taqsir, shu insofdanmi, men indamay o'tib ketayotuvdim, mening etagimdan ushlab cho'loq qo'yni ko'rsatib, sen shu qo'yga tosh otib cho'loq qilgansan, deb menga shu qo'yning tovonini berasan, deb ushlab, boshimga mushtlab, tuhmat qilib o'tiribdi! Shunga nima deysiz? – debdi.

Eshak mingan garang arz qilib ketibdi:

– Taqsir, mening uch tillaga sotib olganimni butun mahalla biladi. Eshakni mana bular olmoqchi, meni piyoda qo'ymoqchi, shu tuzukmi? – debdi. To'rtovining so'zini eshitmasdan, qozi bularning arzigga javoban:



— To'rtoving kelgan bo'lsalaring, bu gaplaringning mazmunidan men shuni bildimki, ikkitalaring yangi oy ko'rgan bo'lsalaring kerak, ikkitalaring guvohlikka o'tgani kelganga o'xshaysizlar. Bo'lmasa, asliga qaraganda arafa ertaga bo'lishi kerak edi. Endi ikkitalaring yangi oy ko'rib kelgan bo'lsalaring, ikkitalaring guvoh bo'lib kelgan bo'lsalaring, o'zlaring borib karnaychilarga xabar beringlar. Qozi ruxsat berdilar, bugun arafa bo'lsin, deb aytinglar. Boringlar, karnaychilarni xabardor qilinglar, — debdi.

Shu to'rt garangning gapi bilan, qozining garangligidan o'sha yili ro'zaning yigirma sakkizida arafa, yigirma to'qqizida hayit bo'lib qolgan ekan.

PODSHONING MOT BO'LISHI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir podsho bo'lgan ekan. Podshoning o'ng qo'l vazirining oti Hasanumaymanoz, chap qo'l vazirining oti Paxtak ekan. Ikkovining bir-birini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q ekan. Doim Paxtak vazir Hasanumaymanoz vazirni yo'qotish payida yurar ekan. Hasanumaymanoz vazir Paxtak vazirning yomon niyatlarini sezsa ham hech parvo qilmas ekan. Podshoning ikki yonida o'ttiz beshtadan yetmish o'rin bo'lib, har bir kishi o'z o'rniga o'tirar ekan, biri ikkinchisining joyiga o'tirishga haqqi yo'q ekan. Ayniqsa o'ng qo'l vazir Hasanumaymanoz Paxtak vazirning o'rniga, chap qo'l vazir Paxtak esa Hasanumaymanoz vazirning o'rniga o'tirmas ekan.



Kunlardan bir kuni podsho o'ng tomoniga bundoq qarasa, Hasanumaymanoz vaziri o'rnida yo'q emish. Podsho yon-atrofdagilaridan:

– Nima uchun Hasanumaymanoz yo'q? – deb so'rabdi. Keyin: – Yasovullarga aytinglar, uyidan chaqirib kelishsin, – deb buyuribdi.

Shunda Paxtak vazir o'rnidan irg'ib turib:

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, bir arzim bor, – deb ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib turaveribdi. Podsho:

– Kechdim, ayt arzingni, – debdi.

– Hasanumaymanozni suyub, dono vazir deb bilasiz. Uning o'tiradigan o'rniga bir parcha yuqa qog'oz qo'ysak, agar vaziringiz Hasanumaymanoz haqiqatan ham bilag'on, dono kishi bo'lsa, qani, shu qog'ozni bilsin-chi, agar bilmasa unday befahm vazirga sizdek ulug' podshoning dargohida joy bo'lmasligi kerak, – debdi.

Bu gap podshoga ham, o'tirganlarga ham ma'qul tushibdi. Shunda podsho:

– Bir parcha piyoz pardasidek qog'ozni Husanumaymanozning o'tiradigan joyidagi ko'rpachaning orasiga qo'yinglar, agar qog'oz borligini sezsa, boshidan oyog'igacha zarga ko'maman, bordi-yu, bilmasa, kallasini tanasidan judo qilaman, – deb buyruq qilibdi.

Podsho buyurganidek qilib, bir parcha piyoz pardasidek qog'ozni Hasanumaymanoz vazir o'tiradigan ko'rpachaning qatiga qo'yishibdi.

Bir payt Hasanumaymanoz vazir salom berib kirib kelibdi. Barcha turganlar "Hasanumaymanoz qog'oz borligini bilmaydi,



endi kallasi tanasidan judo bo'ladi", deb unga tikilganicha turgan emish.

Hasanumaymanoz o'z joyiga borib o'tirib, yerga bir qarabdi, keyin osmonga qarabdi. Shunda podsho:

– Ey Hasanumaymanoz vazir, nima sababdan joyingizga o'tiriboq bir yerga, keyin bir osmonga qarab qo'ydingiz? – deb so'rabdi.

Hasanumaymanoz vazir o'rnidan turib:

– Podshohim, bugun yer yo piyoz po'stidek baland ko'tarilibdi, yoki osmon bir parda pastlabdi, – debdi.

Podsho Hasanumaymanoz vazirning donoligiga qoyil qolib, boshidan oyog'igacha oltinga ko'mibdi.

Kundan-kun, oydan-oy, yildan-yil o'taveribdi.

Hasanumaymanozning obro'siga obro' qo'shilib borayotganligini ko'rgan Paxtak vazir, o'zini qo'yarga joy, kirarga kovak topolmay qolibdi, kundan-kun g'azabi orta boribdi. Fikr-zikri raqibini yo'qotish bo'libdi.

Podshoning oltmish ikki mingta oti bo'lar ekan, shulardan biri eng yaxshi ko'rgan tulpor oti ekan. O'sha ot doim podshoning ko'z oldida egarlangan, yuganlangan holda turar ekan, podsho shu otga nima nom qo'yish kerak deb, ko'p o'ylabdi. Keyin:

– Shu otimga loyiq nom topib bergan kishining boshidan zar to'kaman, – debdi.

Podshoning ko'nglidagi nomni topolmasligini bilib, hech kim indamabdi. Shunda chap qo'l vazir Paxtak irg'ib o'rnidan turib:



– E podshohi olam, bir parda qog'ozni bilgan o'ng qo'l vaziringiz Hasanumaymanoz otingizning otini topmay qo'yarmidi, – debdi.

Podsho o'ng qo'l vaziriga qarab:

– Otinga nom topasizmi, Hasanumaymanoz? – deb so'rabdi. Hasanumaymanoz odob bilan o'rnidan turib:

– Muhlat bersangiz otingizga nom topishga harakat qilib ko'raman, – debdi.

Podsho xursand bo'lib ketib, bir oyga muhlat beribdi. Hasanumaymanoz qulluq qilib, xayrlashib saroydan chiqib ketibdi. Podshoning otiga munosib nom topaman deb qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezib chiqibdi. Xullas, Hasanumaymanoz kirmagan ko'cha, bormagan qishloq, yurmagan shahar qolmabdi. Yigirma kun kezib yurib, otning nomini topolmay, endi o'z shahringa qaytmasam bo'lmas ekan deb qaytibdi. Yo'l yurib charchab, suv ichmay chanqab, uyqudan qolib, yurib-yurib bir joyga kelib qolibdi. Qarasa, bir paxsa devor bilan o'ralgan qo'rg'oncha emish. Qo'rg'oncha ichida ikkita tom, tomning orqasida bir tup urug'i pishib turgan nasha o'sib turgan emish "Shu joy, ajab yaxshi joy ekan, otni shu nashaga boylab, uning tagida o'zim bir-ikki soat uxlab olsam yaxshi bo'lardi", deb o'ylab otning boshini qo'rg'onchaga buribdi. Hasanumaymanoz vazir otdan tushib, uni nashaga bog'lab, "yana besh-o'n kun muhlatimda bor-ku", deb yotib ko'zi uyquga ketibdi.

Bir payt oti nashaga suykanib, pishgan nashalarni to'kib yuboribdi. Shunda qo'rg'onchadan bir qiz chiqib:



– E, harom o'lgur, haybar-chashbar-zuhbar ot ekansan-ku, – debdi.

Bu gap Hasanumaymanozning qulog'iga kirib sapchib o'rnidan turib ketibdi. Keyin qizning kim ekanligini surishtirib bilib, unga uylanmoqchi bo'libdi. Sovchi qo'yib, o'ziga so'ratibdi. Qizning birgina kampir enasi bor ekan, oldiniga podsho kishilariga bermayman, debdi. Hasanumaymanoz vazirning hali uylanmagan, aqlli va dono yigit ekanligini surishtirib bilib, qizini berishga rozilik bildiribdi. Hasanumaymanoz vazir o'zida yo'q xursand bo'lib, shahriga qaytibdi. Podshoning huzuriga boribdi. Paxtak vazir boshliq ulamolar, Hasanumaymanoz vazirni ko'rib:

– Bu otning nomini topib kelolmagan, podsho ilgari o'ldirmasa ham endi o'ldiradi, – deb turishibdi. Hasanumaymanoz vazir asta borib o'z o'rniga o'tiribdi. Podsho:

– E, vazirlarning sarvari Hasanumaymanoz, otinga nom topdingizmi? – debdi. Shunda Hasanumaymanoz vazir:

– Shahringizning chekkasidagi kichik qo'rg'onchada bir kampir bilan uning qizi yashar ekan. Otning nomini o'sha kampirning qizi aytib berdi. Otingizning nomi "Haybar-Chashbar-Zuhbar" ekan, – debdi.

– Ha, senga uchragan qiz ko'p aqlli ekan, otning otini topibdi, – debdi podsho xursand bo'lib. Shunday qilib, Hasanumaymanoz vazir o'limdan qolibdi. Oradan bir kun o'tkazib, Paxtak vazirning maslahati bilan podsho otning otini topgan qizni axtarib yo'lga chiqibdi, so'rab-so'rab kampirning uyini topibdi-da, qizni o'ziga



– E podshohi olam, bir parda qog‘ozni bilgan o‘ng qo‘l vaziringiz Hasanumaymanoz otingizning otini topmay qo‘yarmidi, – debdi.

Podsho o‘ng qo‘l vaziriga qarab:

– Otinga nom topasizmi, Hasanumaymanoz? – deb so‘rabdi. Hasanumaymanoz odob bilan o‘rnidan turib:

– Muhlat bersangiz otingizga nom topishga harakat qilib ko‘raman, – debdi.

Podsho xursand bo‘lib ketib, bir oyga muhlat beribdi. Hasanumaymanoz qulluq qilib, xayrlashib saroydan chiqib ketibdi. Podshoning otiga munosib nom topaman deb qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezib chiqibdi. Xullas, Hasanumaymanoz kirmagan ko‘cha, bormagan qishloq, yurmagan shahar qolmabdi. Yigirma kun kezib yurib, otning nomini topolmay, endi o‘z shahringa qaytmasam bo‘lmas ekan deb qaytibdi. Yo‘l yurib charchab, suv ichmay chanqab, uyqudan qolib, yurib-yurib bir joyga kelib qolibdi. Qarasa, bir paxsa devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘oncha emish. Qo‘rg‘oncha ichida ikkita tom, tomning orqasida bir tup urug‘i pishib turgan nasha o‘sib turgan emish "Shu joy, ajab yaxshi joy ekan, otni shu nashaga boylab, uning tagida o‘zim bir-ikki soat uxlab olsam yaxshi bo‘lardi", deb o‘ylab otning boshini qo‘rg‘onchaga buribdi. Hasanumaymanoz vazir otdan tushib, uni nashaga bog‘lab, "yana besh-o‘n kun muhlatimda bor-ku", deb yotib ko‘zi uyquga ketibdi.

Bir payt oti nashaga suykanib, pishgan nashalarni to‘kib yuboribdi. Shunda qo‘rg‘onchadan bir qiz chiqib:



– E, harom o'lgur, haybar-chashbar-zuhbar ot ekansan-ku, – debdi.

Bu gap Hasanumaymanozning qulog'iga kirib sapchib o'rnidan turib ketibdi. Keyin qizning kim ekanligini surishtirib bilib, unga uylanmoqchi bo'libdi. Sovchi qo'yib, o'ziga so'ratibdi. Qizning birgina kampir enasi bor ekan, oldiniga podsho kishilariga bermayman, debdi. Hasanumaymanoz vazirning hali uylanmagan, aqlli va dono yigit ekanligini surishtirib bilib, qizini berishga rozilik bildiribdi. Hasanumaymanoz vazir o'zida yo'q xursand bo'lib, shahriga qaytibdi. Podshoning huzuriga boribdi. Paxtak vazir boshliq ulamolar, Hasanumaymanoz vazirni ko'rib:

– Bu otning nomini topib kelolmagan, podsho ilgari o'ldirmasa ham endi o'ldiradi, – deb turishibdi. Hasanumaymanoz vazir asta borib o'z o'rniga o'tiribdi. Podsho:

– E, vazirlarning sarvari Hasanumaymanoz, otinga nom topdingizmi? – debdi. Shunda Hasanumaymanoz vazir:

– Shahringizning chekkasidagi kichik qo'rg'onchada bir kampir bilan uning qizi yashar ekan. Otning nomini o'sha kampirning qizi aytib berdi. Otingizning nomi "Haybar-Chashbar-Zuhbar" ekan, – debdi.

– Ha, senga uchragan qiz ko'p aqlli ekan, otning otini topibdi, – debdi podsho xursand bo'lib. Shunday qilib, Hasanumaymanoz vazir o'limdan qolibdi. Oradan bir kun o'tkazib, Paxtak vazirning maslahati bilan podsho otning otini topgan qizni axtarib yo'lga chiqibdi, so'rab-so'rab kampirning uyini topibdi-da, qizni o'ziga



xotinlikka olmoqchi bo'libdi. Qiz juda ham aqlli, dono ekan. "Saroyda yashaguncha bu yerlarda mol boqib o'tib ketganim ma'qul", deb o'ylabdi. U podshoga qarab:

– Taqsir, biz keng dalada o'sgan dalag'ovil odammiz, saroyingizga sig'masmiz, – debdi.

– Yo'q, saroyga sig'a berasan, xotinlarim orasida birinchisi bo'lasan, – debdi podsho. Shunda qiz podsho bilan adi-badi aytishib o'tirgani bilan ish bitmaydi, debdi o'ziga-o'zi. Keyin podshoga qarab:

– Mayli, men rozi, ammo uch hafta muhlat berasiz, – debdi.

Podsho noiloj ko'nibdi. Podsho qaytib ketgandan keyin, qiz erkakcha kiyinib, shaharga kelib, Hasanumaymanoz vazirni topib, bo'lgan voqeani aytib beribdi.

Hasanumaymanoz vazir bilan qiz birinchi bor ko'rishganidayoq bir-birlarini sevib qolishgan ekan.

– Bo'пти, siz keta bering, men podshoning bir ilojini qilaman, – debdi Hasanumaymanoz vazir qizga. Qiz uyiga qaytibdi. Ertasiga Hasanumaymanoz vazir kampirnikiga borib, qiz bilan maslahatni bir joyga qo'yibdi.

– Ikki dona ko'moch qilib, sizning ikki qo'ltig'ingizga qistirib qo'yamiz, – debdi enasiga qiz. – Podsho ovga o'tadigan kuni eshikka chiqib o'tiraverasiz. Podsho yaqin kelganda "Ey podshohim, sizga arzim bor", deb qo'lingizni ko'tarib yuborasiz. Ko'moch g'ildirab podshoning otining tuyog'i ostiga boradi. Shunda podsho otining jilovini tortib, to'xtatib: "Ayt arzingni?" deydi. Shunda siz, Hasanumaymanoz



vaziringizdan dod, bog'chamga suv bermaydi, deysiz. Qolganini keyin ko'rasiz, — debdi.

Kampir ikki dona ko'mochni ikki qo'ltig'iga qo'ltiqlab o'tirgan ekan, siyosat bilan podsho o'tib qolibdi. Kampir: "Podshohim arz", deb ikki qo'lini ko'targan ekan, haligi ko'mochlar qo'ltig'idan tushib, g'ildirab podshoning otining tuyog'i ostiga borib qolibdi. Podsho otining jilovini tortib turib:

— Ayt arzingni, — debdi. Shunda kampir:

— Hasanumaymanoz degan vaziringizdan dod, suv bermaydi, ekinlarim qurib ketdi, — debdi.

Shunda podsho o'ng qo'l vaziri Hasanumaymanozga qarab:

— Nima uchun bu kampirning bog'chasiga suv bermadingiz? — deb so'rabdi.

Shunda Hasanumaymanoz:

— Podshohi olam, bu kampirning bog'chasiga bundan ikki hafta oldin bir to'ng'iz oralagan ekan, shuning uchun to'ng'iz halol joyga harom qadamini bosib ifloslabdi, deb suv bermadim, — debdi.

Podsho vazirning nimaga shama qilayotganini bilib, nima deyishini bilmay, orqasiga qaytibdi. Hasanumaymanoz qishloqda qolib, qizga uylanib, yaxshi hayot kechirib, murodu maqsadiga yetibdi.

YAMOQCHI BILAN SHOGARIB

Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan. Bir zamonda Valixon degan bir podsho bor ekan. Uning shahrida Xoldor degan yamoqchi ham bor ekan.



Podsho: "Men mamlakatda adolat o'rnatayin, yurt-elni kezayin, fuqarolarning gap-so'zini eshitayin. Qani, ular nimalarni orzu qilar ekan, shunga qarab ish ko'rayin", debdi. Podsho kech bo'lganda eski-tuski kiyimlarini kiyib, boshiga yirtiq sallani o'rab, faqir kishiga o'xshab chiqib ketar ekan, odamlarning gap-so'zlarini eshitib qaytar ekan.

Podsho bir kuni kechasi bir mahallada aylanib yursa, bir do'kondan ashula tovushi eshilibdi. Sekin borib quloq solsa, o'choqqa osilgan qozonda shaqirlab ovqat qaynayapti, bir odam uning ovozigga o'yinga tushib:

Sabzing bilan go'shtingga,

Qayna, palovim, qayna!

Qurbon bo'lay o'zingga,

Qayna, palovim, qayna!

Biqir-biqir ovozing,

Qayna, palovim, qayna!

Mast bo'laman men o'zim,

Qayna, palovim, qayna!..

deb qo'shiq aytyapti. Podsho bu odamning ishidan ta'sirlanib: "Bilayin-chi, bu odam nimaga bunday qilar ekan?" deb do'konning eshigini taqillatibdi. Ichkaridan:

— Kim u taqillatayotgan? — degan ovoz eshilibdi. Podsho:

— Men, Shog'aribman. Oching eshigingizni! — debdi.

Do'konning eshigi ochilibdi, podsho ichkariga kiribdi. Qarasa, yamoqchining do'koni ekan. Yamoqchi bilan so'rashib:

— O'zingizdan o'zingiz nimalar deyapsiz? — degan ekan. Yamoqchi:



– E, Shog'arib! Bola-chaqa yo'q! So'qqa-boshman, har kuni bitta palovning puliga loyiq ish qilaman. Xarajat qilib kelib, qozonni qaynataman.

Palovxon to'raning qaynagan ovozigga xursand bo'lib, o'yinga tushaman. Valixon podshoning davrida bizga bundan boshqa nima xursandchilik qoldi?! – debdi.

Bu gaplarni eshitib, podsho hayron bo'libdi. Undan:

– Ko'proq ishlab ko'proq pul topsangiz bo'lmaydimi? – deb so'rabdi. Yamoqchi aytibdi:

– Shu zamonda nima og'ir? Valixon podshoning oliq-solig'i og'ir! Ko'p ishlasang, oliq-solig'i ham ko'p bo'ladi. Menga bitta palovga loyig'i yetadi! – debdi. Podsho:

– Shukr qilsangiz-chi! Agar Valixon podsho yamoqchilikni taqiqlab qo'ysa, qanday kun ko'rasiz? – debdi. Yamoqchi:

– Agar Valixon podshoga bizning hunarimiz ko'p ko'rinib, taqiqlab qo'ysa, u holda qul o'lmas, rizqi qurimas. Bir tirikchilik o'tar. Uning g'amini yemang, o'tiring, oshni birga yeymiz, – debdi. Shog'aribni ko'rpachaga o'tqazib, qo'lga suv quyibdi. Ikkalasi oshni yeyishibdi. Choyini ichishibdi. Shundan keyin Shog'arib: "Rahmat! Biz ketdik endi", deb o'rnidan turib, chiqib ketibdi. Yamoqchi esa: "Xudoga shukr! Bugungi oshni Shog'arib bilan birga yedim!" deb xursand bo'lib qolaveribdi. Podsho ham o'rdasiga qaytib borib yotibdi.

Podsho erta bilan turib, o'ylanibdi: "Yamoqchi ko'p ishlashning nima hojati bor? Kunim o'tsa



bo'ldi, dedi-ya! Qani, yamoqchilikni taqiqlab qo'yay-chi! Kuni qanday o'tar ekan?!" debdi.

Vazirini chaqirib kelib, fuqaroga buyruq chiqarishni buyurib:

– Mening shahrimda hamma yangi oyoq kiyim kiysin. Eskisini kiymasin. Hech kim yamoqchilik qilmasin. Agar kimki yamoqchilik qilsa, uyi talonda, o'zi zindonda! – debdi.

Vazir buyruqni yozibdi. Podsho qo'l qo'yib, muhrini bosibdi. Vazir jarchiga buyuribdi. Jarchi shaharda qichqirib yurib, buyruqni hammaga eshittiribdi.

Podshoning buyrug'ini Xoldor yamoqchi eshitib: "Podsho yamoqchilikni taqiq qilib qo'ygan bo'lsa, buguncha sabr qilay. Sabr tubi sariq oltin deganlar. Xudo bir yo'lga boshlar!" deb ko'rpani to'rt qavat solib, yotib, kechgacha uxlabdi. Asrdan keyin o'rnidan turib: "Endi birorta choy qaynatib, qotgan-qutgan non bo'lsa yeb, bu kechani o'tkazay!" deb, qo'shnisining hovlisiga o't so'rab chiqibdi. Qo'shnisining eshigini ochib kirsam, qo'shnisining xotini bir begona yigit bilan turgan ekan. Yamoqchini ko'rib qo'rqib ketibdi:

– Jon tog'a! Birovga aytmang, – deb haligi yigit cho'ntagidan bir so'm chiqarib berib, o'zi chiqib ketibdi.

Yamoqchi pulni olib, suyunib: "Xudo yetkazdi!" deb, bu pulga palovga loyiq go'sht, yog', guruch, sabzi-piyoz va ikkita non olib kelibdi. Go'sht, sabzi-piyozni to'g'rabdi. Qozonni osib, oshni boshlabdi.

Valixon podsho kechqurun: "Qani, yana boray-chi! Bugun yamoqchining holi nima bo'ldi ekan!"



deb borib quloq solsa, do'konda yana palov biqirlab qaynayapti, yamoqchi esa, uning ovozigga qo'shiq aytib, o'yinga tushyapti. Podsho taajjublanib, eshikni taqillatibdi. Yamoqchi:

– Ha, o'yinimni buzding—a! Kimsan o'zing! – debdi. Podsho:

– Shog'aribman! – debdi. Yamoqchi eshikni ochib:

– E, Shog'arib! Keling! – deb ichkariga kirgizibdi. Podsho kirib gap boshlabdi:

– Nimalar qilyapsiz?

– He, oshimning shaqirlab qaynaganiga xursand bo'lib o'yinga tushayotuvdim. O'yinni ham buzdingiz, – debdi. Shog'arib:

– Podsho yamoqchilikni taqiqlab qo'ydi. Bari yamoqchilar "dod!" deyishyapti. Siz pulni qaydan topdingiz? – debdi. Xoldor yamoqchi:

– Ha, kecha siz, agar Valixon podsho yamoqchilikni taqiqlab qo'ysa, nima qilasan, degan edingiz. Men bir tirikchilik bo'lsa, o'tib ketar degan edim. Yamoqchilikning taqiqlanganini eshitib, kechgacha uxlab yotdim. Kechqurun o'rnimdan turib, qo'shnimnikiga o't so'rab chiqsam, qo'shnimning xotini bir begona yigit bilan turgan ekan. Ustiga kirib qolibman. Meni ko'rib qo'rqib ketdi. "Birovga aytmang!" deb yalinib, qo'limga bir so'm pul berdi. "Xudo yetkazdi!" deb, bozorga chiqib xarajat qilib keldim. Qo'shnimning xotini u yigit bilan gaplashmasa, bu palov qayerda edi? – debdi. Shog'arib aytibdi:

– Agar sizning u yigitdan pora olib, qozon qaynatganingiz podshoning qulog'iga yetib qolsa,



podsho sizni chaqirib so'roq qilsa, nima javob qilasiz? – debdi. Xoldor yamoqchi:

– Bu gapni sizdan boshqa hech kimga aytganim yo'q. Agar siz borib aytib qo'ymasangiz, kim aytar edi? – debdi. Shunda Shog'arib:

– E, bizdek g'aribga podsho bilan gaplashishga yo'l bo'lsin! Men uning ko'chasidan ham o'tolmayman. Hamma yoq podshoning qulog'i, devoringizning kesagi ham podshoning qulog'i, – debdi.

Osh pishibdi. Har ikkovlari birlikda choyni ichishibdi. So'ng Shog'arib rahmat aytib, xayrlashib chiqib ketibdi.

Namoz vaqti bo'lsa ham yamoqchi hali uyqudan turgani yo'q ekan. Eshigi taqillab qolibdi. Yamoqchi uyg'onib turib eshikni ochsa, shomurtini shopday qilib, podshoning mirg'azablari turibdi. Ular:

– Seni podsho chaqirtirdi. Tez oldimizga tush! – deyishibdi. Yamoqchining kayfi uchib, iliklari qaltirab ketibdi:

– Mening hech gunohim yo'q-ku! Meni olib bormanglar, – deb yalinibdi. Mirg'azablar: "Hozir yurasan!" deb do'q qilib haydab olib ketishibdi va Valixon podshoga to'g'ri qilishibdi. Yamoqchi podshoga qo'l qovushtirib turibdi. Podsho so'rabdi:

– Qanaqa xiyonat qilding? Yamoqchi:

– Taqsir, men xiyonat qilganim yo'q? – debdi. Podsho aytibdi:

– Sen xiyonatkor bo'lmasang, podsholik ishiga aralashib, birovlardan pora olib yermiding? Yamoqchi juda qo'rqibdi:



– E, podshohim! Men poraxoʻrlik qilganim yoʻq! – debdi. Podsho:

– Poraxoʻrlik qilmasang, bu kecha palovni qayerdan topding? – debdi. Yamoqchi:

– Siz yamoqchilikni taqiqlab qoʻygan ekansiz.

Kechgacha ish qilmay yotdim. Kechqurun choy damlab, qotgan-qutgan non boʻlsa yeb yotay deb, qoʻshnimnikiga oʻt soʻrab chiqsam, xotini bir begona yigit bilan turgan ekan. Meni koʻrib qoʻrqib ketdi-da: "Birovga aytmang", deb haligi yigit bir soʻm berdi. Shu pulga palov qilib yegan edim, – debdi. Podsho aytibdi:

– Bunaqa buzuqchilikni taqiqlash podsholikning ishi boʻladi. Sen bu ishni podsholikka bildirmay, porani oʻzing yeb ketibsan, gunohkorsan! – deb gʻazab qilibdi. Yamoqchi qoʻrqib: "Podsho endi meni oʻldirar ekan-da!" deb oʻylabdi. Podsho aytibdi:

– Sen shu qilgan gunohing uchun eshigimning tagida bir yil qorovullik qilib berasan!

Xoldor yamoqchi: "Oʻlmay qolganimga shukr! Qorovullik qilsam, qilib beray!" deb oʻylab:

– Xoʻp, taqsir! – debdi. Podsho yamoqchining qoʻliga bitta qilich beribdi va:

– Bor! Sen hov anavi darvozaning yonida poyloqchi boʻlib tur! Oʻgʻri kelsa, chopasan! – debdi. Yamoqchi borib, kechgacha poyloqchilik qilibdi. Oʻgʻri kelmabdi. Kechgacha podsho unga ovqat bermabdi. Yamoqchining qorni ochibdi.

Kechqurun uni podsho yana huzuriga chaqirtiribdi.

Yamoqchiga katta bir otni koʻrsatibdi va:



— Shu otni uyingga oborib, chaksa yem, uch bog‘ beda berib, boqib, erta bilan olib kel, — deb buyuribdi. Yamoqchi otni minib, chiqib ketibdi. Yo‘lda: "Podshoning poyloqchisi shunaqa och ahvolda ishlaydimi? Qorning ochib, o‘lar holga kelganing yetmay, endi mana bu otni boqib kelasan, degani ortiq bo‘ldi-ku. Men bunga chaksa yem bilan uch bog‘ bedani qayerdan topdim", deb xafa bo‘lib ketaveribdi. Yo‘lda ketayotsa, bir g‘alvirfurush do‘konda ish qilib o‘tirgan ekan. Unga podsho bergan qilichni ikki so‘mga garovga qo‘yibdi. Puliga palovga yetkudek xarajat qilibdi, ikki bog‘ beda, yuz paysa yem olib uyiga kelibdi.

Otga yemni yedirib, go‘sht-yog‘ni to‘g‘rab, palovni boshlab yuboribdi.

Valixon podsho: "Yamoqchini kun bo‘yi och qo‘ydim. Boz ustiga boqib kelasan, deb otimni ham berib yubordim. Qani, borib ko‘rayin-chi, yamoqchi bugun nima qilar ekan?" deb kechasi yamoqchining do‘koniga borib, quloq solibdi. Quloq solsa, do‘konda yana palov qaynayapti-yu, yamoqchining vaqti chog‘:

Qozonimni qaynatgan,

Qayna, palovim, qayna!

Podsholikning qilichi.

Qayna, palovim, qayna!..

—deb o‘yinga tushyapti. Podsho yamoqchining bu ishidan zavqlanib, kulibdi va eshikni taqillatibdi:

— Kimsan?

— Shog‘aribman!

Yamoqchi eshikni ochibdi. Shog‘arib kiribdi. Yamoqchi u bilan so‘rashib, ko‘rpachaga



o'tqazibdi. Shog'arib undan hol-ahvol so'rabdi. Yamoqchi:

— E, Shog'arib! Bugun bir o'limdan qoldim, erta bilan podshoning mirg'azablari podshoning oldiga haydab bordi. Podsho: "Sen pora olibsan!" deb o'ldirib qo'yishiga bir bahya qoldi. Yana o'ziga insof berdimi, o'ldirmay eshigiga poyloqchi qilib qo'ydi. Kechgacha poyloqchilik qildim. Biror odam kelib: "Nima qilib o'tiribsan, qorning ochmadimi?" deb so'ramadi. Juda och qoldim. Kechqurun podsho otini berdi. Shu otni oborib, chaksa yem, uch bog' beda bilan boqib kelasan, dedi. Nima qilay! Uyda hech narsam yo'q. Qilichni g'alvirfurushga garovga qo'yib, oshga xarajat qildim, podshoning otiga yem, beda olib keldim, — debdi. Shog'arib:

— Xo'p, qilichni garovga qo'yibsiz. Ertaga borib, yana poyloqchilik qilasiz. Shunda o'g'ri kelib qolsa, podsho sizga: "Chop o'g'rini!" desa, u holda nima qilasiz? — debdi.

Yamoqchi aytibdi:

— Ha, uning g'amini yemang! Keling, oshni yeylik! Oshdan keyin yog'ochdan qilich yasab, qiniga solib qo'yaman! — debdi. Osh yeyilibdi, choy ichilibdi, Shog'arib xayrlashib chiqib ketibdi.

Ertada bilan yamoqchi podshoning otini qashlab, egarlab, yuganlab, ustiga minib, yog'och qilichni taqib, o'rdaga yetib boribdi. Otni podshoga to'g'ri qilib, ta'zim qilib turaveribdi. Podsho:

— Bor, kechagi joyingga! O'g'ri kelsa, chopasan! — debdi. Yamoqchi kechagi joyiga borib: "Xudoyo sharmanda qilmagin!" deb, yuragi po'killab turaveribdi.



Bir vaqt podshoning odamlari: "O'g'ri tutdik!" deb ikkita odamning qo'lini orqasiga bog'lab olib kelishibdi. Podsho aytibdi.

— Hov anavi yangi yigitni chaqiringlar! Kelib, bu o'g'rilarni chopsin!

Yamoqchini chaqirib kelishibdi. Podsho yamoqchiga:

— Chop, o'g'rilarni! — deb buyruq beribdi. Yamoqchi qo'rqib turib qolibdi. Yana:

— Chop, — deb buyuribdilar. Yamoqchi: "Bor, endi o'ldim!" deb yog'och qilichni qinidan chiqarib, o'g'rining yelkasiga bir solibdi. Yog'och qilich sinib ketibdi. Bu ahvolni ko'rib podsho "qah-qah" urib, kulib yuboribdi, shu yerda turganlarning hammasi qotib-qotib kulishibdi, o'g'rilar ham kulib yuborishibdi. Bechora yamoqchi: "Men endi o'ldim. Podsho bu o'g'rilarga: "O'zini chop!" deb buyuradi. O'g'rilar meni chopadi!" deb titrab turibdi. Shunda podsho kulgidan to'xtab:

— Yasha, yamoqchi! O'lma, sening ishlaringga qoyilman! Ol! Ot ham seniki, qilich ham seniki! Bor, ketaver endi! — deb otni mindirib, o'rdadan chiqartirib yuboribdi.

Yamoqchi o'lmay qolganiga yuz shukrlar qilib xursand bo'lib, uyiga yetib kelibdi. Otni bog'labdi. Bozorga chiqib, g'alvirfurushga qilichni birato'la pullabdi. Ortgan puliga otga yem, beda, palovning xarajatlarini olib qaytib kelayotsa, jarchi bozorni aylanib:

— Podshohi a'zamdan ruxsat bo'ldi, yamoqchilar yamoqchiligini qila bersin! — deb baqirib yurganmish. Yamoqchi: "Eh, xayriyat!" deb, uyiga yetib kelib, otini boqaveribdi.



Podsho kechasi yana kelibdi. Quloq solsa, qozonda palov qaynayapti-yu, yamoqchi uning ovozigga suyunib, qo'shiq aytib, o'ynayapti. Podsho eshikni taqillatibdi. Yamoqchi:

– Kimsan? – debdi.

– Shog'aribman! – debdi podsho.

Yamoqchi borib eshikni ochibdi. Shog'arib kirib o'tiribdi va:

– Usta Xoldor! Bugun juda ham vaqtingiz chog'! – debdi.

Yamoqchi:

– He, asti so'ramang! Bugun juda qiziq ishlar bo'ldi, – deb podshonikida bo'lgan ishning hammasini Shog'aribga aytib beribdi va: – "Qul o'lmas, rizqi qurimas", degan ekanlar. Mana bugun ham qozonim qaynayapti, – debdi. Osh pishibdi, oshni ikkalasi birga yeyishibdi. Shog'arib:

– Endi men ketaman! Siz bir dono kishidan so'rab ko'ring! Siz tantimi, podsho tantimi! – deb chiqib ketibdi.

QOZINING MAKRI

Bir podsho bor ekan. Odamlar orasida xasislik bilan nom chiqargan ekan. Uning bir o'g'li bor ekan. U otasiga qaraganda birmuncha saxovatli ekan. Bir kun shahzoda bir bechora odamga ozroq oltin hadya qilibdi. Buni podsho bilib qolib, o'g'lini tergabdi:

– E, o'g'lim, xalqdan pul yig'ish o'rniga pul berasanmi? Bunday qila bersang dunyo qayerdan to'planadi? Sen odamlardan pul yig'ishni o'rgan, – debdi. Shahzoda otasining bu so'zini ma'qul, deb podsho huzuridan chiqibdi. Keyin



odamlarning hojatini chiqarib yuraveribdi. Podsho bir kun o'g'lini yoniga chaqirib:

— E, o'g'lim, nega sen mening maslahatimni quloqqa olmading? — debdi. O'g'li:

— Otajon, gapingizni jon-dilim bilan quloqqa olaman-ku, lekin muhtoj odamlar uchragandan keyin rahmim keladi, — deb javob beribdi. Podsho:

— Sen mening maslahatimni qulog'ingga olmasang, senday o'g'il menga kerak emas, — deb o'g'lini shahardan haydab yuboribdi, yigit bechora qayerga borishini bilmay, tog'ma-tog', cho'lma-cho'l yurib, bir shaharga kelibdi. Ertadan kechgacha yurib och qolibdi. Ovqat yeyay desa puli yo'q ekan. Mardikorlik ham qilolmay, gadoychilik qilishga majbur bo'libdi. Ko'chama-ko'cha aylanib qaysi eshikka borsa, tilanchilik qilolmay, gadoylarga xos bo'lgan so'zlarni aytolmay qaytar ekan.

Shom yaqinlashibdi. "Tavakkal" deb bir darvozani taqillatibdi. Eshikning orqasidan bir qizning: "Kimsiz?" degan tovushi kelibdi.

Yigit: "Men" deb javob beribdi. Qiz eshikni ochib qarabdi. Yigit qizni ko'rib o'zidan ketib qolibdi. Yigit bir zamon o'ziga kelib qarasa, vayronada yotgan emish, belida yangi belbog' emish. Uni yechib qarasa, uch-to'rtta non, uch-to'rtta tilla bor emish. Buni ko'rib hayron bo'libdi. Non bilan tillani o'sha qiz bergan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi. Bu vayrona qizning uyiga yaqin bo'lgani uchun yana qizni ko'rib qolarman, deb ketmasdan yotaveribdi.

Yarim kechada shahar qozisi mehmondorchilikdan qaytib kelayotganda qulog'iga hip ovoz



eshitilibdi. Qozi bu yerda nima bor ekan, odam desam odamga o'xshamaydi, bu yerdan o'tishim qiyinga o'xshab qoldi, deb hayron bo'libdi. Qo'rqib sekin-sekin oldinga qarab qadam bosibdi. Keyin duo o'qib, yana dadillik bilan qadamini tezlatibdi. Qozi ko'chaning chetida bir qora narsani ko'rib, esi chiqib ketibdi. Kayfi uchib ketganidan o'qib turgan duolari ham yodidan chiqib qolibdi. Tong g'ira-shira yorishgach, atrofga qarasa, hech narsa ko'rinmabdi. So'ngra bir amallab uyiga yetib olibdi. Uyida o'tirganida ham haligi maydonda eshitgan ovoz qulog'ida jaranglar emish. Haqiqatni bilmoqchi bo'lib, bir xizmatkori bilan vayrona bo'lib yotgan maydonga borib qarasa, unda sochlari o'sgan, devonasifat bir yigit o'tirgan emish. Qozi yigitdan:

– Bolam, qayerliksan, bu yerda nima qilib o'tiribsan? – deb so'rabdi. Yigit uni eshik ochgan qizning otasi deb gumon qilib odob bilan:

– Men musofirman, bu shaharda hech kimim yo'q, shu yerda yotibman, – debdi. Qozi:

– Bo'lmasa, menga xizmatkor bo'lib yurasanmi, ovqating ham bemalol bo'ladi, vaqti kelsa uylantirib ham qo'yaman, – debdi.

Yigitning es-hushi eshik ochgan qizda ekan-u: "Uylantirib qo'ymasang ham o'sha qiz sening qizing bo'lsa, uzoqdan ko'rib yursam mayli" deb, qoziga:

– Xo'p, sizga xizmatkor bo'lsam yaxshi bo'ladi, – debdi. Qozining uyida yurib, kunduzi ishlasa, kechasi uxlamay tong ottirib chiqibdi.

Qozi: "Bu yigitda qanday sir bor ekan", deb o'ylabdi. Yigitdan:



— O'g'lim, nega kechasi uxlamay tong otguncha yurib chiqasan? — deb so'rabdi.

Yigit gadoylik qilib yurganda eshik ochgan bir qizga oshiq bo'lib qolganini, o'shaning xayolida uxlay olmasligini aytib beribdi. Qozi yigitga:

— O'g'lim, hech tashvish tortma. Men bir hiyla bilan senga qizni olib beraman, o'n kun sabr qil, — debdi. O'n kun o'tibdi. Qozi yigitni bir uyga olib kirib, yangi tikilgan sarpolarni kiygizib bo'lgach, yigitga aytibdi:

— O'g'lim, endi tayyorlab qo'yilgan otni min, mana bu xatni qo'lingga ol. Bu xat podsho nomidan sen sevgan qizning otasiga yozilgan.

Podsho boshqa shaharda turadi. Hozir seni shahar darvozasidan chiqarib qo'yaman. Men bugun qizning otasinikida bo'laman. Sen shoshilib otni yugurtirib kelasan. Meni tanimagan kishi bo'lib, xatni qo'linga berasan, u yog'ini o'zim bilaman, — debdi.

Qozi yigitni shahar darvozasidan chiqarib qo'yibdi. Yigit peshin paytida shaharga kirib, dastlabki kelgan kunlarida gadoylik qilib borib, behush bo'lib yiqilgan eshikni taqillatibdi. Qizning otasi yigitning savlatini ko'rib, kayfi uchib ketibdi, darrov uni uyiga olib kiribdi. Qozi yigitni ko'rishi bilanoq:

— Ey, keling, shahzoda, qayerdan shamol uchirdi? — deb yigitni yoniga o'tqizibdi. Yigit qozining qo'liga xatni beribdi. Qozi xatni o'qib:

— Qulluq, shahzoda, qulluq, — debdi, xatni qizning otasiga uzatibdi. Qizning otasi xatni hurmat bilan olib o'qibdi. Darrov shaharga osh berib, to'y-tomosha qilibdi, qizni yigitga nikoh qilib beribdi.



Yigit qizning yoniga kirish oldida qozi unga:

– Siz mehmonxonada o‘tirib turing, men uyga borib, sizga yaxshi sarpolar olib kelaman, ularni kiyganingizdan keyin, o‘zim fotiha beraman, – deb chiqib ketibdi.

Yigit qozining qilgan ishiga hayron qolib: "Dunyoda bunday yaxshi odamlar bor ekan, qozining bu yaxshiligini sira esdan chiqarmayman, o‘la-o‘lgunimcha xizmatini qilaman", deb, uni kutib o‘tiribdi. Yarim kechada qozi bir bo‘xcha sarpo olib kelib:

– Mana bu dam solingan sarpolarni kiyib qizning oldiga kiring, – debdi. Yigit shoshib-pishib ustidagi yaxshi kiyimlarini yechib qoziga beribdi.

Qozi: "Qo‘sha qaringlar!" deb kiyimlarni olib chiqib jo‘nabdi. Yigit sarponi kiyay deb bo‘xchani ochib qarasa, o‘zining dalvay-dalvay bo‘lib ketgan kiyimlari emish.

Yigit badanidan muzdek ter chiqib, mazasi qochibdi. "Nahotki, qozi menga shunday yomonlik qilsa, men qoziga nima qilgan edim", deb noiloj o‘z kiyimlarini kiyib olibdi.

Qiz uyiga non tilab kelgan gadoy yigitni ko‘rib, hayron qolibdi.

– Siz bu yerga qanday qilib kirdingiz? – deb so‘rabdi. Yigit qizga boshidan o‘tganlarni, qozining qilgan ishlarini so‘zlab beribdi.

Qiz ham yigitni birinchi ko‘rgandayoq yaxshi ko‘rib qolganini aytib, uning kelganiga suyunibdi.

– Parvo qilmang, men sizni qanday qilib topsam ekan? – deb o‘ylab yurgan edim, baxtinga o‘zingiz yetib keldingiz, – debdi.



Darrov yigitga yaxshi kiyimlar kiygizibdi. Ikkisi xursand bo'lib so'zlashib o'tirishibdi. Qiz bu sirni hech kimga bildirmabdi. Qizning otasi ham kuyovni juda hurmat qilibdi.

Kunlardan bir kuni qiz yigitga aytibdi: "Men qozini bir laqillatib, kulgi qilib kelay, boshqa odamlar gaplashib kulishib yurar" debdi.

Qiz juda yasanib, pardoz-andoz qilib, paranjisini qiyshiq yopinib, qozining uyiga boribdi. Qozi mehmonxonada o'tirgan ekan. Kavushini g'irchillatib, uning oldidan ichkari hovliga o'tib ketibdi. Qozi: "Yopiray, buning yurishi shunday bo'lsa, o'zi qanday ekan?" deb o'ylabdi. Shunda qiz ichkaridan qaytib chiqib:

– Assalomu alaykum, qozi pochcha! Men yanglishib ichkari hovliga o'tib ketibman, – debdi. Qozi shoshilib, hovliqib:

– Vaalaykum assalom, menda nima ishingiz bor, qizim. Qani, beriroq keling, – deb chaqiribdi.

– Qozi pochcha, mening sizga arz–dodim bor edi, – debdi qiz.

– Ayting, bolam, ayta bering, – debdi qozi.

– Men usta Oloviddin yog'chining qizlari bo'laman. Otam bilan onam meni juda yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun menga ko'p yerdan sovchi kelsa, onam yoki otam: "Qizimning boshi kal, ko'zi ko'r, qulog'i kar, oyog'i shol, qo'li tutmaydi, ishi bitmaydi", deb meni erga bermaydilar. Sovchi: "Bunday qiz bizga kerak emas", deb qaytib ketadi. Onam menga hazillashib: "Qizim, seni boshimga yostiq qilaman", deydilar. Sirtimdan kulsam ham ichimda kuyaman, amakimning bir kal o'g'li bor,



o'zi yalqov, irkit, bilishimcha, meni shunga berishmoqchiga o'xshaydi. Shuning uchun sizga arzga keldim, — debdi.

— Yoshingiz nechada, qizim? — deb so'rabdi qozi.

— Yoshim o'n sakkizda, qozi pochcha.

— Bay, bay, bay, men o'zim otangiz bilan gaplashaman, — debdi qozi. Qiz:

— Gaplashsangiz gaplashing, taqdir, siz guvoh bo'ling, mana ko'zim, yuzim, qo'limni ko'ring, — deb chachvonini ko'tarib, yuzini qoziga ko'rsatibdi.

Qozi qizning oppoq qo'llarini, oydek yuzlarini ko'rib, og'zi ochilib qolibdi, shoshilib, titrab, qaqshab:

— Qizim, sizning otangiz bilan gaplashmasam bo'lmaydi, albatta gaplashaman, lekin mening ham sizga bir arzim bor, qabul qilsangiz, — debdi.

— Qanday arzingiz bor? — deb so'rabdi qiz. Qozi aytibdi:

— Men sizning xizmatangizda bo'lsam, qabul qilsangiz.

— Qabul qilaman, lekin uchta shartim bor, — debdi qiz: — birinchi shartim, xotiningizni qo'yasiz, men kundoshlikni yomon ko'raman, ikkinchidan, uy-joylaringizni hozirgi xotiningizga xat qilib berasiz, uchinchidan, menga atab yaxshi hovli olasiz.

Qozi qizning qo'ygan shartlarini bajarishga rozi bo'lib, qasam ichibdi. Qiz, "Xayr" deb eshikka chiqib ketaturib to'xtabdi, qayrilib qoziga:



– Tag'in otamning gapiga uchib, aynib qolmang, – deb kulib qo'yibdi. Qozi:

– Agar yer yuzining odami guvohlikka o'tsa ham ishonmayman, hamma aytganlaringizni qilaman, – debdi.

Qozi ichkariga kirishi bilan xotini tagiga ko'rpacha solish uchun o'rnidan turibdi. Qozi:

– Xotin, xotin, seni qo'ydim, – debdi. Xotini:

– Voy o'lay, u nima deganingiz? – debdi. O'g'li ham:

– Ota, sizga nima bo'ldi? – debdi. Qozi:

– Onangni qo'ydim, sen ham uqib ol! – debdi.

Shu paytda uydan chiqib ketib, ikkita domlani boshlab kiribdi. Xotini qo'ygani haqida taloq xatni yozdiribdi. Hovli-joyini xotiniga xat qilib beribdi. Ikkita odam yuborib, usta Oloviddin yog'chini olib keltiribdi. Usta Oloviddin, "Qozi meni nimaga chaqirdi ekan, qarzga bergan pulini qistasa kerak", deb qo'rqib, xayol surib kelibdi. Qozi uni juda izzat qilib, qalin og'aynidek kutib olibdi. Oldiga turli mevalar, taomlar qo'yibdi. Dasturxondan keyin qozi sekin so'z boshlabdi.

– Usta, mening sizga bir arzim bor, – debdi.

Usta: "Qozi bergan qarzini so'rab qoladimi?" deb xavotirlanib:

– Taqsir, – debdi, – nima arzingiz bo'lsa bajon-u dil qabul qilaman. Qozi:

– Meni kuyovlikka qabul qilsangiz, – debdi. Usta hayron qolib:

– Taqsir, meni mazax qilayotibsizmi? Mening qizimni birov maqtagandir. Bunday gapni menga gapirmang. Qizimning boshi kal, oyog'i shol,



ko'zi ko'r, qo'li tutmaydi, ishi bitmaydi, bir dardi bedavo, xudoning maxluqi, — debdi.

Qozining jahli chiqib: "Nima bo'lsa ham olaman, qizingni bersang berding, bo'lmasa, pulimni ijarasi bilan berasan", debdi. Usta rozi bo'lib:

— Taqsir, keyin mendan xafa bo'lmaysiz, — debdi. Qozi juda xursand bo'lib:

— Ish degan bunday bo'ladi, mana bu to'y pulingiz, — debdi. Ustaga besh yuz tilla pul beribdi. Usta qozidan bergan pulini qaytib olmaslik uchun so'z olibdi. Usta uyiga borib:

— Xotin-xotin, qizimizning taxti bo'lmasa ham baxti bor ekan. Qozi bizga kuyov bo'ldi, mana bu qalin puli, — debdi. Besh yuz tillani xotiniga ko'rsatib, bo'lgan voqeani xotiniga aytib beribdi.

Bir necha kundan keyin qozi yurtga osh berib, to'y qilibdi. Nikoh kechasi qizni ikki kishi zambilda olib kirib qozining ro'parasiga qo'yibdi. Qozi nima ekanini bilmay hayron bo'lib tursa, zambilda bir narsa qimirlabdi. Qozi o'rnidan turib: "Bu nima ekan", deb ochib qarasa, bir majruh qiz yotgan emish, qosh-ko'zi ham bilinmas emish. Qozining kayfi uchib, uydan qochib chiqibdi, ustani chaqirib keltiribdi. "Qizingni olib ket!" debdi. Usta:

— Ha, xushtorlik shundaqami? Men butun aybini aytib berganman. Endi nima qilsangiz qilavering! — debdi. Qozi yalinib-yolvoribdi, olib ketishini so'rab yana besh yuz tilla berib, qizni uyidan jo'natibdi.



Bu xabar butun shaharga tarqalibdi. Bu voqeani uddaburon qizning otasi eshitib, uyiga kelib hikoya qilib beribdi.

– Qozini bir qiz aldabdi-ya, xo‘p qiziq bo‘libdi, – deb so‘zini tugatibdi u. Qiz otasiga:

– Qozining bizda xusumati bor edimi, ota? – deb so‘rabdi. Otasi:

– Seni bir so‘ratganda bermagan edim, shundan beri menga yomon ko‘z bilan qarab kelar edi. Ajab bo‘ldi, yurt ichida ikki pullik obro‘si qolmadi, – debdi.

Qiz bu yigitning musofirligi, bu shaharga kelishining sababi, ikkovi bir-birini sevib qolganligi, qozining qilgan makr-u hiylasi, qozining qilmishiga qarshi o‘zining qilgan ishlarini otasiga gapirib beribdi. Otasi:

– Mayli, bolam, seni bersak shunday yigitga berar edik-da, qo‘sha qaringlar, – debdi.

Yigit qiz bilan murod-maqsadiga yetibdi.

TILLA KOKIL

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir podsho bor ekan. U podsho ovga chiqib ketayotsa, uzoqdan bir qizil narsa ko‘rinibdi. Podsho ikki vaziri bilan borib qarasa, qip–qizil gulning tagida uchta pari qiz o‘tirgan emish. Podsho qizlarga aytibdi:

– Sizning hunaringiz bormi? Biri:

– Men shu qizil guldand bichib, to‘n tikaman, – debdi. Yana biri:

– Men osmondagi qushdan nusxa olaman, – debdi. Yana biri – podsho xushtor bo‘lib qolgan qiz aytibdi:



– Men uchar qushdan nusxa olaman ham tilla kokilli o'g'il tug'ib beraman, – debdi. Podsho qizlarni shahriga olib borib ikkisini ikki vazirga olib beribdi. O'zi "Tilla kokilli o'g'il tug'aman", degan qizni olibdi. El-yurtga to'y beribdi. Qizning bo'yida bo'libdi. Kundan kun, oydan oy o'tib, oy-kuni yaqinlashibdi. Buni bilgan kundoshlari bir shum kampirni chaqirib, unga: "Kundoshimiz tilla kokilli o'g'il tug'sa, uning bolasini yo'q qilasan. Senga hammamiz bir tovoqdan tilla beramiz", debdi.

Kampir podshoning kichik xotini tug'moqchi bo'lib turganda, ikkita kuchukvachchani olib kelib uning yoniga qo'yibdi. Tilla kokilli bolani bir cho'l-biyobonga olib borib tashlabdi. Podsho xotining to'lg'oq tutganini eshitib, suyunib ovdan qaytib kelayotlsa, kampir uchrabdi.

– Xotinim nima tug'di? – deb so'rabdi.

– Xotiningiz ikkita kuchukvachcha tug'di, – debdi kampir.

– Bo'lmasa, xotinim bilan bolani zindonga tashlansin, – deb podsho xotini bilan kuchukni zindonga tashlatibdi.

Cho'l-biyobonga tashlangan bolani bir kiyik kelib to'rt yoshgacha emizibdi. So'ngra kiyik "Meni otib o'ldirib qo'ymasin", deb qochib ketibdi.

Bola tentirab yurib-yurib bir kuni otasining o'rdasiga borib qolibdi. Podshoning xotirlari ko'rib, kampirga:

– Tilla kokilli bola kelib qoldi, bolani tezda yo'q qilib yuboring. Hammamiz bir tovoqdan tilla beramiz, – debdi. Kampir bolani bitta eski sandiqqa solib, daryoga oqizib yuboribdi. Bola



sandiqda kun ham oqibdi, tun ham oqibdi. Bir baliqchi daryo bo'yida baliqqa qarmoq solib o'tirgan ekan, sandiqni ko'rib qolib, astagina suvdan tortib olibdi. Sandiqni ochib qarasa, ichida paxtadakkina tilla kokilli bir bola yotgan emish.

Bolani uyiga olib kelib, tarbiyalab, katta qilibdi. Bola bir kuni daryo bo'yida ov qilib yurganida juda ko'p g'oz, o'rdaklarni tutib olibdi. Bittasini ham o'ldirmabdi. Bir o'rdak daryoning u yog'idan-bu yog'iga suzib yurgan emish. Bola bu o'rdakni hech tutolmay: "Endi qushimni solib olaman" deb turgan ekan, daryoning narigi yog'ida basavlat bir odamni ko'ribdi. Bola uni ko'rib "Shunday otang bo'lsa", deb orzu qilibdi. U yoqdan podsho esa suqsurday yigitni ko'rib "O'g'ling bo'lsa, shunday bo'lsa", debdi. Xullas, bir-birlariga mehrlari tushib qolibdi. Tilla kokilli bola "Kiyimlarim yirtiq", deb uyalib, uyiga kirib ketibdi. Podsho bola tomonga o'ta olmay: "Shu bola oldiga bora olmadim. Shu bola o'ldirsa o'lganimni ham bilmas edim", deb uyiga kelibdi. Tilla kokil uyiga kelsa, uyida bir kampir kelib o'tirgan emish. Kampir tilla kokilni ko'rib:

– Bolam, o'zingiz xuddi podshoning o'g'lidek ekansiz. Sizga bir Guliqahqah bo'lsa yaxshi bo'lar edi, – debdi. Tilla kokil:

– O'sha Guliqahqah qayerda bo'ladi? – deb so'rabdi. Kampir bolaga:

– Guliqahqah falon joyda bo'ladi, – debdi. Tilla kokil Guliqahqahni qidirib ketibdi. Qidirib ketaveribdi-ketaveribdi. Charchab bir joyga borib o'tirsa, unga bir chol:



— Qush uchsa qanoti, odam kelsa oyog'i kuyadigan bu joylarda nima qilib yuribsan, bolam? Kim seni bu yerlarga yubordi? — debdi. Bola:

— Meni bir kampir yubordi, — debdi.

— Bolam, bo'lmasa o'zingga ehtiyot bo'l, zinhor-bazinhor bu yo'ldan yurmay, ana u yo'ldan yur, — debdi.

Bola ketaveribdi, yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Bir joyga borsa, bir kishi maysa ustida namoz o'qib o'tirgan ekan. Bola ham borib o'sha kishi yoniga o'tiribdi. U kishi namozni o'qib bo'lgach, bola unga salom beribdi. Chol:

— Bu yerga kelib salom berganing uchun mana bu yerda o'tir, — deb bir o'raga solib, o'raning ustiga bir taxta qo'yib bekitibdi. Shu yerdagi devlar uyg'onib qolib: "Uf-fa, odam isi kelyapti, e, buva, odam isi kelyapti", deb u yoq-bu yoqni qidirishibdi, hech kimni topisha olmabdi.

Bitta dev tishini kavlasa, bir odamning soni chiqibdi. Devlar "O'shaning hidi ekan-da", deb tag'in uxlab qolishibdi. Chol Tilla kokilni o'radan olibdi. Bola bir uyga kirsa, Guliqahqah kulib yuboribdi. Hamma yoq gullola bo'lib ketibdi. Chol Guliqahqahdan bir juft olib Tilla kokilga beribdi. Tilla kokil Guliqahqahni olib uyiga borsa, haligi kampir o'tirgan emish. Kampir o'z-o'ziga "O'lmabdi, endi qirq qozonga buyuray", debdi. Bolaga aytibdi:

— Qani endi bu Guliqahqahga qirq qozon bo'lsa, — debdi. Bola:

— Qirq qozon qanaqa? — deb so'rabdi. Kampir:



– Bolam, bir qo'y go'shtini solib qo'ysang, bir yilgacha qirq qozonda qirq xil taom pishib turadi. Qaysisini xohlasang, o'shani olib yeysan. Bir yilgacha tamom bo'lmaydi, yilda bir qo'yni so'yib olsang, uni yeb tursang ado bo'lmaydi, – debdi. – O'sha qozonni olib kelsang Guliqahqah xursand bo'ladi, – deb aldabdi. Tilla kokil ham Guliqahqahni bir pana joyga qo'yib, o'zi yo'lga chiqibdi. Yo'lda unga yana avvalgi chol yo'liqibdi:

– E, bolam, yo'l bo'lsin, qayoqqa borasiz? – debdi. Bola:

– E, ota, meni bir kampir yo'lga solyapti. Qirq qozon degan narsa bo'lar ekan, shunga ketayotibman, – debdi. Chol:

– E, bolam, o'sha kampir sening dushmaning ekan. To'g'ri yo'ldan ketaver. Bir qora tosh bor, o'shani sal ko'tarib ko'r, suv chiqsa, sekin joyiga tashlab, orqangga qayt. Agar qon chiqsa, toshni ko'tarib boq! "Qirq qozonning haqiga shu qozonni mening yurtimga olib borib qo'yinglar", desang qozonni qirqta dev qulog'idan ushlab, aytgan joyingga olib borib qo'yadi, senga ziyon qilmaydi, – debdi.

Tilla kokil ketaveribdi-ketaveribdi, bir joyga borsa bir uy turgan emish. Uyning ichiga kirib qarasa, bir tosh turgan emish. Toshni sekin ko'tarib ko'rsa, bir chetidan qon chiqib ketibdi. Darrov toshni ko'tara solib, "Qirq qozonning haqiga shu qozonni mening yurtimga olib borib qo'yinglar", debdi. Devlar qozonni olib borib qo'yibdi. Borsa yana kampir o'tirgan emish. Kampir: "Voy, shunda ham o'lmabdi. Endi bir



joyga yuborayki, o'n jonidan bir joni ham qolmasin", debdi. Bolaga:

– Endi, bu Guliqahqahga, qirq qozonga oynayi jahonnoma bo'lsa, hamma yurtlardagi narsalarni, podsholarning joylarini ko'rib turar edingiz, – debdi. Tilla kokil ham uning gapiga kirib, oynayi jahonnomani izlab ketibdi. Yo'lda yana chol uchrabdi.

– Tag'in qayoqqa ketyapsan, bolam? – deb so'rabdi. Tilla kokil aytibdi:

– Oynayi jahonnoma degan narsa bo'lar ekan, o'shani olib kelgani ketayotibman, – debdi. Chol:

–Bo'lmasa mana shu yo'ldan yur, yo'lda bir chinor bor. O'sha chinorning ustida qush bola ochgan. Tagida bir ajdar bor, shu ajdar qushning bolalarini yegani chiqqanda, mana shu tosh bilan peshonasiga qarab ur. O'lsa, unda qush seni murodingga yetkazadi, – debdi.

Tilla kokil chol ko'rsatgan yo'ldan yuribdi. Chinorning tagiga borib yotsa, bir ajdar og'zidan olovini sohib, daraxtga o'ralib, qushlar turadigan shoxga chiqib ketayotgan emish. Tilla kokil chol bergan tosh bilan ajdarning peshonasiga bir uribdi. Ajdar tap etib, daraxtdan tushibdi. Qush bolalarining oldiga kelsa, ajdar o'lib yotgan emish. Qush bolalaridan: "Ajdarni kim o'ldirdi?" deb so'rabdi. Bolalari: "Anavi kishi o'ldirdi, biz qutuldik", deyishibdi. U qush Tilla kokilga: "Tila tilagingni, beray murodingni", debdi. Tilla kokil: "Oynayi jahonnomani olib kelishga yordam bersang", debdi. Qush:



– Qattigʻidan tutding-ku, boʻlmasa mening ikki oyogʻimni mahkam ushla. Men uchib, bulutlarning ustiga olib chiqaman. Oʻsha bulutning ustida bir qoʻychivon bor. Oʻsha qoʻychivonning boshi yoʻq bir qoʻyi bor. Oʻsha qoʻyni undan tilab ol. "Buning boshi yoʻq, qay yeridan soʻyadi", deb soʻra. Qoʻychivon: "Sen qoʻyni haydab tur, men soʻyib beraman", deb senga qoʻy haydaydigan tayogʻini beradi. Shu tayoqda oynayi jahonnoma bor. Olganingdan keyin, sekin mening oldimga kel, seni uchirib ketaman, – debdi. Tilla kokil qushning aytganini qilibdi.

Qush Tilla kokilni uchirib joyiga olib kelib qoʻyibdi, ozgina patidan berib "Qachon boshingga mushkul ish tushsa, shuni kuydirsang yetib kelaman", deb uchib ketibdi. Bola eson-omon uyiga kelibdi.

Bir kun Tilla kokil ovga chiqsa, otasi podsho ham narigi tomonda ov qilib yurgan emish. Tilla kokil daryoning bu yogʻida ov qilib yuribdi. Daryoning oʻrtasida bir oʻrdak yurgan ekan. Podsho uni koʻrib, Tilla kokilga:

– Qushni soling, oʻgʻlim, qushni soling, – deb qichqiribdi. Tilla kokil:

– Yoʻq, avval kattadan, keyin kichkinadan, – debdi. Podsho uch marta qush solsa ham ovni ololmabdi. Tilla kokil bir marta qush solishi bilan oʻrdakni tutib olibdi. Tilla kokil podshoga aytibdi:

– Endi bu oʻrdakni siz oling, – debdi. Podsho:

– Yoʻq, oʻgʻlim, ov sizniki, men olmayman, – debdi. Bola:



– Ov olmasangiz, bizning uyga mehmon bo'ling, men sizga o'rdakni pishirib beray, – debdi. Podsho "Xo'p" deb Tilla kokilning uyiga kelibdi. Podsho olovsiz qaynagan qozonda har xil ovqatlar pishib turganini ko'rib hayron bo'libdi.

Tilla kokil podshoning oldiga har xil taomlarni qo'yibdi. Podshoning qushi ipini uzib kelib, taomlarni cho'qib tashlabdi. Podsho:

– E, ahmoq, nimaga bunday qilasan? – debdi. Qush:

– Ey, podsho, siz ahmoqmi, men ahmoqmi?!

O'zingizning bolangizni tanimay o'tiribsiz-ku, – debdi. Podsho hayron bo'lib, choldan:

– Bu bola o'zingizning o'g'lingizmi? – deb so'rabdi.

– Yo'q, taqsir, daryoda bir sandiq oqib keldi. Men uni suvdan chiqarib, ochib qarasam, shu bola yotibdi. Orqasida tilla kokili bor, buni tarbiyalab katta qildim, – debdi. Podsho suyunib, yig'lab:

– Sen mening o'g'lim ekansan, – debdi. Jodugar kampir ham shu yerda ekan. Undan surishtirsa, kampir aytibdi:

– Xotinlaringiz bir tovoqdan tilla berishdi. Men bolani cho'lga tashlab keldim. Bola uch-to'rt yoshligida o'rdaga kelib qoldi. Yana tilla berishdi, men bolani daryoga oqizdim.

Podsho g'azab bilan xotinlarini yig'dirib kelibdi. Ularga:

– Oshpichoq kerakmi, qirq biya kerakmi! – debdi. Xotinlari:

– Oshpichoqni nima qilamiz, biya kerak. Sog'ib, qimiz ichib yuramiz, – deyishibdi. Podsho ikki xotini bilan ayyor kampirni otning



dumiga bog'lab yantoqma-yantoq olib yuribdi, go'shtlarini burda-burda qilib yuboribdi. Tilla kokilni uyiga olib kirib, taxtiga o'tqazibdi. Cholni vazir qilib, o'zi "Endi bolamning davlatida o'tiraman", debdi. Podshoga Tilla kokil:

– Mening onam qayerda? – debdi. Podsho:

– Zindonda, – debdi. Tilla kokil:

– Zindondan onamni olib kelinglar, – debdi.

Onasi bilan yig'lab-siqtab ko'rishibdi.

Saroydagilarga:

– Parvarish qilinglar, – debdi.

Tilla kokil bir kun oynayi jahonnomaga qarab o'tirsa, bir yurtida shovqin-suron emish. Qanday shovqin-suron desa, o'sha yurt podshosining juda chiroyli qizi bor ekan, podsho qizini bir baland arkning ustiga chiqarib qo'yibdi: "Kimki tepaga chiqib, shu qizimning uzugini qo'lidan olsa, o'shanga qizimni beraman", debdi.

Tilla kokil: "Men shu oynayi jahonnomada ko'ringan qizni olaman", debdi. Darrov qushning patini tutatibdi. Qush yetib kelibdi. Tilla kokil qushning oyog'iga mahkam yopishib olibdi. Qush uchib borib, podshoning qizi oldiga tushibdi. Podshoning qizi Tilla kokilni sevib qolibdi. Qizga Tilla kokil aytibdi:

– Shu qushning oyog'iga ikkovimiz yopishib olaylik, mening yurtimga olib borib qo'yadi. Podshoning qizi ham qushning oyog'iga mahkam yopishib olibdi. Qush Tilla kokilni yurtiga olib kelib qo'yibdi.

Tilla kokil qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib, qizni nikohlab olibdi. Qizning otasiga qirq tuya tilla, qirq tuya mol berib yuboribdi. Qizning otasi qizi bilan kuyovini



chaqirib, bir necha kun to'y-tomosha qilib beribdi.

Tilla kokil davr-davron surib, murod-maqsadiga yetibdi. Siz ham yeting murodga, biz ham yetaylik murodga, yomon qolsin uyatga.

KULSA- GUL, YIGLASA- DUR

Bir chol bilan kampir bor ekan. Chol daladan o'tin terib kelib, uni sotib tirikchilik qilar ekan. Chol bilan kampirning farzandlari yo'q ekan. Kunlardan bir kuni chol daladan o'tin olib kelayotganda, unga Xizr yo'liqib:

– Bolang bormi? – deb so'rabdi. Chol:

– Yo'q, – debdi.

Xizr unga bir qizil olma berib:

– Yarmini o'zing, yarmini xotining yesin! Keyin xotining qiz tug'adi. Qizing yig'lasa, ko'zidan gavhar to'kiladi, kulsa, og'zidan ochilgan gul tushadi, yursa oyog'i tagidan tilla sochiladi. Katta bo'lgandan keyin ozor chekadi, – debdi.

Xizr aytgandek, onadan bir qiz tug'ilibdi. Yig'laganida qizning ko'zidan gavhar to'kilibdi. Uch oylik bo'lganidan keyin kulsa, og'zidan ochilgan gul ham to'kilar emish. Shu gavharlarni, shu gullarni otasi bozorga olib borib sotib, uylar qurib olibdi.

Qiz o'n besh yoshga kirganda Buxoro podshosining o'g'lidan sovchi chiqibdi. Unga otasi ancha vaqtgacha bermay yuribdi. Podsho zo'rlik qilib olmoqchi bo'libdi. O'tinchi oxiri qizini shahzodaga berishga majbur bo'libdi. Lekin ko'p qalin so'rabdi:



– Yuzta sigir, yuzta tuya, ikki yuzta ot va ming tilla bersa qizimni beraman, – debdi. Sovchilar "Xo'p", deb ketishibdi.

"Bermas qizning qalini ko'p" deganday, o'tinchi xotiniga aytibdi:

– Men ulardan ko'p qalin so'radim, ular olib kelmaydilar.

Bir necha kun o'tgach, o'tinchi qizi uchun so'ragan narsalarni sovchilar olib kelibdilar. Podsho bir aravada ikki erkak, yana bir aravada ikki ayol yuboribdi. Ular bilan ikkita otliq ham bor ekan. Qiz bilan birga boradigan odam yo'q ekan. Ikkinchi aravadagi ikki ayolga qizni qo'shib jo'natibdilar. Qiz va uni olib ketayotganlar yarim yo'lga yetganda bir quduq yonida to'xtabdilar. Aravadan tushib dam olibdilar, qiz suv ichmoqchi bo'libdi.

Ikki ayolning biri qiz ekan. Yonidagi onasi ekan. Xotin erkaklarni nariroqqa yuborib, "kelin qochmasin" deb, o'zi va qizi kelin bilan birga qoliodi. Shunda suv ichib, non yemoqchi bo'libdilar. Qiz xotindan:

– Menga ham non bering, – deb so'rabdi.

Xotin:

– Bir ko'zingni o'yib bersang, bir non beraman, – debdi. Qiz hayron bo'libdi. Indamay o'tiribdi. Qizning qorni juda och ekan, u toqatsizlanib yana non desa, xotin avvalgi gapini qaytaribdi. So'ngra qizga shaftoliday non berib, uning ko'zini o'yib olibdi. Keyin qiz yana non so'rabdi.

– Yana bir ko'zingni bersang, non beraman, – debdi xotin.



Oxirida u qizning qimmatbaho kiyimlarini yechib olib, o'z qiziga kiygizibdi. Keyin kelinning o'rniga qizini aravaga o'tqazibdi, kelinni esa quduqqa itarib yuboribdi. Keyin ular yo'lga tushib ketibdi. Podshoning uyiga ikki chaqirim qolganda, podsho bir otliqni yuborib:

– Kelinni kelgan joyida aravadan tushirib, piyoda olib keling. Oyog'idan sochilgan tillani lashkarlar terib kelsin, – debdi.

Yasovullar podshoning aytganicha kelinni piyoda olib kelibdilar. Lekin uning oyog'idan hech qanday tilla sochilmabdi. Podsho buni bilib juda ham xafa bo'libdi:

– Voy, uyim kuydi, oyog'i tagida tilla yo'q-ku!

Kelin kelgach, uni uyga kiritibdilar. Ketidan yerga qarasar, oyoq tagida hech narsa yo'q emish.

Kuyov uyga kiribdi, kelinni kuldirsa, og'zidan gul ham sochilmabdi, yig'latib ko'rsa, ko'zidan gavhar ham tushmabdi.

Kuyov o'rnidan turib otasining oldiga chiqib:

– Ey, ota, uyimiz kuydi. Siz menga "Kulsa, og'zidan gul sochiladi, yig'lasa, gavhar to'kiladi, yursa, oyoq ostidan tilla sochiladi", degan edingiz.

Men olib bergan keliningizni yig'latdim, kuldirdim, yurgizdim, hech narsa bo'lmadi, – debdi.

Endi ikki og'iz so'zni qizdan eshiting. Bir kambag'al yo'lovchi quduq yonidan o'tayotib, qiziq hodisaga duch kelibdi. Quduq o'rnida gavhar supa paydo bo'libdi. Quduqqa tashlab ketilgan qizning ko'zidan to'kilgan gavhar bilan



quduq to'lib, uning ustida ko'zi o'yilgan bir chiroyli qiz o'tirgan emish. Yo'lovchi chol hayron bo'lib, qizning holini so'rabdi. Qiz boshidan o'tganlarni aytib beribdi. Ikkisi ota-bola tutinibdi. Qiz chol otasiga:

– Mening ko'zimdan to'kilgan gavharlardan shu yerga bir bino soldiring, – debdi. Chol:

– Xo'p, – debdi. Bir paxsasini oltindan, bir paxsasini kumushdan qilib bir bino solibdi. Chol qizni qo'yarda-qo'ymay uyiga olib ketibdi. Qiz bir necha oy cholning uyida yurgandan keyin, bir kuni kulibdi, uning og'zidan ochilgan gul tushibdi. Otasi juda ham sevinibdi. Qiz:

– Ota, shu gulni podshoning darvozasiga olib boring, gulning bahosini so'rasha, bahosi ikki o'yilgan ko'z deb ayting, – debdi. Chol podshoning darvozasi yoniga borib o'tiribdi. Darvoza oldidagi xizmatchilar podshoning oldiga kirib:

– Bir kishi gul olib kelib o'tiribdi, – debdilar.

Podsho gulni oldirib kelib, keliniga berib yuboribdi-da, choldan bahosini so'rabdi, shunda chol:

– Gulning bahosi o'yib olingan ikki ko'z, – debdi.

Buni eshitgan podsho ichkariga kirib kelinga aytibdi. Kelin qutida turgan ikki ko'zni olib:

– Bizga buning nima keragi bor? Mana, berib yubora qoling, – debdi-da, onasidan so'ramay berib yuboribdi. Haligi chol sevinib ko'zlarni olib ketibdi.

Olib borib qiziga beribdi. Qiz quvonib:



– Ota, siz eshikka chiqib turing, eshikni mahkam yopib qo‘ying, – debdi.

Eshik yopilib, uyda yolg‘iz qizning o‘zi qolganda, tuynukdan bir ko‘k kaptar uchib kirib bir silkinibdi-da, odam suratiga kiribdi. U qizning ko‘zini o‘z o‘rniga qo‘yibdi va bir dumalab kaptar holiga kelib uchib ketibdi. Shundan keyin qizning ko‘zi butunlay ochilib ketibdi. Sevinchidan qiz qichqirib yuboribdi. Qizning ota-onasi ham uyga kirib sevinibdilar. Oradan bir oy o‘tgach, qiz ertalab o‘lib, kechqurun tiriladigan bo‘lib qolibdi.

Endi ikki og‘iz so‘zni podshonikidan eshiting. Qizning onasi yangi gulni ko‘rib qolibdi. Qiziga:

– Gulni qayerdan olding? – debdi.

– Gulni ikki o‘yilgan ko‘zga alishtirib oldim, – deb javob beribdi qiz.

– Ie, bo‘lmasa, quduqdagi qiz o‘lmagan ekan-da, bu gul o‘shaniki. Endi sen ham o‘lasan, men ham o‘laman, – debdi onasi. Keyin u qizini qarg‘ab, chiqib ketibdi. Kampir folbinnikiga borib, fol ochtiribdi:

– Daryoning ichida bir oltin baliq bor. Baliqning ichida buloqi bor. O‘sha buloqini topib olsang, quduqda qolgan qizning jonini olgan bo‘lasan, – debdi.

Kampir podsho saroyiga kelib, kuyovini bir chetga chaqiribdi:

– Xotiningiz homilador, baliqqa boshi qorong‘i. Daryoning ichida bir oltin baliq bor, shuni tutib bering! – debdi.

Shahzoda navkarlariga buyurib, daryoning suvini oldirib, uning ichidagi katta oltin baliqni tuttirib kelibdi. Kampir uning ichidan buloqini



topib olibdi. Podshoning kelini buloqini burniga taqibdi. Kelin kunduzi buloqini taqqanda, quduqda qolgan o'tinchining qizi o'libdi, kechqurun burnidan buloqini olib qo'yganda tirilibdi. Shunday ahvolda bir qancha vaqt o'tibdi. O'tinchining qizi bu holga chiday olmay xafa bo'lib tilladan solingan uyga borib yotibdi.

Kunlardan bir kun shahzoda ov ovlab yurib, shu atrofga kelib qolibdi. Uning uchirgan qushi bir quyonni quvlab kelib, tilla binoning ustiga qo'nibdi. Shahzoda o'sha yerda nima bor ekan, qushim borib qo'ndi, deb qarasa, bir tilla imorat ekan. Uning ichiga kirishga qo'rqibdi, yonidagi yigitga:

– Sen kir, bunda nima gap ekan? – debdi.

Yo'ldoshi kirib, qo'rqib qaytib chiqibdi. Keyin shahzodaning o'zi kiribdi. Kirsa, bir chiroyli qiz hushsiz bo'lib yotganmish. Shahzoda uning yonida qizning kelishgan qaddi-qomatiga mahliyo bo'lib o'tiribdi. Shu holda kech bo'lganini bilmay qolibdi. Kech bo'lishi bilanoq, qiz birdan aksirib o'rnidan turibdi. U yigitni ko'rib:

– Siz kimsiz? – debdi.

Yigit ham qizga:

– Siz kimsiz, bu yerda nima qilib yotibsiz? – debdi.

Qiz yigitga boshidan o'tganlarini birma-bir so'zlab beribdi. Shahzoda qizning voqeasini eshitib bo'lgandan keyin birdan:

– Voy, jonim, sen menga unashtirilgan qiz ekansan-ku! Men sening dardingda kuyib yurgan edim. Sen aytgan podsho mening otam bo'ladi, – debdi. Shahzoda qizdan:

– Nima qilsam sen tuzalasan? – deb so'rabdi.



– Mening jonim daryodagi bir baliq ichidagi buloqida edi. U baliqni siz tuttirganingizdan keyin xotiningiz ichini yordirib buloqini olgan. Shu buloqini xotiningiz kunduzi taqqanda men hushsiz bo‘lib qolaman, o‘lik suratida yotaman, kechqurun burnidan olib qo‘yganda o‘zinga kelib tirilaman. U buloqini hozir olib qo‘ydi. Men o‘zinga keldim. O‘sha buloqini olib kelib bersangiz, men tuzalib ketaman, – debdi. Yigit sevinib:

– Buloqini olib kelaman, – deb o‘rnidan turibdi. U otiga minib to‘g‘ri uyiga boribdi. Uyiga kirib tokchadagi buloqini olibdi. Xotiniga aytmasdan, yana orqasiga qaytib kelib qizga topshiribdi. Tong otibdi, lekin qiz kundagidek bugun hushidan ketmabdi. U butunlay sog‘ayib qolibdi. Shahzoda qizni o‘zi bilan birga olib ketibdi. U qirq kecha-qirq kunduz to‘y-tomosha berib qizga uylanibdi.

Kampir bilan uning qizini otning dumiga bog‘lab, qirq chaqirim uzoqlikdagi changalzorga yuboribdi.

Qiz bilan yigit murod-maqsadiga yetibdi.

HAKIM BALIQCHINING O‘G‘LI

Qadim zamonda hakim baliqchi degan chol bor ekan. Hakim baliqchi Changalzor degan bir qishloqdan uzoqroq joyda xotini va bir o‘g‘li bilan kun kechirar ekan. Ular turgan joydan sal nariroqda katta daryo oqar ekan. Chol har kuni erta bilan baliq oviga ketar, ushlagan baliqlari bilan tirikchilik qilar ekan. Ular juda kambag‘al bo‘lgani uchun hech kimga aralasha olishmas ekan, boshqa kishilar ham ular bilan kam



muomala qilishar ekan. Hakim chol bir kuni odatdagicha baliq oviga ketibdi. Daryoga boradigan yo'l jarlik, baland-past bo'lib, yurish juda mushkul ekan. Chol zo'rg'a daryo labiga borib, biroz dam olgandan keyin baliq oviga kirishibdi. Juda ko'p baliq ovlagandan keyin, to'rga oltin baliq tushibdi. Baliqchi chol oltin baliqni qo'liga olib, uni rosa tomosha qilibdi. Keyin uyiga borib o'g'lini chaqirib:

— O'g'lim, mana bu oltin baliqni podshoning vaziriga olib borib ber-da, tezda qaytib kel, — debdi.

Kampir esa nima ish bo'layotganini payqamay qolibdi. Cholning o'g'li baliqni olib chopganicha katta yo'l bilan yurib, podsho saroyiga kirib boribdi. "Podsho nima-yu, vazir nima. Kel-e, podshoning o'ziga bera qolay", deb baliqni podshoga beribdi. Podsho hech narsa demay baliqni olib qola beribdi. Bola chopib uyiga qaytibdi. Baliqchi chol o'g'lidan:

— Baliqni kimga berding, o'g'lim? — deb so'rabdi.

— Podshoga berdim, — debdi bola. Baliqchi chol juda xafa bo'libdi-da, hech narsa demay o'z ishini qilaveribdi.

Ertasi ertalab vazir podsho oldiga kelayotib, katta hovuzda chiroyli oltin baliqni ko'ribdi. Biroz tomosha qilib, podsho oldiga kiribdi. Podshodan: "Hovuzdagi baliq qayerdan paydo bo'ldi?" deb so'rabdi. Podsho vazirga qishloq chetida yashaydigan bir baliqchi cholning o'g'li keltirib berganini aytibdi. Vazir bolaning baliqni unga bermay podshoga berganidan jahli chiqib,



qanday qilib bo'lsa ham bolani o'ldirish payiga tushibdi. Podshoga qarab:

– Podshohi olam, bu baliq yolg'iz bo'lmasa kerak, buning albatta sherigi bo'lishi kerak. Shu baliq hovuzga juda yarashibdi. Shuning uchun bolaga baliqning sherigini topib keltirishni buyuring, – debdi.

Podshoga bu so'z juda yoqibdi-da, shu zahoti cholning oyog'ini yerga tekkizmay huzuriga keltiribdi. Podsho cholga:

– Sen shu baliqni qayerdan olib keltirgan bo'lsang, uning sherigini ham qirq kun ichida topib keltirasan. Bo'lmasa dorga ostiraman, – debdi.

Chol juda xafalanib uyiga qaytibdi. O'g'lini chaqirib:

– Mana, sen baliqni vazirga bermaganing uchun boshimizga juda katta mushkul ish tushdi. Shu qirq kunda oltin baliqning sherigini tutib olib borib podshoga bermasak, ikkovimiz dorga osilamiz, – debdi. – Endi buni bajarmay ilojimiz yo'q. Ikkovimiz birga daryo labiga borib baliq ovlaymiz. Podsho qirq kun muhlat berdi, – debdi.

Chol o'g'li bilan birga daryo bo'yiga borib biroz dam olgandan keyin baliq ovlashga kirishibdi. Kechgacha juda ko'p oddiy baliqlarni tutishibdi. Lekin oltin baliq uchramabdi. Ota-bola o'ttiz to'qqiz kun baliq ovlashibdi. To'rga oltin baliq ilinmabdi. Chol bilan o'g'li: "Endi podsho bizni dorga osadi", deb juda xafa bo'lishibdi. Qirqinchi kuni ota-bola "Bir kunlik umrimiz qoldi", deb, o'lishlariga ishonib, oxirgi marta baliq oviga borishibdi. Kechgacha ov qilib,



kechqurun bo'lganda to'rga xuddi ilgari oltin baliqqa o'xshash baliq ilinibdi. Ota-bola juda xursand bo'lishibdi. Cholning qo'li qaltirab, ko'zidan yoshi selday tirqirab, o'limdan qolganiga ishonmasmish. Ota-bola uyga qaytishibdi.

Kampir har kundagidek, chol bilan o'g'lim nima olib kelar ekan, deb tomga chiqib kutibdi. Chol bilan o'g'li ko'rinmabdi. "Bugun qirq kun muhlat tamom bo'ldi. Baliqni tutib olib kelishmasa, cholim bilan o'g'limdan ajralar ekanman" deb, tomning u yog'idan-bu yog'iga bezovta bo'lib yuribdi.

Uzoqdan choli bilan o'g'li ko'ringach:

— Oltin baliqni ushladinglarmi? — deb baqiraveribdi. Chol kampir yoniga kelib baliqni ko'rsatibdi. Ertalab bo'lgach, chol baliqni o'g'liga berib:

— Baliqni vazirga ber, — deb tayinlabdi. Bola podsho saroyiga jo'nabdi. Podsho darg'azab bo'lib:

— Bugun qirq birinchi kun, cholni topib kelinglar, — deb buyruq berib turgan ekan. Bola eshikdan baliqni ko'tarib kirib podshoga salom beribdi va baliqni uzatibdi. Podsho sevinib baliqni ilgari baliq yoniga — hovuzga qo'yib yuboribdi.

Bola uyiga qaytibdi.

Ertasiga yana vazir podsho oldiga kelayotib, hovuzda bir emas ikki oltin baliq suzib yurganini ko'ribdi. Podsho oldiga shoshib kirib, baliqlarni tomosha qilishni taklif qilibdi. Podsho bilan vazir bog' oralab yurib hovuz yoniga kelibdi.



Hovuzda bir-biridan chiroyli ikki baliqning suzib yurganini tomosha qilishibdi. Vazir soʻz boshlab:

– Podshohi olam, sizning bogʻingiz juda ajoyib, hech qanday podshoda yoʻq. Endi shu bogʻingizda bir narsa kam, u ham boʻlsa, tilla hovuz, – debdi.

Podsho bir seskanib, keyin xayol surib qolibdi. Vazir:

– Ey, podshohi olam, devlar yashaydigan falon mamlakatda tilla hovuz bor. Suvi buloqdek otilib chiqib turadi. Chetida oltin panjara, oltin kursi, hamma yogʻi oltin bilan qoplangan. Oʻsha hovuzni olib kelib qoʻyilsa, bogʻingiz bundan ham chiroyli boʻladi, – debdi. Podsho:

– Buni kim olib keladi? – deb soʻrabdi. Vazir:

– Baligʻini topib kelgan odam olib keladi-da. Siz bundan gʻam yemang, faqat buyuring, xolos, – debdi.

Podsho odamlariga baliqchi cholning oʻgʻlini tezda topib kelishni buyuribdi. Ikki kishi bolani oʻrdaga olib kelibdi. Vazir bolaga sovuqqina qarab "Endi bola oʻladi" deb, podshoning soʻziga quloq solib turibdi. Podsho bolaga:

– Devlar makonida oltin hovuz bor ekan. Sen shu hovuzni olib kelasan. Agar olib kelmasang, dorga osilasan, – debdi. Bola podshoga:

– Ey, podshohim, hovuzni ham olib kelib boʻladimi? – debdi. Vazir:

– Podshoga gap qaytarma, badbaxt, – deb bolani quvlab chiqaribdi. Bola gʻamgin boʻlib uyiga qaytib kelibdi. Chol bolani koʻrishi bilanoq:

– Oʻgʻlim, baliqni yana podshoga bergan ekansan-da, – debdi.



Bola podshoning buyrug'ini aytibdi. Chol o'ylanib, o'g'liga uzoq tikilib qolibdi-da, keyin:

– O'g'lim, endi podsho seni o'ldirmoqchi bo'libdi. Sen podsho oldiga bor, podshodan bir temir hassa, bir temir kavush, bir necha qo'y, bir necha eshak so'ra! Podsho so'zingni qaytarmaydi. Sen hamma narsani olib yo'lga ravona bo'l. Qo'ylarni boqib, charchagan eshakni qo'yib, yangisiga minib ket, – debdi.

Bola podsho saroyiga borib otasi o'rgatgan narsalarni so'rabdi. Podsho bola so'ragan narsalarning hammasini beribdi. Bola ularni olib yo'lga ravona bo'libdi. U ota-onasidan ayrilib, nima qilishini, qayoqqa borishini bilmay cho'l-u biyobonlarga chiqib ketibdi. Yo'lda qo'ylardan so'yib yeb, charchagan eshakni qo'yib, boshqasiga minib ketaveribdi. Qo'ylar ham oxiri tamom bo'libdi, eshaklar ham yurolmay qolibdi. Bola nima qilishini bilmay, tavakkal deb temir kavushini kiyib, temir hassasiga tayanib ketaveribdi.

Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oyoqlari qavarib, kiyimlari yirtilib ketibdi. Bir qirning tepasiga kelib, charchab uxlab qolibdi.

Bola uyqusida ajoyib bir tush ko'ribdi. Tushida ola chopon kiygan, o'rta bo'yli, oq soqolli bir mo'ysafid kelib bolaning holini so'rabdi. Bola cholga o'zining qayerga, nima uchun ketayotganini, qachondan buyon cho'l-u biyobonlarda sarson bo'lib yurganini birma-bir aytib berib, yig'labdi. Chol:

– Yig'lama, o'g'lim, senga yaxshilik qilaman. Lekin sen aytgan hovuz devlar qo'lida. Buni sen ola olmaysan, – deb bolaning qo'yniga bir dona



yong'oq solib qo'yibdi va: — Mana shu yong'oqni podsho oldiga olib borgin-da, hovuzni qayerga quray, degin. Shunda podsho senga do'q urib "Qani olib kelgan hovuzing", deb joy ko'rsatadi. Sen shu yong'oqni podsho ko'rsatgan joyga qattiq urasan. Hovuz tayyor bo'ladi, o'limdan qutulasan, — deb ketibdi. Bola uyg'onibdi. Shoshib-pishib qo'yniga qo'l solib qarasa, yong'oq turgan emish.

Bola xursand bo'lib badanining, oyoqlarining og'rig'ini ham sezmay, orqasiga qaytibdi.

Bir necha kun yo'l yurib o'z uyiga yetibdi. Qarasa, ota-onasini podshoning ikki odami haydab ketayotganmish. Bola ota-onasini podshoning odamlaridan qutqazib, podsho oldiga o'zi boribdi. Podsho bolaga:

— Qani, hovuzni olib keldingmi? — deb g'azablanib baqiribdi. Shunda bola pinagini buzmay podshodan:

— Hovuzni qayerga quray! — deb so'rabdi. Podsho bolaga:

— Ikkala qo'lingni burningga tiqib kelib, yana uyalmay hovuzni qayerga quray deb so'raysanmi, — deb yana battarroq dag'dag'a qilibdi.

Bu janjalni vazir eshitib, darhol yetib kelib, podshoga:

— Ey, podshohi olam, hovuz bo'ladigan joyni ko'rsating-chi, bola nima qilar ekan? — debdi. Podsho:

— Mana shu yerga qura qol, — deb bog'ning eng chiroyli yeridan joy ko'rsatibdi. Bola qo'ynidan yong'oqni olib, podsho ko'rsatgan yerga bir uribdi.



Darhol tilla hovuz tayyor bo'libdi. Hovuzning atrofi tilla panjara bilan o'ralgan, hovuz o'rtasidan suv qaynab chiqib, har tomonga sochilib turganmish.

Podsho boshi osmonga yetib, baliqlarni shu tilla hovuzga qo'yib yuborishni buyuribdi. Bola ikkala baliqni ushlab hovuzga qo'yib yuboribdi. Bolaning o'lmay qaytib kelganiga vazirning g'azabi kelib, yana bolani biror ishga buyurishni o'ylay boshlabdi. Bola ota-onasi oldiga borib boshidan o'tganlarini aytib beribdi.

Vazir podsho oldiga kirib:

– Ey, podshohi olam, siz mening maslahatim bilan oltin baliq ham tilla hovuzga ega bo'ldingiz.

Endi bog'ingizda yana bir narsa kam, u ham bo'lsa, falon mamlakatdagi pari qizni oldirib keltirsangiz, bog'ingizda kamchilik bo'lmaydi, – debdi. Podsho:

– Bu ishni kim bajaradi? – debdi. Vazir:

– Bu ishni baliqni, hovuzni olib kelgan bola bajaradi-da, – debdi. Podsho tezda bolani topib kelishni buyuribdi. Navkarlar bolani dam o'tmay olib kelishibdi. Podsho bolaga:

– Sen ikkita ishni bajarding, yana bir ish bor. Parilar mamlakatidan pari qizni olib kelasan, – deb buyuribdi.

Bola nima qilishini bilmasdan uyiga qaytibdi. Otasiga podshoning buyrug'ini aytibdi. Shunda o'g'liga qarab:

– Aytganimni qilmay, o'zboshimchalik qilding, vazirga ber, desam baliqlarni podshoga berding, ana endi sendan vazir o'ch olmoqchi. Mayli, yana podshodan bir necha qo'y, eshak,



temir kavush, temir hasa so'rab olib, yo'lga ravona bo'l, —debdi. Bola podsho oldiga borib, otasi o'rgatgan narsalarni so'rabdi. Podsho hamma narsalarni beribdi. Bola qo'y va eshaklarni haydab ketaveribdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, bir qishloqqa yaqin yerga borib qolibdi. Qarasa, yetti yashardan yetmish yashargacha qo'lga nima ilinsa, shuni olib kun chiqar tomonga qarab chopib ketayotgan emish. Bola bu odamlardan "Qayerga ketayotibsizlar?" deb shuncha so'rasa ham hech kim javob bermabdi. Bir mahal yetti yoshli bir bola to'xtab:

— Qishlog'imizning butun mol-mulkini o'g'irlab ketgan o'g'ri ushlanibdi. Shu vaqtgacha uni hech kim tutolmagan edi. Uni tutib olishganiga uch kun bo'ldi. Odamlar shuni o'ldirishga chopib ketishayapti, — debdi.

Bola ham qo'y va eshaklarini choptirib o'sha tomonga ketibdi. Borib qarasa, olomon yig'ilgan, bir yerga dor tikilgan, haqiqatan ham bir odamning bo'yniga sirtmoq solingan; kata-kichik tosh, sopol, ketmon, kosov, shunga o'xshash narsalar ushlab o'g'riga yov nazar bilan qarab turganmish.

Bola qo'y va eshaklarini bir chetga qo'yib, olomon orasidan o'tib, o'g'ri oldiga boribdi. Bu o'g'ri shunday odam ekanki, chopsa ot yeta olmas, qirqta qo'yning go'sht-yog'iga to'ymas ekan. Lekin bo'ynidagi sirtmog'i qattiq bog'langanidan qimiray olmay turgan ekan. Bola o'g'rini dorga osayotgan odamlarga qarab: "O'ldirmanglar, agar o'g'ri bo'lsa, menga sotinglar!" deb qichqiribdi. Avval ko'pchilik olomon o'g'rini sotishga ko'nabdi, "Baribir



yana o'g'rilik qila beradi. Yaxshisi o'ldiramiz", deyishibdi. O'g'rini o'ldirishga qancha urinsalar ham o'ldira olmabdilar. Bola qo'y va eshaklarining hammasini berib, o'g'rini sirtmoqdan bo'shatib olgan ekan, o'g'ri ikki-uch marta xo-xolab kulibdi-da, yo'q bo'lib qolibdi. Bola olomon ichida qo'y, eshaklaridan ajralib, nima qilishini, qayerga borishini bilmay, dovdirab turib qolibdi, tavakkal deb temir kavushini kiyib, temir hassasiga tayanib, bir tomonga qarab jo'nabdi.

O'g'ri qochib ketayotib o'z-o'ziga: "U bola meni nima uchun o'limdan qutqardi. Nima uchun men u bilan so'zlashmay ketayotibman", debdi-da, ketiga qaytib, bolani qidirib topibdi. Bolaga o'zining kimligini bildirmay, undan hol-ahvol so'rabdi. Bola bo'lgan voqeani birma-bir aytib beribdi. Shunda o'g'ri bolani yelkasiga mindirib chopib ketibdi. Tez orada ular baland bir temir qo'rg'on yoniga borib qolibdilar. O'g'ri temir darvozani ochib, ichkariga kiribdi. Qirqta qo'yni so'yib, pishirib yeb, damini olgandan keyin bolaga:

— Men senga pari qizni topib olib kelib beraman. Sen shu yerda tur, — debdi va jo'nab ketibdi.

O'g'ri bir qancha yo'l yurib qizning makoniga yetibdi. Borib sekin eshigini taqillatibdi. Bir dev chiqibdi.

O'g'ri dev chiqishi bilan uni o'ldiribdi. Ichkariga kirib qirqta dev bilan olishib, ularni ham o'ldiribdi. Yana ichkaridagi bir uyga kirsa, bir chiroyli qiz o'tirgan emish. Qiz ko'p vaqtdan buyon odam ko'rmaganligidan uning bu yerga



qanday kelib qolganligini so'rabdi. O'g'ri butun voqeani aytibdi, qizni bolaga olib kelib beribdi. O'g'ri qiz bilan bolaga ketish uchun bir ot berib, jiloviga tegmanglar, debdi.

Bola qizga uni podshoga olib ketayotganini aytibdi. Birdan shamol, to'polon bo'lib qiz yo'q bo'libdi. Osmonda uchta kaptar qizni ko'tarib uchib, tog'dagi g'orga kirib g'oyib bo'libdi. Bola bu holni ko'rib, nima qilishini, qizni qayerdan topishini bilmay qolibdi. Bu voqeani o'g'ri sezib, hash-pash deguncha yetib kelib, boladan kaptarlar qizni qay tomonga olib ketganini so'rabdi. Bola g'orni ko'rsatibdi. O'g'ri g'orga borib:

– Pari, chiq bu yoqqa, – deb qattiq baqiribdi. Ammo pari g'ordan chiqish yo'lini bila olmabdi. O'g'ri qizga chiqish yo'lini o'rgatibdi. Qiz chiqqandan keyin:

– Men keta olmayman, devlar orqamizdan quvlaydi, – debdi. O'g'ri qizga gap o'rgatib:

– Devlar kelgandan keyin ulardan: "Nima uchun odamzodning joni o'zida-yu, devlarning joni o'zida emas. Devlarning joni qayerda? – deb so'ra, aytmasa yig'la. So'ngra aytishga majbur bo'ladi. Uni bilib menga aytasan, – debdi.

O'g'ri bola yoniga qaytib kelibdi. Qiz devlar kelgandan keyin devlardan ularning joni qayerda turishini so'rabdi. Devlar avval shubhalanib, qizni o'ldirmoqchi bo'lishibdi. Keyin maslahatlashib:

– Bu qizning qo'lidan nima ish kelardi, – deb jonlarining qayerda ekanligini aytishibdi:

– O'sha ko'ringan jar yoqasidagi chinor ostida bir buloq bor, buloq ichida sandiq bor. Shu



sandiq ichida bizning jonimiz turadi. Chinorni borib tebratsa, suv ichidan oltin baliq sandiqni dumi bilan chiqarib beradi.

Qiz buni eshitib olib, devlarga sharob quyib berib mast qilibdi. Devlar mast bo'lgan vaqtda o'g'ri kelibdi. Qiz o'g'riga eshitgan so'zlarini aytib beribdi. O'g'ri borib chinorni shu qadar jahl bilan tebratibdiki, chinor qulab ketibdi. Baliq esa dumi bilan bir siltab sandiqni chiqarib tashlabdi. O'g'ri sandiqni buzib, devlarning jonini olib, bola tomonga kelibdi. Shunda devlardan biri "voy belim" desa, ikkinchisi "voy boshim" deb yugurishib o'g'ri oldiga kelib:

– Nima buyursang qilamiz, – deb oyog'iga yiqilishibdi. O'g'ri devlarga:

– Parini hozir topinglar, agar topmasanglar, hammangni o'ldiraman, – debdi.

Devlar parini topib kelishibdi. O'g'ri qizga devlarning jonini berib, bola bilan xayrlashib, ikkovini jo'natibdi.

Bola o'z mamlakatiga yetibdi. Podsho bolaning kelganini eshitib, qizni tezda olib kelib berishni buyuribdi. Bola qizni podshoga berishga rozi bo'lmaganidan keyin, podsho askarlariga bolaning qo'l-oyoqlarini bog'lab olib kelishni buyuribdi.

Askarlar kelib bolaning qo'l-oyog'ini bog'layotganligini o'g'ri sezib qolib, yetib kelibdi. Qiz esa devlarning jonini siqibdi, devlar ham darrov yetib kelibdi. O'rtada qattiq urush bo'libdi. Podsho yengilibdi.

Baliqchi cholning o'g'li mamlakatga podsho bo'lib, pari qizga uylanibdi. O'g'ri esa o'g'riligini



tashlab xizmatga kiribdi. Murod-maqsadlariga yetishibdi.

VAFO

O'tgan zamonda bir yigit bor ekan, u otasidan qolgan mollarning yarmini sarf qilib, bir qizga uylanibdi. Qolgan davlatini xotini bilan yeb yotaveribdi. Davlat kundan-kunga kamayibdi. Kunlardan bir kuni xotini eriga:

– Endi siz bunday bekor yotavermang. Yo qolgan davlatingizni sotib savdogarchilik qiling, yoki biror xizmat qiling, – debdi. Eri:

– Men savdoga ketsam seni qanday yolg'iz qoldiraman. Seni ko'zim qiymaydi, – debdi. Xotini:

– Ko'nglingizni to'q qiling, men siz kelguningizcha uyda o'tiraman, – debdi. Eri noiloj mollarini sotib savdoga ketmoqchi bo'libdi.

Puliga kerakli mollarni olibdi, yo'lga chiqishi oldidan xotini unga bir gul berib:

– Mana shu gulni oling. Agar mening boshimga biror og'ir ish tushsa yoki men biror yomon yo'lga kirib ketsam, shu gul o'sha ondayoq so'ladi. Bo'lmasa hech qachon so'lmaydi, – debdi.

Eri gulni olib safarga chiqib ketibdi. Yo'lda o'g'rilar uchrab yigitning mollarini talab olib ketishibdi. Yigit molsiz, pulsiz o'zining sog'-salomat qolganiga shukr qilib bir shaharga boribdi. Shaharda sarson bo'lib yurib bir imorat qiladigan usta bilan uchrashib qolibdi. Ustaga o'z ahvolini gapiribdi. Usta yigitni o'ziga shogird qilib olibdi. Yigit bir yilda imorat qilishni o'rganib, yaxshi usta bo'lib yetishibdi.



Kunlardan bir kuni usta o'lib, uning o'rniga yigit usta bo'lib qolibdi.

Bir kuni podsho yigitni chaqirtirib, bir katta imorat solib berishni topshiribdi. Yigit podshoga juda chiroyli katta imorat qilib beribdi. Podsho yigitdan xursand bo'lib, ziyofatga chaqiribdi. Yigit bilan gaplashib o'tirib, uning qaydan kelganligini, kimligini so'rabdi-da, o'rdasida ishlashga ko'ndiribdi. Yigit o'rdada ishlay boshlabdi. U tez-tez cho'ntagidagi gulga qarab qo'yar ekan. Vazirlar bu gulning qishin-yozin so'lmaganiga ajablanib, podshoga aytishibdi. Podsho yigitni chaqirib, cho'ntagidagi gulning so'lmaslik sababini so'rabdi. Yigit podshoga xotiniining so'zlarini aytibdi. Podsho kulib:

— Sen ahmoq ekansan, xotinlarning so'ziga ishonib bo'ladimi? Gul berib seni aldabdi-da, — debdi. Yigit xotiniining to'g'riligiga chin ko'ngildan ishonganligini aytibdi.

Kunlardan bir kuni podsho yigitning xotini sinash uchun vazirlaridan birini yuboribdi. Vazir xotin yashagan shaharga kelib qo'shnisidan yigitning xotini bilan uchrashtirishni so'rabdi. Qo'shnisi xotin oldiga vazirni olib kiribdi:

— Qizim, mening bir mehmonim bor edi, o'shani sen uyingda mehmon qilib jo'natsang, — debdi.

Xotin bu sirga darrov tushunib: "Bunda bir hikmat bo'lsa kerak, bularni bir boplay", debdi-da, mehmonni qabul qilibdi. Yaxshi ovqatlar, sho'rvalar, sharoblar tayyorlab uni mehmon qilibdi.



Vazir mast bo'lib qolibdi. Shu paytda yigitning xotini tomonidan tayinlab qo'yilgan qo'shni xotin darvozasini taqillatibdi. Xotin:

– Voy, birov kelib qoldi, darrov mana bu yerga kirib turing, keyin o'zim chaqiraman, – deb vazirni uydagi yerto'laga tushiribdi. Bir necha kungacha vazirni yerto'ladan chiqarmabdi. Podsho birinchi vazirdan darak bo'lmagandan keyin, ikkinchi vazirini yuboribdi. Xotin ikkinchi vazirni ham avvalgidek yerto'laga qamabdi. Podsho ikkinchi vazirdan ham darak bo'lmagandan keyin, o'zi oddiy kiyim kiyib xotinning uyiga kelibdi. U podshoni ham avvalgiday ziyofat qilibdi.

Yigit ishlab yurib xotini esiga tushib gulga qarasa, gul so'lmagan, chiroyli, ochilib turibdi. Ancha qarab o'tirgandan keyin podshoning gapi esiga tushib, "Podshoning aytgan gapi rost bo'lmasin tag'in, bir xotinimdan xabar olib kelay", deb shahriga qaytib, darvozani taqillatibdi. Bu vaqt xotin mast bo'lgan podshoni ham yerto'laga qamab turgan ekan. Qarasa, eri kelib qolibdi. Suyunib uyga olib kiribdi. Eri uydagi ovqatlarni ko'rib ahvolni so'rabdi. Xotin:

– Siz kelguncha bir qiziq ish qildim, mana shu odamlar kelaverib meni bezor qilishdi. Men ularni qamab qo'yaverdim. O'zingiz ulardan sababini so'rang. Mana, ko'ring, – deb yerto'lani ochib uchovini chiqaribdi. Yigit ularning uchovini ham tanibdi:

– Podsho bo'lib turib shunday ish qilgani uyalmaysizmi? – debdi. Podsho:



– Xafa bo'lma, biz xotiningni sinamoqchi bo'lib, shu ahvolga tushib qoldik. Sening xotining haqiqatan ham to'g'ri xotin ekan. Ikkovingiz qo'sha qaring, – deb jo'nashibdi. Er-u xotin murod maqsadlariga yetishibdi.

YAKKADIKILTAK BILAN TO'QQIZ TO'QALTAK

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, bir kampirning yolg'iz o'g'li bor ekan. Uning oti Yakkadikiltak ekan. Yana bir kampirning to'qqizta o'g'li bor ekan. Ularni To'qqizto'qaltaklar deb chaqirar ekanlar.

Yakkadikiltak To'qqizto'qaltaklar ham arava yasab, sotishar ekan. Yakkadikiltak yolg'iz o'zi to'qqizta arava yasaganda, To'qqizto'qaltaklarning hammasi bittadan to'qqizta arava yasashar ekan. To'qqizto'qaltaklar Yakkadikiltakni hech ko'ra olmas ekanlar, doim unga hasad qilar ekanlar.

Bir kuni kechasi aka-ukalar Yakkadikiltaknikiga kelishibdi. U uxlab yotganida, yasab qo'ygan tayyor aravalarini kuydirib ketishibdi. Aravalar kuyib, kul bo'libdi.

Erta bilan Yakkadikiltak turib qarasa, hamma aravalar kuyib, kul bo'lib yotganmish. "Ey, bu o'shalarning ishi" deb, kullarni bir qopga solib, og'zini bog'lab, yo'lga tushibdi. U keyingi qishloqqa yetib borganida namoz vaqti ekan. U ko'chada yurgan bolalarga:

– Bunga tegmanglar, bu qopda tilla bor, – deb tayinlab, o'zi namoz o'qigani kirib ketibdi. Bolalar qiziqib, qopning bir chetini teshib ko'ribdilar.



Qarashsa qopda kul emish. Yakkadikiltak namozdan chiqib, ko'rsaki, qopining bir chetidan kul to'kilib yotibdi.

– Voy-dod, mening tillalarimni olib, o'rniga kul solib qo'yibdilar, – deb baqira boshlabdi. Odamlar to'plana boshlabdilar. Ular Yakkadikiltakning gaplariga ishonib:

– Hech jahonda kul ham olib yurarmidi, tilla bo'lsayam, bordir, – deb odamlarning rahmi kelib unga pul to'play boshlashibdi.

Yig'ilgan pullar yarim qopdan oshibdi. Yakkadikiltak pullarni eshakka yuklab, o'z uyiga qaytayotganda yo'lda To'qqizto'qaltaklarni uchratib qolibdi. U qopini bir tepsa, pullari shaldur-shuldur qilib ketibdi. Aka-ukalar hayron bo'lib qarashibdi va Yakkadikiltakdan:

– Qayerlardan kelyapsan? – deb so'rashibdi.

– Ey, kechasi sizlar aravalarimni kuydirib, menga foyda qildinglar. Kulni qopga solib, ketaversam, hamma chiqib bir siqimdan olib, pul tashlab ketaverishdi, hamma yog'im pulga to'lib ketdi, – debdi Yakkadikiltak.

Aka-ukalarning battar jahli chiqib, boshqa yo'llarini izlay boshlabdilar. Ular, "hoynahoy, qari onasi yo'l-yo'riq ko'rsatayotgan bo'lsa kerak" deb o'ylab, kampirni o'ldirmoqchi bo'lishibdi. Ular kechga yaqin yana Yakkadikiltakning uyiga borishibdi.

Kampirning uyqusi qochib, tashqarida uymalanib yurgan ekan. To'qqizto'qaltaklar kampirni o'ldirib, eshik tagiga tikka qilib o'tqazib qo'yishibdi. Yakkadikiltak onasidan xabar olgani eshikka chiqsa, onasi o'lib yotgan



emish. U bu ham To'qqizto'qaltaklarning ishi ekanligini sezibdi.

Yakkadikiltak onasini eshakka mahkam qilib bog'lab, tikka qilib o'tqazibdi va yana yo'lga chiqibdi. U qishloqqa kirib borib, "o'lik ketdi, o'lik ketdi" deb baqiraveribdi. Buni eshitgan odamlar, "bu tentak bo'lganmi", deb dalaga haydab yuboribdilar.

Yakkadikiltak dalada yurib, bir xirmonga to'g'ri kelibdi. U xirmonga bug'doy uyulgan ekan. Yakkadikiltak eshagini qo'yib yuborib, o'zi esa bir chekkada pisib o'tiraveribdi. Eshakni ko'rgan odamlar:

– Hoy kampir, eshagingni ol! – deb baqiribdilar, lekin kampir indamabdi. Odamlar uning yoniga kelib:

– Hoy, kampir, eshagingni olasanmi, yo'qmi, – deb bir itarishgan ekan, kampir yiqilib tushibdi.

Buni ko'rgan Yakkadikiltak yugurib kelib:

– Mening onamni o'ldirib qo'ydinglaring! – deb ayyuhannos solibdi.

Buni ko'rgan odamlar qo'rqib ketishibdi va unga pul to'plab berishibdi. Hammalari birga kampirni ko'mishibdi. Keyin Yakkadikiltak yo'lga tushibdi, yana To'qqizto'qaltaklarga duch kelibdi.

– Qayerdan kelyapsan? – deb so'rashibdi aka-ukalar.

– Ey, kechasi sizlar onamni o'ldirib ketganinglardan keyin, ta'ziyaga odam aytib yursam, ular onangni tavob qilamiz, bir aylantirib yuring, deyishdi. Keyin onamni eshakka mindirib, qishloqlarga olib bordim.



Hamma onamni tavob qilib pul berdi, – debdi Yakkadikiltak.

Bu gaplarni eshitgan aka-ukalar hayron bo‘lib, endi Yakkadikiltakning o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lishibdi. Ular yana bir kuni kechasi Yakkadikiltak uxlab yotganini poylab uyiga kirishibdi. Uni qopga solib, daryoga tashlamoqchi bo‘lishibdi.

Yo‘lga chiqishibdi, daryogacha hali bor ekan. Yo‘lda, "bir oz dam olaylik", deb to‘xtab, uxlab qolishibdi.

Bir vaqt Yakkadikiltak uyg‘onib ketibdi, ko‘zini ochib qarasa, qopning ichida yotganmish. U yumalab-yumalab aka-ukalardan uzoqlashibdi va odamlarning qadam tovushi kelayotgan tomonga qarab surilaveribdi. U yo‘lovchilarga:

– Meni shu qopdan chiqarib yuboringlar, meni daryoga tashlashmoqchi, – debdi.

Ular qopning og‘zini ochib qarashsa, bir yigit o‘tirganmish. U qopning ichiga katta-katta toshlarni solib, og‘zini boyagiday qilib bog‘lab, aka-ukalarning yoniga olib borib qo‘yibdi. Uzoqdan cho‘pon qo‘ylarini boqib yurganini ko‘ribdi. U cho‘ponning yoniga borib qo‘ylarini daryoning u betiga o‘tkazishga yordam berib tursa, yana To‘qqizto‘qaltaklarni uchratibdi.

Ular qarashsa, yana o‘sha Yakkadikiltak. Aka-ukalar bilmaslikka olib so‘rabdilar:

– Qayerlardan kelyapsan? Shuncha qo‘ylarni qayerdan olding?

– Ey, sizlarning hamma qilgan ishlaring menga foyda keltirdi. Men daryoning ostidan shuncha qo‘ylarni haydab chiqdim, o‘ho‘, hali



yana qancha qo'ylar bor u yerda, — debdi Yakkadikiltak.

Ular hayron bo'lishibdi. Hammalari birin-ketin o'zlarini daryoga tashlabdilar. Suzishni bilmaganlari uchun cho'kib ketaveribdilar.

Shunday qilib To'qqizto'qaltaklar o'libdi, Yakkadikiltak bo'lsa ulardan qutulib, o'z murod—maqsadiga yetibdi.

OCHKO'Z BOY

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda, bir shahri azim chetidagi katta bir ko'lda juda ko'p baliqlar bor ekan. Lekin bu baliqlarni tutib yeyish juda xavfli ekan. Chunki bu baliqlar ba'zi kunlari zaharli, ba'zi kunlari zaharsiz bo'lib qolar ekan. Qaysi kuni zaharsiz bo'lib qolishini hech kim bilmas ekan.

Kunlardan bir kuni ochko'z bir boyning bu baliqlarga juda ko'zi kuyib, yegisi kelibdi. Shundan keyin har qanday xavf-xatarni ham unutib, o'z xizmatkorlariga bu baliqlardan keltirib qovurishni buyuribdi. Shunda xizmatkori unga e'tiroz bildirib shunday debdi:

— Ey taqsir, axir, bu ko'lning baliqlarini yeyish zararli-ku, bu baliqlarni qay vaqt zaharli, qay vaqt zaharsiz bo'lishini bilmasak, tag'in biror falokat yuz bermasin, — debdi.

Shunda ochko'z boy xizmatkorini jerkib:

— Hoy, miyasi aynigan chol, nega mening gapimni ikki qilasan? Senga nimani buyursam, shuni gap qaytarmasdan qilgin, xo'pmi? — debdi.

Shunda xizmatkor noilojlikdan borib, haligi baliqlardan uch-to'rttasini tutib kelib qovuribdi va o'z xo'jayinining huzuriga keltiribdi.



Ishtahasi karnay bo'lgan ochko'z boy baliqni darrov yegisi kelibdi-yu, lekin yana aynab qolibdi va o'zicha o'ylabdi: "bordi-yu, bu baliqlar haqiqatan ham bugun zaharli bo'lgan bo'lsa-chi? Oqibati yomon bo'lmasin", deb o'zicha o'ylab turgan ekan, ko'chadan bir gadoning tilangan ovozi eshitilib qolibdi. Shunda boyning ko'zi yovuzlikdan chaqnab ketibdi. "To'xta-chi, xudo gadoni xo'p vaqtida yetkazdi-da, pishirilgan baliqlardan birini shu gadoga xayr-sadaqa sifatida chiqarib beraman va asta qarab turaman. Agar baliqlar haqiqatan zaharli bo'lsa, shu gado yeyishi bilan narigi dunyoga safar qiladi va men omon qolaman. Bordi-yu, zaharsiz bo'lib chiqsa, u vaqtda men ham baliqni bemalol yeyaveraman", deb o'ylabdi. Pishirilgan baliqdan birini haligi gadoga chiqarib berishibdi. Gado esa uni duo qila-qila ko'zdan uzoqlashibdi.

Oradan ancha vaqt o'tgach, gado o'lmadi shekilli, ovozi eshityapti, deb ochko'z boy qolgan baliqlarni paqqos tushiribdi. Baliqlarni endi yeb bo'lib, og'iz-qo'llarini artib turgan ham ekanki, eshik taqillabdi.

Boy chiqib eshikni ochsa, baliq olib ketgan gado ekan. Boy unga qarab:

– Nega kelding yana? – deb so'rabdi. Shunda gado aytibdi:

– Men sizdan pishirgan balig'ingizni yedingizmi-yo'qmi, bilgani kelgan edim. Agar baliqlar zaharsiz bo'lsa, men ham bergan balig'ingizni yerdim, – debdi.

Buni eshitgan boyning esxonasi chiqib ketibdi va tez orada baliqning zahari ta'sir qilib, olamdan ko'z yumibdi, gado esa omon qolib,



zolim, ochko'z boydan o'ch olganidan xursand
bo'lib yurgan ekan.





MUNDARIJA

ERNAZAR VA KIMYONAZAR	3
HAR KIM QILSA, O'ZIGA.....	29
ZOLIM XON BILAN CHO'PON	30
QAYSAR ODAM QISMATI	33
IKKI SAVDOGAR	34
BOYNING O'G'LI.....	36
PODSHO VA DEHQON QIZI	39
ZEHNLI QIZ	43
PODSHO BILAN VAZIR	44
KUYGAN CHOL	46
QIRQ YOLG'ON	47
ESHITMASDAN CHIQRILGAN HUKM	61
PODSHONING MOT BO'LISHI	65
YAMOQCHI BILAN SHOGARIB.....	71
QOZINING MAKRI	81
TILLA KOKIL	90
KULSA- GUL, YIGLASA- DUR.....	99
HAKIM BALIQCHINING O'G'LI	105
VAFO.....	117
YAKKADIKILTAK BILAN TO'QQIZ TO'QALTAK.....	120
OCHKO'Z BOY	124

O'zbek xalq ertaklari

Ernazar va Kimyonazar

ertaklar

Toshkent – «Adabiyot uchqunlari» – 2018

Bosh muharrir: Salima Boltaboyeva

Korrektor: Alisher Sultanov

Rassom: Shuxrat Adilov

Bosishga 28.08.2018 ruxsat etildi. Bichimi 84x108 ¹/₃₂.
«School» garniturasini. Ofset qog'ozini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog'i 4.25. Nashr bosma tabog'i 4.0.
Adadi 3000. Buyurtma 95.

OOO «OSIYO TANGIR PRINT» bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh. A. Raxmat 12a. Tel.: 226-67-55.